Ta'lim jarayonining ta'limiy funksiyasi talabalarga ilmiy, texnik va ishlab chiqarishga oid tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, dalillarni yetkazish va ular tomonidan bu bilimlarning o'zlashtirilishi; olingan bilimlarni o'quv va o'quv-ishlab chiqarish masalalarini hal qilish uchun ko'nikmalarni shakllantirilishi; umumo'quv, politexnik va maxsus ko'nikmalarning shakllanishi; olingan bilimlarni

mustahkamlash, takomillashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Ta'lim muvaffaqiyatining asosiy sharti- bu o'quvchining faol bilish faoliyatidir. Bilishning faolligi o'quvchining o'quv faoliyati sifati bo'lib, u o'quvchining o'qish mazmuni va jarayoniga munosabatida, bilimlarni samarali o'zlashtirilishiga intilishida namoyon bo'ladi.

Talabani bilish faolligi o'qituvchini diqqat bilan tinglashida, o'rganilayotgan fan va hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatishida, o'rganilayotgan materialning mohiyatini tushunishga intilishida va uni mustahkam o'zlashtirishida, faol fikrlash jarayonida va bilishga oid va amaliy masalalarni hal etishda ijodiy izlanuvchanlik yo'llarini qidirishida namoyon bo'ladi. Talabani bilish faolligi darajasi va xarakteri turlicha bo'lishi mumkin, ammo u passiv bo'lsa, ta'lim jarayonini kechishi mumkin emas.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni pedagog va talabani o'zaro aloqador hatti-harakatlari tizimini o'z ichiga olib, unda pedagog boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik holatida bo'ladi, lekin oxirgi natija talabalarning o'zlarining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Kasb-hunar ta'limining bu fundamental qoidasi ta'lim jarayonini yaxlit holda faollashtirishning mohiyatini va zaruratini belgilab beradi. Bilish faolligi mohiyatan nafaqat o'qishda, balki o'quvchi shaxsini shakllanishida, uni tevarak atrofdagilarga, mehnatga munosabatida ham namoyon bo'lib, u o'quvchining faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bularning barchasi o'qitish oldiga bir qator talablarni qo'yadi, ya'ni o'qituvchi o'z faoliyatida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tashkil etish, bu jarayonni faol, ongli, imkon qadar mustaqil, ijodiy bo'lishiga erishish lozim bo'ladi.

Ta'lim jarayonining tarbiyaviy funksiyasi, pedagog qanday qarashidan qat'iy nazar, o'qitishda doimo talabalarning tarbiyasiga ahamiyat berishida namoyon bo'ladi. Bu ta'lim jarayonining ob'yektiv qonuniyatidir. O'qitish davomida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslari shakllanadi. Ta'limning bu funksiyasi shuningdek, do'stlik, o'rtoqlik, jamoaga hurmat, ijtimoiy munosabatlarga tayyorgarlikni; mehnat intizomi, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlikni tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Ta'limda jarayonidagi tarbiya o'qitish jarayoniga tarbiyaviy daqiqalarni kiritish orqali emas, balki o'quv materialining g'oyaviy ahamiyatga ega qismlarini tanlash orqali ta'minlanadi.

Ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi talabalarda fikrlashning (umumiy va texnik) samarador shakllari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash va hokazolarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonining bu funksiyalari o'zaro bir-biri bilan

chambarchas bog‘langan. Kasb-hunar kollejaridagi ta‘lim jarayonining o‘ziga xosligi uning rivojlantiruvchi funksiyasini oshirish zarurligidadir.

Umumkasbiy va maxsus fanlarning o‘ziga xos xususiyati ularni o‘qish davomida ta‘lim oluvchilar yetarlicha katta hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularda bu bilimlarni turli o‘quv va ishlab chiqarish sharoitlariga qo‘llay olish ko‘nikmasini ham shakllantirishdan iboratdir. Bu esa turlicha ta‘lim metodlari va usullarini uyg‘unlikda qo‘llashni talab etadi. Asosiy e‘tibor texnik adabiyotlar va me‘yoriy hujjatlar bilan mustaqil ishlashini tashkil etishga qaratiladi. O‘qitishda turli tabiiy va sxematik ko‘rgazmalarni qo‘llash, ta‘limning texnik vositalaridan kompleks foydalanish lozim. Maxsus fanlarning muhim xususiyati - ishlab chiqarish ta‘limi bilan bog‘liqligidir.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi kasb-hunar ta‘limi uchun tayyorlanadigan muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasini qo‘yadi. Shunday ekan, ushbu yo‘nalishda tahsil oladigan talabalarga pedagogik-psixologik sikldagi fanlardan chuqur bilim berish, ularning malakaviy amaliyotlarini talab darajasida tashkil etish lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005y.205 b.
2. D.Ro‘ziyeva., M.Usmonboyeva., Z. Xoliqova. Interfaol metodlar: Mohiyati va qo‘llanilishi (metodik qo‘llanma). -Toshkent: “Fan”, 2013. – 32b.
3. Relationship of parameters that characterize the quality of live cocoons Burkhanov, S.D., Mirsaatov, R.M., Khudoyberganov, S.B., Kadyrov, B.H. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2021, 677(4), 042032.
4. Ravshanbek Mirsaatov and Sardorbek Khudoyberganov, "Development of a non-destructive method determination of the maturity of Mulberry cocoons", AIP Conference Proceedings 2432, 040018 (2022) <https://doi.org/10.1063/5.0089646>.
5. R. Mirsaatov, S. Khudoyberganov, and A. Akhmedov, "Uncertainty estimation in determination of Cocoons silkiness by thickness of their shell", AIP Conference Proceedings 2612, 050010 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0114683>.
6. Karabayeva M.A., Mansurova M.Y., Kasimova G.A., Sultankhodjaeva G.SH. Pedagogical technologies. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. 2023, pp. 142-147. <https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7827470>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH TEXNOLOGIYALARI

Abdukodirova Maftuna Utkirovna

Samarqand viloyati Payariq tumani 48-DMTT tarbiyachisi

maftuna94@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatish texnologiyalari va unga xos sifatlari ma'no xususiyatlari ochib berilgan; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatish texnologiyalarining ma'no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tasviriy faoliyat, tabiatga sayr, mehnatsevarlik, islohatlar, xalqaro tadqiqotlar, boshqaruv dasturi, ishtirokchilar, pedagoglar.*

TECHNOLOGIES OF CONDUCT OF PICTURE ACTIVITY COURSES IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS


***Annotation:** In the article, the technologies of teaching visual activity in preschool educational organizations and its characteristic features are disclosed; the meaning characteristics of the technologies of teaching visual activity in preschool educational organizations were analyzed based on primary sources.*

***Key words:** education, training, preschool educational organizations, visual activity, nature walk, hard work, reforms, international studies, management program, participants, pedagogues.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tasviriy faoliyat bilan tanishtirish orqali mehnatsevarlik, mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishda turli shakl, usul va vositalardan foydalanish.

Har bir bolani hayotda, davlatimizning moddiy va ma'naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o'rgatish, go'zallik qonuni bo'yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go'zalligini ko'rishga intilish insonni olijanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog'at manbaiga aylantiradi. Bolalar ko'nglida go'zallik va yuksak g'oyalar hissini uyg'otishga da'vat etishda tasviriy faoliyatning o'rni g'oyat kattadir.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

“Bolajon”¹ tayanch dasturida katta yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, mehnati natijasidan qoniqish sifatlarini shakllantirish, hunarmandchilikka qiziqtirish, xalq amaliy san’ati turlari bilan tanishtirish ta’kidlab o’tilgan. [1]

Tasviriy faoliyati bo’yicha ishni ma’lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo’yicha ham amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyati bo’yicha mashg’ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg’ulotlari o’rtasida o’zaro bog’liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir.

Tasviriy faoliyatining har bir turi o’ziga hos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo’lsada, ularni bir yo’nalish, maqsad bo’yicha (tevarak-atrof hayotni xilma-xil o’ziga hos ko’rinishlarida tasviriy) birlashadilar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatsevarlik, ko’nikmalarini shakllantirishda turli shakl, usul va vositalar yordamidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko’rgazmali metod orqali rasmlar, kasblar bilan tanishtiriladi. Og’zaki metodlarga tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning o’zaro suhbatlari kiradi. Amaliy metodda bolalar o’zlashtirilgan bilimlarini turli o’yinlar orqali mustahkamlaydilar. Bu usullar orqali mashg’ulotlarni rang-barang hamda qiziqarli tashkil etiladi. Shuningdek, mehnat

¹ Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016

bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatsevarlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning uzluksiz, izchil, maqsadga muvofiq tashkil etilishi ham tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

NATIJALAR (PEZUYJBTATI / RESULTS).

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar bilim va ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi shartlarga ko'ra amalga oshiriladi:

- mashg'ulotlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash (aniq maqsad asosida mashg'ulotlarning tashkil etilishi o'z navbatida vazifalarning to'g'ri belgilanishi, mashg'ulot jarayonining umumiy holatini oldindan bashoratlay olish natijalarning taxminiy bo'lsa-da, belgilab olinishi uchun sharoit yaratadi);
- mashg'ulotlarni puxta reja yoki loyiha asosida tashkil etish (ushbu holat aniq maqsad negizida xususiy maqsadlarni aniqlash, mashg'ulot jarayonining umumiy davri hamda bosqichlarida amalga oshirilishi talab etiluvchi vazifalarning mavjud vaziyatga muvofiqligini nazorat qilib borish, mashg'ulot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish, har bir bosqichning yagona tizim mazmuniga muvofiq kelishiga erishish borasida imkoniyat yaratadi);
- mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqishda tarbiyalanuvchilarning xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish (nazarda tutilayotgan holat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini mashg'ulotlarga jalb etish, ularning mashg'ulotlar jarayonida faollik ko'rsatishlariga erishishni kafolatlaydi);
- mashg'ulotlar jarayonida har bir tarbiyalanuvchiga nisbatan ularning psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish asosida individual yondashish (qayd etilgan holat tarbiyalanuvchilarning mashg'ulotlar jarayonida ruhan va jismonan toliqib qolishlarining oldini oladi, har bir tarbiyalanuvchiga uning ichki imkoniyatlariga mos keluvchi topshiriqlarning berilishini ta'minlaydi); mashg'ulot jarayonida ushbu jarayonning asosiy subyektlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar shaxsining hurmat qilinishi, har qanday ko'rinisdagi faolliklarini rag'batlantirilib borilishiga erishish (mazkur o'rinda rag'batlantirish



usullari sifatida ma'naviy rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Zero, maktabgacha tarbiya yoshi bolalarining psixologik xususiyatiga ko'ra ular o'zlarining eng oddiy xatti-harakatlariga nisbatan ham atrofdagilar e'tibor berishlarini, qo'llab-quvvatlashlarini istaydilar. Atrofdagilar tomonidan bolalarning juda oddiy darajada bo'lsa-da, dinamik xususiyatga ega xatti-harakatlarining "Juda soz", "Barakalla", "Buni uddalay olasan deb kutgandim, yanglishmagan ekanman", "Berilgan topshiriqni sifatli qilib bajarishingga ishonaman", "Juda sifatli bajarilibdi" kabi olqishlar yordamida rag'batlantirilib borishi ularning mashg'ulotlarga bo'lgan yondashuvlarini keskin darajada ijobiy ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Bolada tarbiyachi tomonidan berilayotgan topshiriqni o'z vaqtida, sifatli bajarilishiga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptiradi, shuningdek, talab etilayotgan qoidalarga qat'iy amal qilish ko'nikmalari shakllanadi).

- mashg'ulotlar jarayonining oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga erishish samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Tasviriy faoliyat bilan tanishtirish mazmuni bilan bog'liq bo'lgan bilimlar atrofalamda bolalar faoliyatini va ularning o'zini tuta bilishini, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo'naltiradi. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotchi, geograf yoki ximikmi, u nafosat va go'zalliklarni ko'ra olishi va tushuna olishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyati bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy tamoyil – bu tasviriy faoliyatini ta'lim tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Tasviriy faoliyati turlari – rasm chizish, loy bilan ishlash, applikatsiya o'ziga xos tasviriy texnikasiga egadir. Tasviriy faoliyati bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilish lozim. Tasviriy faoliyati bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari mashg'ulot qanday materiallari bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishlarini ham tarbiyachi nazarda tutmoq lozim.

Masalan, loy bilan ishlashda – loy yoki plastilin, rasm chizishda– guash, rangli qalam, ko'mir tayoqchasi va hokazo. Shuningdek, tarbiyachi mashg'ulotning dastur mazmunini tanlashda, bolalarga qanday predmetlarni chizdirish haqida emas, balki shu predmetni chizdirish yoki loydan yasattirish orqali qanday bilim va ko'nikma berish yoki o'rgatish haqida ko'proq o'ylashi lozim. Ixtiyoriy mashg'ulotlari rejalashtirishda esa tarbiyachi bolalarning mustaqilligi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi o'rgatish usullari to'g'risida o'ylab olish kerakdir. Tarbiyachi ishlarni rejalashtirishda u yoki bu guruh bo'yicha dastur qo'ygan vazifalarni barchasini e'tiborda tutgan holda ish rejasini tuzadi. [7]

Shuningdek, tasviriy faoliyatlari bo'yicha bir oyga mo'ljallangan istikbol reja tuzish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda tarbiyachi tasviriy faoliyati mashg'ulotlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ham nazarda tutadi. Shunday qilgan taqdirdagina, bolalar ma'lum bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish natijasida tevarak-atrofni badiiy jihatdan o'zlashtirishlarning yangi-yangi yo'llari vujudga keladi va bolalar tevarak-atrofni obrazli qilib tasvirning turli xil usullari bilan tanishadilar. [11]

Demak, tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi o'zaro aloqa ishlarini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekan, xo'sh bu o'zaro bog'lanish qaysilar ekan?

1. Tasviriy faoliyatiga ta'lim-tarbiya ishining muhim bo'lagi deb qarash hamda rasm chizish, loy bilan ishlash, applikasiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqa, bog'lanishni doimo diqqatda tutish lozim. YA'ni, tevarak-atrof bilan tanishtirish va musiqa mashg'ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyati uchun qiziqarli hodisalar va voqealarni tanlashga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatining barcha turlari tevarak-atrof hayotni obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o'ziga hos xususiyatga ega ekanligi hisobga olmoq zarur. Rasm chizish – predmet va voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda applikasiya – rangda, siluet ravishda. Shuningdek, har biri o'ziga hos tasvir texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rang tasvir usulida, loy-plastik ravishda applikasiya - qog'ozdan qirqish va alohida qismlardan tuzish.

3. Dasturda tasviriy faoliyati turlari oldiga qo'yilgan vazifalarning ham o'zaro aloqada ekanligidir. Masalan, bolalar rang bilan rasm chizishda va shu bilan bir vaqtda applikasiyada ham tanishib boradilar.

4. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog'lanish tarbiyachiga rasm chizish, loy, applikasiya bo'yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kichik guruh doiraviy shakllarni o'rgatishda, oldin tayyor doira shakllarini applikasiyada bergan ma'qul, so'ng esa rasm chizish mashg'ulotlarida bergan ma'qul.

5. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog'lanish ma'lum bir mavzudagi mashg'ulotlar asosida ham bo'lishi mumkin. Masalan, "Bo'g'irsoq" ni bolalar ham chizish, applikasiya va loydan yasashi mumkin. Bu turdagi takrorlanish bolalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarini xilma-xil tasvirning yangi usul va yo'llari bilan tanishadilar.

6. Tasviriy faoliyati mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirishda, mashg'ulotlar o'rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o'rtasida bog'lanish vujudga keladiki, buning natijasida bolalarning yangi malaka va ko'nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma'lum ketma-ketlik va bog'lanish vujudga keladi. Masalan,

“Qushlar” mavzusi asosida olib borilgan mashg‘ulotlar jarayonida bolalar don cho‘qiyotgan qushni loydan yasashni, shoxda o‘tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy qushni qanday qilib, qog‘ozdan qirqib olishni bilib oladilar.

7. Shuningdek, tasviriy faoliyati bo‘yicha ishni rejalashtirishda faqatgina ularning turlari o‘rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay, balki har bir turdagi mashg‘ulotlar o‘rtasida ham bog‘lanish o‘rnatish va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy ishlaridan keyin mazmunli ishlarni rejalashtirish lozim. [9]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Tasviriy faoliyati bo‘yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi bolalar bilan ishlashda foydalanadigan metod va usullariga ham ahamiyat bermog‘imiz lozim. Bular ko‘rsatmali va og‘zaki metod hisoblanadi. Ko‘rsatmali va og‘zaki metodning o‘zaro birgalikda olib borilishi lozim. Demak, tarbiyachi tasviriy faoliyati bo‘yicha ishlarni rejalashtirishga juda katta ahamiyat bermog‘i lozim ekan. Tarbiyachi ishni rejalashtirishga qanday ahamiyat bergan bo‘lsa ishni hisobga olishga ham shunday e‘tibor bermog‘i lozim bo‘ladi. Chunki bu narsa– tarbiyachiga tasviriy faoliyatiga o‘rgatish bo‘yicha dastur vazifalari talablari qanday bajarilganligi aniqlashga va mashg‘ulotlarni sifatli chiqishi uchun qanday tayyorgarlik ishlarini ko‘proq olib borish lozimligi, hamda o‘rgatishlarning yangi xilma-xil metod va usullari ustida ko‘proq ishlash lozimligini aniqlab olishga va keyinchalik ulardan bolalar bilan ishlashda foydalanish uchun yangi-yangi imkoniyat yaratib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016.
2. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari. T.: 2017
3. “Bilimdon” dasturi. T.: 2014
4. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. Maktabgacha ta’lim muassasalarda applikasiya mashg‘ulotlari. T., 2014.
5. D.T Sabirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish.
6. Safarov, B.N. (2022). PIRLS-XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH BO‘YICHA TARAQQIYOT. Ta’lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138.
7. Safarov, B.N. (2022 yil, noyabr). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KOUCHINGNI TOSHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI. 21- ASRDA INNOVATSION TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATIGA BASHLANGAN XALQARO KONFERENSIYADA (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).

8. Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta'lim jurnali , 2 (2).
9. Norboyevich, SB, & Axmadjonovna, BM (2023). TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING BOSHQARUV PRINSPLARI. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 2 (4), 18-23.
10. Мелиев Х. А., Сафаров Б. Н. ОИЛА, МАКТАБ ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МАЗМУНИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1312-1316.
11. Во'ltakov S., Begaliyeva H. TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 129-132.

UO‘T: 631.5/445.152/559

KARTOSHKKA YETISHTIRISHDA BIOGUMUSNING O‘RNI**Charshanbiyev Umurzoq Yuldashevich**

Toshkent davlat agrar universiteti, dotsenti

Odinayev O‘lmas

Toshkent davlat agrar universiteti, talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kartoshka yetishtirishda tuproqqa biogumusni qo‘llashning ahamiyati, biogumusni tayyorlash texnologiyasi, biogumusni qo‘llash usullari, me‘yori va muddatlari, kartoshkaning o‘sib-rivojlanishiga biogumusning ta‘siri kabi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: biogumus, tuproq, qatlam, gumus, mikroelement, somon, gektar, Kaliforniya qizil chuvalchangi, kartoshka, vegetatsiya, davr, organik o‘g‘it.

Аннотация: В данной научной статье приведены сведения о важности внесения биогумуса при возделывании картофеля в почву, технологии приготовления биогумуса, способах, нормах и сроках внесения биогумуса, влиянии биогумуса на рост и развитие картофеля.

Ключевые слова: биогумус, почва, слой, гумус, микроэлемент, солома, гектар, калифорнийский красный червь, картофель, вегетация, период, органическое удобрение.

Annotation: This scientific article provides information on the importance of introducing vermicompost when cultivating potatoes in the soil, the technology for preparing vermicompost, methods, rates and terms of applying vermicompost, the effect of vermicompost on the growth and development of potatoes.

Key words: biohumus, soil, layer, humus, microelement, straw, hectare, Californian red worm, potato, vegetation, period, organic fertilizer.

Kirish. Dunyo qishloq xo‘jaligida ekin maydonlarining tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va qayta tiklash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Unumdor tuproqlar ekinlar hosilining yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi. Biogumus ko‘p yillardan beri qo‘llanilib kelmoqda. Biogumus shaxsiy uyning o‘simliklari tizimida, golf maydonchalari hududida, meva ishlab chiqarish sistemasida, dala sabzavotlari,

issiqxona mahsulotlari, poliz ekinlari, substrat va o'simlik urug'lari uchun, shahar hududidagi yashil maydonlar va istirohat bog'lari tashkil qilingan dalalarning tuproq unumdorligini oshirada va tuproqning suv fizik, mexanik va kimyoviy tarkibini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. U murakkab elementlardan tashkil topgan, qulay va samarali organik o'g'itdir [1,2,3,4,5,6,7,17,18,19].

Mineral o'g'it solish bu tuproqni aldashni bir yo'li. Biz tuproqqa eruvchan shakildagi ozuqa moddalarni solganimasak, tuproqning ozuqaviy qismini o'stirishga va hosil miqdorini ko'paytirishga harakat qilamiz. Lekin, muammo ozuqani belgilangan me'yorda taqsimlashdir. Azot mineralining samaradorlik darajasi o'rtacha 50% dan kamroq. Ba'zi ko'p miqdordagi o'g'itlar tuproq va yer usti suvlarini zararlamoqda va karbonat angidritdan ko'ra 300 marta zararliroq bo'lgan issiqxona gazlarini keltirib chiqarmoqda. Tuproq tarkibidagi mikroblar o'g'it tasirida zararlanadi va o'simlik ildizi bilan ozuqlanishni to'xtadi. Natijada tuproqda ortiqcha miqdorda azot hosil bo'ladi va o'simlik uni iste'mol qiladi va rivojlanadi. Tabiat bizga kuchli va sog'lom o'simlik uchun nima kerakligini ko'rsatadi: bu esa tabiiy mahsulot biogumusdir [8,9,10,11,12,13,14,15,16,].

Biogumus, bu hech qanday zararli kimyoviy vositalarsiz tabiiy sharoitda kechadigan jarayondir. Bunda chuvalchaglardan foydalaniladi. O'zbekiston sharoitida 3 xil turdagi chuvalchaglar boqiladi. Ular orasida eng samaralisi Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchaglari hisoblanadi. Kaliforniya qizil chuvalchangi bir kecha – kunduzda o'z og'irligiga teng miqdorda oziq iste'mol qiladi. Oziqni hazm qilish jarayonida chuvalchang maxsus modda - biogumus ajratib chiqaradi. Kaliforniya qizil chuvalchaglari juda serpusht bo'lib, har 7 kunda urchiydi. Chuvalchang maxsus ipak qobiqqa o'ralgan tuxum qo'yadi. 20 kun o'tgach tuxumdan 2 tadan 20 tagacha yosh chuvalchaglar chiqadi va ular 70-90 kunda voyaga yetadi. Optimal sharoitlarda bitta chuvalchang bir yilda 500 tadan 1000 tagacha nasl berishi mumkin [20,21,22,23,24,25].

Biogumus tayyorlash joy va xomashyo tayyorlash. Biogumus tayyorlash bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarimizda har xil variantlarda va usullar olib borildi. Tajribalar Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Navqorin mfy.da o'tkazildi. Biogumus tayyorlash uchun kerakli xom-ashyolar (qora mol go'ngi, somon va boshqa organik mahsulotlar) tayyorlab olindi. Shundan keyin joy tayyorlandi. Joy toza, tekis yer maksimal 50 sm balandlikda beton to'siq bilan o'rab chiqiladi. Maydonning o'lchami minimal hisobda 12 m² (2×6) tashkil qildi.



1-rasm. Uy sharoitida biogumus tayyorlash jarayoni

Biogumus tayyorlash texnologiyasi. Tayyorlangan joyga birinchi qatlam tuproq, ikkinchi qatlam maydalangan tog‘ toshi (shebin) va uchinchi qatlam go‘ng joylashtirildi. Birinchi qatlamning ahamiyati ortiqcha suvni shimib olib, o‘tacha namlikni bir xilda saqlash hisoblanadi. Ikkinchi qatlamdagi toshlar chuvalchaglarni tuproqqa o‘tib ketmasligini ta‘minlaydi. Uchinchi qatlam ozuqa qatlami hisoblanadi. Chuvalchaglarga ozuqa sifatida chorva hayvonlar masalan, qoramol, ot, qo‘y va boshqalarning go‘ngidan foydalaniladi. Go‘ng chirimagan, 3-4 oy turgan va chiqindilardan (temir, tosh, selofan va hokazolar) holi bo‘lishi kerak. Go‘ng chuvalchaglarga berilishidan oldin tuproq bilan aralashmasligi uchun beton yerga qalinligi 25 sm qilib to‘shaladi va undan toza suv chiqquncha suv sepib yuviladi. Bunday yuvishdan maqsad go‘ng tarkibidagi siydik kislotasini yuvib chiqarish hisoblanadi. Yuvish bir marotaba amalga oshiriladi. Tayyor bo‘lgan go‘ng uchinchi qatlam sifatida 15 sm qalinlikda yotqiziladi. Ozuqa sifatida go‘ngga o‘simlik qoldiqlari, meva va sabzavot po‘stloqlari, tuxum fleykalarini qo‘shimcha qilish mumkin. Ular biogumus tarkibini yaxshilaydi. Go‘ngga somon ham aralashiriladi. Yilning salqin fasllarida chuvalchanglar unga tuxum qo‘yadi, issiq mavsumlarda u havo o‘tkazuvchi nay vazifasini bajaradi. Keyin go‘ngga 40 kg, ya‘ni 1 m² chuvalchang tashlanadi. Har ikki kunda yomg‘irlatib suv sepib turiladi. Suv ta‘sirida go‘ng zijlashadi, chuvalchanglar harakati sekinlashishi kuzatiladi. Shuning uchun har 7-10 kunda o‘tkir bo‘lmagan panshaxa bilan ag‘darib turiladi. Chuvalchanglar go‘ngni qayta ishlab chiqarib biogumusga aylantiradi. Biogumus qo‘lga olib ko‘rib tekshirib turiladi. Tayyor biogumus 1-3 mm.li qo‘ng‘ir-qora rangli granulalar ko‘rinishida bo‘ladi. Keyin biogumus ustidan yana maydalangan go‘ng 15 sm qalinlikda yotqiziladi. Bu jarayon o‘rtacha 6 oy davomida qaytariladi. Jarayon so‘ngida 40-50 sm qalinlikdagi toza biogumus hosil bo‘ladi. Biogumus maxsus elak-separator orqali elanadi va chuvalchanglar, ularning tuxumlari ajratib olinadi. Biogumus xaltalarga solib qadoqlanadi. Bunday havosiz sharoitda turgan biogumus

o‘z sifatini 1-1,5 yilgacha yo‘qotmaydi. Tayyor biogumusdan issiqxona sharoitida va ochiq ekin maydonlarida gul, sabzavot hamda poliz mahsulotlarini yetishtirishda foydalanish mumkin. Mo‘l hosil olish uchun har bir nihol ostiga 700 grammdan 1 kg. gacha biogumus solish samaralidir.



2-rasm. Tayyor bo‘lgan biogumusni saralash va qoplash jarayoni

Tajriba olib borish sharoiti va uslubiyati.

Tajriba Navoiy viloyati Qiziltepa tumani och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida olib borilmoqda. Dala tajribalari 5 ta variant 3 ta takrorlashda o‘tkazildi. Tajribani qo‘yish, kuzatishlar, hisob va tahlillarni qilishda B.A. Dospexovning «Metodika polevogo opita» va O‘ZPITIda ishlab chiqilgan «Dala tajribalari uslubiyati», Metodika provedeniya polevix i vegetatsionnyx opitov v xlopkovodstve» nomli kitoblaridan foydalanildi.

Tajriba tizimi

| № | Variantlar | Organik o‘g‘it me‘yori, t/ga |
|----|------------------------------------|------------------------------|
| 1. | Nazorat varianti (o‘g‘itsiz) | - |
| 2. | Mahalliy o‘g‘it (chirtilgan go‘ng) | 10 |
| 3. | Biogumus | 2,0 |
| 4. | Biogumus | 3,0 |
| 5. | Biogumus | 5,0 |

Tajriba natijalari. Tajriba Navoiy viloyati Qiziltepa tumani och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida olib borilmoqda. Tajriba dalasining tuprog‘i och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida olib borilmoqda Tuproqning unumdorli kam, oziqa elementlari bilan kam ta‘minlangan. Shunday tuproq sharoitida kartoshka etishtirish uchun imkoniyatlarni o‘rganish uchun tajribalar olib borilmoqda. Bizning tajribamizda kartoshka etishtirish uchun mineral o‘g‘itlarsiz, faqat organik o‘g‘itlarni qo‘llash evaziga hosil olish va tuproq unumdorligini yaxshilash maqsad qilib olingan.

Tajribada olingan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, nazorat variantida kartoshkaning unib chiqish darajasiga nisbatan organik o'g'it solingan variantlarda 4-5 kun oldin boshlanganligi kuzatildi.

Biogumus solingan variantlarda tuproqning mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari yaxshi holatga o'tib boshlaganli kuzatilmoqda.



3-rasm. Kartoshka ekilayotgan maydonga biogumus solish va o'sib – rivojlanish jarayoni.

Olib borilayotgan tajribada kartoshkaning o'sib-rivojlanishi me'yorida bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Tajriba natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, nafaqat qishloq xo'jalik ekinlarining o'sib – rivojlanishiga yaxshi ta'sir qiladi, shu bilan bir qatorda tuproq unumdorligini, tuproqning mexanik tarkibini va tuproqning suv-fizik xossalari yaxshilanishiga katta yordam beradi. Demak unumdorligi kam erlarda kartoshka etishtirish uchun biogumusda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- [1] Abdalova, G.N.; Eshonkulov, J.S.; Sulaymonov, S.O.; Abdullayeva, F.M. Improvement of Cotton Nutrition Procedure and Irrigation Technologies. *ACADEMICIA Int. Multidiscip. Res. J.* 2021, 11, 720–723. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
- [2] Allanov, K.; Sheraliev, K.; Ulugov, C.; Ahmurzayev, S.; Sottorov, O.; Khaitov, B.; Park, K.W. Integrated Effects of Mulching Treatment and Nitrogen Fertilization on Cotton Performance under Dryland Agriculture. *Commun. Soil Sci. Plant Anal.* 2019, 50, 1907–1918. [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]
- [3] Burievich, T.B., Olimovich, A. Eshankulov J.S., Turaevich, M.T 2021 Groundwater consumption and cotton productivity. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(09), 130-135. [[Google Scholar](#)]
- [4] Dusbayev I.R., Nasirov B.S., Ashirov Y.R., Eshonkulov J.S., Rashidov Q. 2021 Methods of planting fine fluid cotton and effects of Herbicides. 2nd International

Conference on Science Technology and Educational Practices. Turkey 251-254 p. [Google Scholar](#)]

[5] Eshonkulov J., Kamilov B. Effect of irrigation regimes on the fertility of soybean and sunflower cultivars planted in repeated periods To cite this article: January 2023 IOP Conference Series Earth and Environmental Science DOI: 10.1088/1755-1315/1140/1/013006 [Google Scholar](#)]

[6] Eshonkulov Jamoliddin Saporboy ugli., Shamsiev Akmal Sadirdinovich. Vol.5 NO. 2020 Congress (2020) ChanGES in water-physical properties of soil in repeated crop sunflower care. International congress on modern education and integration congress – India – Volume 5. – P. 89-90. [Google Scholar](#)]

[7] Inagamova N., Rahmonov R.U., Charshanbiev U.Y., Nasirov B.S., Ruziev A.A. Washing the soil through irrigation erosion and measures to combat it. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 6 | Issue: 12 |December 2020. 496-499.

[8] Izbasarov B.E., Norkulov U., Tukhtashev B., Hikmatov Sh. Influence of new types of horizontal ditches on the growth, development and yield of winter wheat in saline and groundwater surface soils. influence of new types of horizontal ditches on the growth, development and yield of winter wheat in saline and groundwater surface soils 2021 [Google Scholar](#)]

[9] Nasirov Bakhtiyor Salakhiddinovich Charshanbiyev Umuroq Yuldashevich, Eshankulov Jamoliddin Saporboy ugli. "Efficiency of application of herbicides which are samuray 33% ek, zellek super 10.4% ek and triflurex 48% ek against weeds in cotton fields" *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.09 (2021): 136-139.

[10] Nasirov B.S., Charshanbiyev U.Y., Eshankulov J.S., Oblokulova J.B. Efficiency of application of herbicides which are samuray 33% e.k., zellek super 10.4% e.k. and triflurex 48% e.k. against weeds in cotton fields. *Web of scientist: Internstional scientific research jurnal* ISSN: 2776-0979 (Volume 2, Issue 9, Sep., 2021. 136-139. [Google Scholar](#)]

[11] Norkulov U., Izbasarov B., Tukhtashev B., Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Effects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land, *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology* e-ISSN: 2792-4025 40-42 p.

[12] Norqulov U., Axmurzayev Sh., Eshonqulov J., Raxmatullayev S. Toshkent viloyati sharoitidasoya dalasidagi zarpechakka qarshi zeta 100 g/l gerbitsidini qo'llashning samaradorligi 2022/12/31 *research and education* 503-507 [[Google Scholar](#)] [[CrossRef](#)]

[13] Norkulov U., Tukhtashev B., Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Change of mechanical composition of soils after flood of sardoba water reservoir, *international journal of innovative analyses and emerging technology* e-ISSN: 2792-4025 36-39 p. [Google Scholar](#)]

[14] Salakhiddinovich, Nasirov Bakhtiyor., Eshankulov Jamoliddin Saporboy ugli 2021 "Development of Irrigation Procedures for Shadow Varieties Planted After Autumn Wheat." *International conference on multidisciplinary research and*

innovative technologies. Vol. 1. 2021. [Google Scholar](#)]

[15] Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Eshonkulov Jamoliddin Saporboyugli, Sultanov Umbetali Tazabayevich 2020 Growth and development of soy and sunflower varieties. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal 10(11):1289-1291

[16] Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Kamilov Bakhtiyor Sultanovich., Eshonkulov Jamoliddin Saporboyugli, Ashirov Y.R. Agrophysical and agrochemical properties of influence of recycled soya and soil of the field 2020 ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal August – India, 2020. – Vol. 10. – Issue 8. – P. 475-479

[17] Tukhtashev B., Norkulov U., Izbosarov B. Technology of proper use of saline soils in the conditions of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 258, 03027 (2021) [Google Scholar](#)]

[18] To‘xtashev B.B. Organik dehqonchilik. Darslik. “Fan ziyosi nashriyoti” T. 2022.

[19] Textbook on Organic Agriculture. FAO fiat panes. Budapest 2017.

[20] Toshpulatov Ch., Tukhtashev B., Charshanbiev U., Mavlonov B. Effects of soil salt-leaching terms on growth, development and yield of corn in Uzbekistan. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 2022 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1140. 013005. 1-9.

[21] Ziyatov Musulman Panjiyevich, Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Kamilov Bakhtiyor Sultanovich, Abdalova Guliston Nuranovna, Abdurakhimov Shavkatjon Olimovich, Eshonkulov Jamoliddin Saporboy ugli. PJAEE, 17(6) 2020 Effective agrotechnology of cotton feeding in different irrigation methods. Palarch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 17(6). ISSN 1567-214x. 3415-3428 p.<http://www.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1335> [Google Scholar](#)]

[22] Chorshanbiyev U.Y., Allanov Kh.K., Safaraliyev L.H., Berdiboev E.Y. The effect of organic fertilizer application in growing amarant (amaranthus) plant. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 2022 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1140. 011021. 1-8.

[23] Charshanbiev U., Shodmanov M., Sultanov U., Dusbaev I. Effects of continuous application of Samurai and Zellek Super herbicides on cotton fields against weeds in the conditions of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 258, 04052 (2021). 1-11.

[24] Charshanbiev U.Y., Muminov K.M. Successive Application of Samuray 33% e.c. and Zellek Super 10,4% e.c. Herbicides Against of Weeds in the Fields or Cotton. International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN (Online): 2319-7064. 1588-1591.

[25] Charshanbiyev Umurzok. Effect of organic fertilizers in growing alfalfa for seed and forage. E3S Web of Conferences 371, 01050 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101050>. AFE-2022

TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA OID QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI SOHASIDA XORIJIY TAJRIBA

Arziqulov Adham Alimardon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

magistratura tinglovchisi

aaarzikulov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish sohasida xorijiy davlatlar tajribasiga bag'ishlangan. Maqolada MDH, Yevropa va AQSH, Yaponiya, XXR kabi boshqa rivojlangan davlatlarda tabiatni muhofaza qilishni amalga oshiruvchi organlar faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Prokuror nazorati, umumiy nazorat, sog'lom atrof-muhit, muhofaza etiladigan obyektlar, nazorat organlari.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена опыту зарубежных стран в области совершенствования прокурорского надзора за исполнением законодательства об охране окружающей среды. В статье освещается деятельность органов, осуществляющих охрану природы в СНГ, Европе и других развитых странах, таких как США, Япония, КНР.

Ключевые слова: *Прокурорский надзор, общий надзор, здоровая окружающая среда, охраняемые объекты, надзорные органы.*

ANNOTATION

This article is devoted to the experience of foreign countries in the field of improving prosecutor's supervision over the implementation of legislation related to the protection of the environment. The article covers the activities of bodies that carry out conservation in the CIS, Europe and other developed countries such as the United States, Japan, China.

Keywords: *Prosecutor's supervision, general control, healthy environment, protected facilities, supervisory authorities.*

KIRISH

Ta'kidlash joizki, bugungi globalashuv davri atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlarini tizimli, samarali va zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borishni taqozo qilmoqda. So'nggi yillarda dunyoning barcha mamlakatlari birdaniga noxush tabiat hodisalari: suv toshqinlari va bo'ronlar, yong'inlar va qurg'oqchilikka duchor bo'lish kabi noxush hodisalarni boshidan kechirishmoqda. Atrof-muhitning iqlimiy degradatsiyasi butun dunyoda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu hodisalar fonida ushbu masala jahon miqyosida muammoli masalaga aylanib ulgurdi. Sog'lom atrof-muhitni saqlash hamda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish uchun bugungi kunda dunyo mamlakatlarida tabiatni muhofaza qiluvchi turli davlat tashkilotlari tuzilgan va faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlar orasida prokuratura organlarining faoliyatini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Prokuratura organlari tomonidan tabiatni muhofaza qilish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat har bir davlatda ushbu organning huquqiy maqomidan kelib chiqib belgilanadi va amalga oshiriladi. Xalqaro tajribada prokuratura organlarining huquqiy maqomi bo'yicha turli-xil modellar shakllangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

S.P. Sherba ta'kidlaganidek, dunyoning barcha mamlakatlari uchun prokuratura organlarining yagona modeli mavjud emasligini va har bir mavjud modelning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari borligini hisobga olgan holda har bir davlatda prokuratura faoliyati milliy an'analar va jamiyat mentalitetini hamda uni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining ijtimoiy-siyosiy sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak [1].

Xorijiy davlatlarning prokuratura faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dunyoda prokuraturaning huquq tizimidagi o'rnini aniqlashga yagona yondashuv mavjud emas. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari uzoq rivojlanish davrida mamlakatning tarixiy sharoitlarini, davlat mexanizmining tabiatini va iqtisodiyotni hisobga olish asosida qurilgan [2]. Shunga qaramasdan dunyo tajribasida prokuratura faoliyatining asosan ikki modeli shakllanganini ko'rish mumkin.

Prokuraturaning Angliya-Amerika modeli. Prokuraturaning ingliz-amerika modelidagi mamlakatlarda (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi davlatlar) prokuratura organlari jinoiy ta'qib qilish faoliyatini amalga oshiradi.

Prokuraturaning Yevropa kontinental modeli. Kontinental Evropada prokuror nafaqat jinoiy ta'qib qilishni, balki jinoyat ishining sudgacha bo'lgan bosqichlarida nazoratni, jinoyat ishlarini tergov qilish ustidan nazoratni ham amalga oshiradi.

Jumladan, Fransiyada u politsiya surishtiruvchi va dastlabki tergovchi boshqaradi, Italiyada u jinoiy ishlarni qoʻzgʻatadi va tergov qiladi, sud politsiyasini olib boradi [3].

MDH davlatlari doirasida qaraydigan boʻlsak, bu davlatlarda ham prokuratura organlarining vazifalarida farqlanishlarni koʻrishimiz mumkin. Jumladan, M.Zaprudskaya Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Moldova va Ukraina davlatlari qonun chiqaruvchi organlari prokuraturaning “umumiy nazorat” (yaʼni, qonunchilik ijrosi ustidan nazorat) funksiyasini bekor qilishni belgilab beruvchi qonunlar qabul qildi va hozirda ushbu davlatlar prokuratura organlarida “umumiy nazorat” funksiyasi mavjud emas. Rossiya, Belarussiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston prokuratura organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat asosiy vazifasi hisoblanadi [4], deb fikr bildirgan boʻlsa, B.Boymatov va F.Malikovlar “AQSh, Germaniya, Italiya va Fransiya prokuratura organlarining asosiy vazifasi – birinchi galda jinoiy taʼqibni va ayblov faoliyatini olib borishdan iborat” [5], deb taʼkidlab oʻtganlar.

Yuqoridagi fikrlarni tadqiqotchi E.G. Knyazeva ham tasdiqlab, Gʻarb davlatlarida prokuratura ayblov organi sifatida faoliyat koʻrsatishi, ular “umumiy nazorat” vazifasini amalga oshirmasligini hamda koʻplab mamlakatlarda prokuratura mustaqil tizim emas, balki sud yoki ijro hokimiyati tarkibiy qismi sifatida faoliyat koʻrsatishini taʼkidlab oʻtadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Xorijiy davlatlar tajribasini oʻrganish natijasida prokuratura organlari bajaradigan vazifalar turli davlatlarda turlicha ekanligining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Jumladan, Germaniyada prokuratura organlari politsiya xizmati ishtirokida ayrim jinoyat ishlarini tergov qiladi, ayni paytda, Federal Bosh prokuror boshchiligidagi Federal prokuratura Germaniya Federal Oliy sudiga birlashtirilgan. Germaniyada prokuratura xavfli chiqindilarni noqonuniy tashlash va suv yoʻllarining ifloslanishi kabi ekologik jinoyatlarni tergov qilish va javobgarlikka tortish huquqiga ega. 2020-yilda nemis prokurorlari uchta hozirgi va sobiq Volkswagen rahbarlariga qarshi "Dizelgate" janjalidagi roli uchun ayblov eʼlon qilishdi, unda kompaniya chiqindi darajasini hisoblashni aldashga imkon beradigan dizel transport vositalariga dasturiy taʼminot oʻrnatganligi aniqlangan [6].

AQShda prokuratura ijro hokimiyati tizimida faoliyat yuritib, faoliyati koʻproq jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Prokurorlarning eng muhim vazifasi esa sudda ayblovni quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Amerika Qoʻshma Shtatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (The Environmental Protection Agency (EPA) ekologik qonunlarni bajarish uchun

mas'ul hisoblanadi hamda bu borada federal va shtat prokurorlari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Misol uchun, 2020-yilda AQSh Adliya vazirligi va EPA Fiat Chrysler bilan kompaniya chiqindi darajasini hisoblashni aldashga imkon beradigan transport vositalariga noqonuniy dasturiy ta'minot o'rnatganligi haqidagi da'volar bo'yicha kelishuvni e'lon qildi. Hisob-kitobning bir qismi sifatida Fiat Chrysler 305 million dollarlik fuqarolik jarimasini to'ladi va ekologik muvofiqlik dasturini amalga oshirishga rozi bo'ldi [7].

Angliya va Uelsda davlat ayblovchilari xizmati joriy qilingan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi – politsiya tomonidan tergov qilingan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda davlat ayblovini quvvatlashdan iboratdir [2].

Norvegiya va Finlyandiya atrof-muhitni muhofaza qilish Atrof-muhit vazirligi zimmasiga yuklangan.

Shvetsiyada prokuratura Adliya vazirligi qoshida tashkil etilgan bo'lib, sud va politsiya tizimidan mustaqil faoliyat ko'rsatadi hamda jinoyat ishlari bo'yicha tergov harakatlarini olib boorish, jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha qarorlar qabul qilish va jinoyat ishlari bo'yicha harakatlarni ko'rib chiqish bo'yicha sudga kelish vazifalarini bajaradi. Shvetsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Agentlik Shvetsiya prokuraturasi bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Shvetsiya markaziy prokuraturasida ekologiya va mehnat masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi maxsus bo'lim ham tashkil etilgan [8].

Braziliyada Federal prokuratura (The Federal Public Prosecutor's Office (MPF)) ekologik qonunlarni bajarish va ekologik jinoyatlarni ta'qib qilish uchun javobgardir. 2020-yilda MPF Braziliya hukumatiga qarshi Amazon yong'ir o'rmonlari yong'inlari bilan muomala qilgani uchun sudga murojaat qildi. Sud jarayoni hukumatni yong'inlarga qarshi kurashish va atrof-muhitga zarar etkazmaslik uchun choralar ko'rishga majbur qildi [9].

Avstraliyada Hamdo'stlik Davlat prokuraturasi direktori (The Commonwealth Director of Public Prosecutions (CDPP)) federal qonun bo'yicha ekologik huquqbuzarliklarni ta'qib qilish uchun javobgardir. 2020-yilda CDPP g'arbiy Avstraliyadagi qadimiy Aborigen tosh boshpanalarini yo'q qilganligi uchun Rio Tinto deb ataluvchi kon kompaniyasiga qarshi ayblov e'lon qildi. Ayblovlar mamlakatning madaniy merosi to'g'risidagi qonunlariga binoan qo'yilgan va kompaniya uchun jarimalar va boshqa jazolarga olib kelishi mumkin [10].

O'rganishlar Xitoy Xalq Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilganligini ko'rsatdi. Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasining 9, 10 va 26-moddalarida tabiiy muhitni muhofaza qilish tamoyillari, shuningdek, fuqaro va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar

mustahkamlangan. Davlat fuqarolar uchun ekologik muhitni va umumiy ekologik vaziyatni muhofaza qilish va yaxshilashga; ifloslanish va jamiyat uchun boshqa xavfli hodisalarning oldini olish va nazorat qilish; o'rmonlarni ekishni tashkil etish va rag'batlantirish, o'rmonlarni muhofaza qilish kabilarni tashkil etishga majburligi belgilab qo'yilgan. Ma'lumot uchun, bugungi kunda XXR ekologik xavfsizlikni ta'minlashning yagona konsepsiyasini tasdiqlagan va bu konsepsiya Xitoyning asosiy me'yoriy hujjati sifatida davlatning 2050-yilgacha ekologik xavfsizligini ta'minlash strategiyasi hisoblanadi [11].

Xitoy Xalq Respublikasida prokuratura faoliyati "Xalq prokuraturalarini tashkil etish to'g'risida"gi (The Law of the People's Procuratorates of the People's Republic of China) Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunda Xitoy xalq prokurorlarining asosiy vazifalari ko'rsatilgan bo'lib, unga jinoiy javobgarlikka torish, jinoyatlarni tergov qilish, tergov organlari qarorlarining qonuniyligini nazorat qilish, jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovini quvvatlash hamda sudlar tomonidan o'tkazilayotgan sud muhokamalarining qonuniyligini nazorat qiladi. 2018-yilda Xitoy xalq prokuraturasi (The Supreme People's Procuratorate (SPP) ekologik qonunlarni buzgan kompaniyalar va shaxslarni tergov qilish va ta'qib qilish qoidalarini o'z ichiga olgan ekologik jinoyatlar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar chiqardi. SPP shuningdek, ekologik ishlarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan maxsus bo'linmani tashkil etgan.

Yaponiya Respublikasining qonunchiligida prokurorlarning vakolatlariga jinoiy ishni qo'zg'atish va tugatish, dastlabki tergovni olib borish, tegishli qonunlar ijrosini sudlardan talab qilish, hukmlar ijrosini tekshirish va nazorat qilish kiritilgan [12].

Tahlillarga asoslangan holda qayd etish lozimki, G'arb davlatlarining aksariyatida prokuratura organlari sudlarda jinoyat va fuqarolik ishlari ko'rilishida ishtirok etib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalash, jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida muhim o'rin tutadi hamda ularda "umumiy nazorat" funksiyasi mavjud emasligining guvohi bo'lish mumkin.

Umumiy nazorat funksiyasi saqlanib qolgan MDH davlatlarida tabiatni muhofaza qilish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati bo'yicha sezilarli darajada ijobiy tajriba shakllanganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, Belarus Respublikasida tabiatni muhofaza qilishning mustahkam huquqiy asosi Belarus Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan yaratildi. Xususan, ushbu qonun bilan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanish, biologik xilma-xillikni, tabiiy resurslar va obyektlarni saqlash va tiklashning huquqiy asoslari belgilandi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi prokuror nazoratining predmeti va obyektlari "Belarus Respublikasi prokuraturasi to'g'risida"gi Qonunning 26-

moddasidan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilanadi: Belarus Vazirlar Kengashiga buysunuvchi Respublika davlat hokimiyati organlari, xususan: Belarus Respublikasi Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi va uning hududiy tashkilotlari va boshqa davlat tashkilotlari, mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlari, jamoat tashkilotlari, diniy tashkilotlar mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga rioya etilishi va ularning bir xil bajarilishini nazorat qilishdan iborat hisoblanadi [13].

Bundan tashqari, Belarus Respublikasi Bosh prokurorining “Belarus Respublikasi prokuraturasining tashkiliy va shtat tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga muvofiq ekologiya va yer qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish boshqarmasi tashkil etilgan. Boshqarmaning asosiy vazifasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tashkilotlari, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish hisoblanadi. Bosh prokuratura markaziy apparatining mazkur boshqarmasi tashkil etilishi bilan tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligi oshganligi qayd etilgan.

O‘rganishlar natijasida Rossiya Federatsiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilganligini guvohi bo‘lish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 9-moddasiga binoan, er va boshqa tabiiy resurslar Rossiya Federatsiyasida tegishli hududda yashovchi xalqlarning hayoti va faoliyati uchun asos sifatida foydalaniladi va himoya qilinadi. Butun mamlakat aholisining ekologik xavfsizligi va Rossiya Federatsiyasining subyektlari iqtisodiyoti ulardan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanishga bog‘liqligi qayd etiladi. Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har bir inson qulay atrof-muhit, uning holati to‘g‘risida ishonchli ma‘lumot olish va ekologik huquqbuzarlik tufayli sog‘lig‘i yoki mulkiga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan [14].

Rossiya Federatsiyasida konstitutsiyaviy normalar bilan bir qatorda atrof-muhit qonunchiligining asoslari quyidagilardir: “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida” Federal qonuni, Suv, O‘rmon va Yer kodekslari, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida" Federal qonunlari, “Hayvonot dunyosi to‘g‘risida”, “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar hisoblanadi.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati predmeti “Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi to‘g‘risida” Federal qonunining 21-moddasiga ko‘ra, 1) Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga rioya qilish, Rossiya Federatsiyasi hududida federal vazirliklar, davlat qo‘mitalari,

xizmatlar va boshqa federal ijroiya organlari, vakillik (qonun chiqaruvchi) va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amaldagi qonunlarning bajarilishini ta'minlash, Rossiya Federatsiyasining ta'sis subyektlarining davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, nazorat qiluvchi organlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek boshqaruv organlari va tijorat va notijorat tashkilotlarining rahbarlari; 2) ushbu badda ko'rsatilgan organlar va mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonunlarga muvofiqligi nazorat qilishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan [15].

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurorining 2014-yil 1-apreldagi 165-sonli "Atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish to'g'risida" gi buyrug'i bilan prokurorlar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati bo'yicha uslubiy vazifalar, aniq vazifalar belgilab berilgan. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasida Atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etilgan. Ushbu boshqarma quyi prokuraturalar tomonidan va ixtisoslashtirilgan ekologiya prokuraturalari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, Rossiya Federatsiyasida prokuror tekshiruvni atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishini aniqlashning eng muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu nazorat sohalarida prokuror protest berish, taqdimnoma berish, qonun buzilishiga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida ogohlantirish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek, sudga da'vo arizasi berish kabi javob berishning "klassik" vositalariga ega. Ushbu masala bo'yicha samarali prokuratura amaliyotining ko'plab misollari mavjud. Boshqa MDH davlatlarida ham shu kabi prokuratura amaliyoti shakllanganligining ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Prokuratura organlari tomonidan tabiatni muhofaza qilish sohasida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijasida xulosa sifatida quyidagilarni qayd etish o'rinli bo'ladi:

Birinchidan, Yevropa va boshqa ilg'or davlatlarda prokuratura organlari faoliyati asosan jinoyatlarni tergov qilishga, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashga hamda sudlarda ishlar ko'rilishida ishtirok etishga qaratilgan bo'lsa, qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasi asosan MDH davlatlarida mavjud hisoblanadi. G'arb davlatlarida atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan ixtisoslashtirilgan davlat va jamoatchilik tashkilotlari shug'ullanadi.

Ikkinchidan, xorijiy davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Prokuratura organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari ham muntazam rivojlanib bormoqda.

Uchinchidan, MDH davlatlarida prokuror nazorati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishi prokuratura organlarining muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, bu borada Rossiya Federatsiyasi tajribasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu davlatda ixtisoslashtirilgan ekologiya prokuraturalari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

To'rtinchidan, umuman olganda, prokuratura ekologik muammolarni nazorat qilishda va ularga qarshi kurashishda hamda fuqarolar va tashkilotlarning atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun javobgar bo'lishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Решетникова Т.А., Фролова М.А., Щерба С.П. Полномочия органов прокуратуры государств – участников СНГ: монография / под общ. ред. С.П. Щерба (науч. ред.). М.: Юрлитинформ, 2013. С. 4. (murojaat vaqti: 10.05.2023).
2. Князева Е.Г. Прокурорский надзор в зарубежных странах // Юристы-Правоведь. 2009. № 1. (murojaat vaqti: 15.05.2023).
3. Организация и деятельность прокуратур зарубежных стран: учеб. пособие / Какителашвили М.М., Куликова Г.Л.; под ред. Г.Л. Куликовой. – М., Ун-т прокуратуры Рос. Федерации, 2020. – 8 с. (murojaat vaqti: 18.05.2023).
4. Запрудская М. Совершенствование прокурорского надзора за исполнением законодательства // Электрон манба: <http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/186402/1/135-139.pdf> (murojaat vaqti: 20.05.2023).
5. Malikov F., Boymatov B. Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik ishlari bo'yicha prokurorlik nazorati va ijro ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlari // "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari". 5A-380111-yo'nalish magistrantlarining ilmiy maqolalari to'plami. - T.: TDYUI nashriyoti, 2009. – B. 50. (murojaat vaqti: 19.05.2023).
6. <https://www.politie.nl>, milieu PDF Environmental Crime Threat Assessment 2021 | (murojaat vaqti: 21.05.2023).

7. <https://www.epa.gov/enforcement/fiat-chrysler-automobiles-clean-air-act-civil-settlement-information-sheet>
8. <https://www.aklagare.se/en/about-us/specialist-offices/>
9. https://portal.tcu.gov.br/en_us/english/
10. <https://www.cdpp.gov.au/crimes-we-prosecute/environment>.
<https://www.cliffsnotes.com/tutors-problems/Project-Management/47958138--Case-1-Destruction-of-the-ancient-Aboriginal-site-Whos-to/>
11. 国务院关于印发全国生态环境保护纲要的通知2000年11月26日国发38
[Постановление Государственного совета КНР от 26 ноября 2000 г. № 38 «Стратегия по обеспечению экологической безопасности КНР до 2050 года»] / пер. А. Ю. Манцурова // URL: <http://www.gov.cn>
12. Umrzoqov Z., Boronov S. Yaponiyada prokuratura organlari faoliyati yuzasidan ba'zi mulohazalar // "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari". 5 A-380111-yo'nalish magistrantlarining ilmiy maqolalari to'plami. - T.: TDYUI nashriyoti, 2009. – B. 34. (murojaat vaqti: 16.05.2023).
13. О прокуратуре Республики Беларусь: Закон Республики Беларусь, 8 мая 2007 г., № 220-3 // Национальный реестр правовых актов Республики Беларусь. 2007. № 119. 2/1317.
14. Конституция Российской Федерации: Закон Российской Федерации, 12 декабря 1993 .
15. О прокуратуре Российской Федерации: Закон Российской Федерации, 17 января 1992 г., № 2202-1.
16. <https://helcom.fi/wp-content/uploads/2019/08/Manual-on-prosecuting-environmental-crime-in-the-Baltic-Sea-region-ENPRO-2016.pdf>

ZAMONAVIY ELEKTRON – RAQAMLI NIVELIRLAR

O‘rinboyev Subxon O‘tkir o‘g‘li

Termiz muhandislik texnologiya instituti

e-mail: subxonurinbyev485@gmail.com

Mamarashidov Farrux Mehridin o‘g‘li

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy geodezik asboblar qatoriga kiruvchi elektron- raqamli nivelirlar, ularning turlari va geodezik o‘lchash ishlarida aniqligi o‘rganiladi. Shu bilan birgalikda raqamli nivelirlarning texnik tavsiflari va ularning geodezik ishlardagi afzalliklari va qulayliklari yoritilib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Nivelir, Dini 11, Dini 12, Dini 03, Tribble, Leica, TOPCON,*

Nivelir (frans. niveleur — to‘g‘rilamoq, baravarlamok) — geodezik asbob. Yerdagi ikki nuqta balandliklari farqi (nisbiy balandligi) ni gorizontaal vizir nuri bilan, shu nuqtalarga tik o‘rnatiladigan Nivelirdan reykalalar yordamida sanoq olinadi. Tuzilishi bo‘yicha nivelir ikki turga — vizir nuri silindrik adilak (suv tarozi) yordamida gorizontaal holatga keltiriladigan Nivelirga va vizir nuri o‘z-o‘zidan gorizontaal holatga keladigan (kompensatorli) Nivelirga bo‘linadi. Birinchi turdagi Nivelirning asosiy qismlari — qarash trubasi va uning yon qismiga o‘rnatilgan silindrik adilak; ikkinchi turdagi Nivelirda — qarash trubasi va uning ichki qismida joylashgan optik prizmalı kompensator hisoblanadi. Kompensator mexanik mayatnik bo‘lib, uning optik prizmasi metall yoki sintetik ikki tolali ingichka ipda osib qo‘yilgan bo‘ladi. U 15 (minut) gacha qiya bo‘lgan vizir nurni avtomatik ravishda gorizontaal holatga keltirib beradi. Anikligi bo‘yicha Nivelir anikligi yuqori (1 km masofaga nivelirlash aniqligi 0,5—1,0 mm), aniq (2—3 mm) va texnik (10 mm) Nivelirga bo‘linadi. Nivelirlar asosiy geodezik va topografik ishlarda, barcha turdagi qurilish ishlarida, noyob binolar va murakkab inshootlarning cho‘kish hodisalarini kuzatishda, Yer qobig‘i vertikal harakatini o‘rganishda va boshqa maqsadlarda ham keng qo‘llanadi.

Yangi texnologiyalarga asoslangan elektron-raqamli nivelirlar

Keyingi yillarda yuqori aniqlikdagi nivelirlarning yangi turi - elektron raqamli nivelirlar ishlab chiqildi va ular ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda. Bularga misol qilib Dini 11, Dini 21, Carl Zeiss (Germaniya), Dini 12, Dini12T, Dini22,

Dini0.3 Trimble(AQSH), DNA03, DNA10, Sprinter 150MLeica (Shveysariya), DL101C, DL-102C TOPCON (Yaponiya) va boshqa raqamli nivelirlarni keltirish mumkin. An'anaviy nivelirlardan raqamli nivelirlar elektronika bilan jihozlanganligi va maxsus ish dasturlari bilan ta'minlanganligi uchun farq qiladi. Bu esa dala o'lchash ishlarini va natijalarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, jumladan:

- shtrix-kodli nivelir reykasi bo'yicha sanoq olishini avtomatik ravishda bajarishi

- o'lchash natijalariga ko'rish trubasi vizir o'qining silindrik adilak o'qiga parallel emasligi(i burchagiga), hamda yer egriligi va refraksiya holatlari uchun tuzatmalarni avtomatik ravishda kiritish

- nivelir bilan reyka orasidagi masofa 100m gacha bo'lganda gorizont qo'yilishni 25 mm gacha aniqlikda avtomatik o'lchash

- o'lchash natijalarini avtomatik ravishda ichki yoki tashqi yodlash(xotira) moduliga yozish

- nivelirlash yelkalarini (nivelirdan orqa va oldingi reykalargacha masofalar) tengligi va nisbiy balandlik o'lchash natijasini avtomatik tekshirib borish

- o'lchash natijalarini avtomatik ishlab chiqib, nuqtalar balandligini ekranga chiqarish

- o'lchangan ma'lumotlarni yozib saqlash uchun PCMCIA kartasi va USB moslamalardan foydalanish

- asbobni boshqarish jarayoni qulayligi, shuningdek, undan foydalanishni o'zlashtirib olish osonligi.

Dini 0.3 raqamli nivelirning tuzilishi:

- 1-ko'rish trubasining obyektivi

- 2- ko'rish trubasining fokuslanuvchi vinti

- 3- boshlash tugmasi

- 4-gorizontalligi bo'yicha aniq qaratish vinti

- 5-gorizont doira

- 6-ko'targich vintlar

- 7-treger

- 8-quvvatlash aloqani ulash uchun joy

- 9-klaviatura

- 10-displey

- 11-doiraviy adilakni terezachasi

- 12-okulyar

TrimbleDini0.3raqamli nivelir bilan 1km yo'lni to'g'ri va teskari yo'nalishlarda invar reyka orqali 0,3mm aniqlikda, oddiy buklama reyka qo'llab esa 1mm aniqlikda o'lchash mumkin. Bekatda turib 2,5m dan 100m gacha masofadagi nuqtalar 4 soniya

vaqtda o'lanadi. Nivelirda o'rnatilgan kompensatorlarni ishlash chegarasi 151 ga teng. Asbobda gorizontal doira o'rnatilgan bo'lib, uning bo'lak qiymati 10 ni tashkil qiladi. Nivelirda o'rnatilgan dastur alohida o'lchash, qayta o'lchash, o'rtadan va oldinga nivelirlash, rejalash ishlari va nivelir yo'lini tenglash kabi jarayonlarni bajarishini ta'minlaydi. Reykadan olingan sanoqlarni nivelir xotirasiga yozib saqlash yoki asbob displeyi (ekrani) dan o'qib jurnalga yozish mumkin. Oxirgi yillarda Dini rusumli raqamli nivelirlar Trimble firmasi tomonidan Din 12, Dini 12 T va Dini 0.3



1-rasm



2-rasm

nomlanib ishlab chiqarilmoqda. Yetarli aniqlikda masofani o'lchash qobiliyati nivelir yo'llarda oldi va orqa yelkalarni tez muddatda tenglash imkonini beradi. Bu esa yelkalarni maksimal uzunligini oshmasligi, shuningdek ishonchli natijalari bilan ta'minlashga va xatolar tarqalishini minimallashtirishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha joyning sharoiti va boshqa to'siqliklar tufayli nivelir reykalarning ko'p qismini ko'rish qiyin bo'ladi, lekin Dini nivelirlar bilan o'lchashlarni bajarish uchun faqat reykaning 30sm uzunligini ko'rinishi kifoya qiladi. Dini 0.3 nivelirlari yuqori aniqlikda nisbiy balandliklar va masofalarni esa aniq elektron o'lchashlar orqali bajarishga mo'ljallangan. Dini raqamli nivelirlarni qo'llash sohalari: nishabliklarni aniqlash va profillarni tuzish uchun tezkor nivelir yo'llarni o'tkazish; cho'kish zonalarni syomka qilish; temir yo'llar bo'ylab tezkor nivelir yo'llarni o'tkazish; avtomobil yo'llarni nivelirlash; uzunlik syomkalarni bajarish; yuzani nivelirlash. DNA 03 va DNA 10 Leica (Shveysariya) raqamli nivelirlarda ilg'or elektron texnologiyalar, a'lo darajali optika va aniq mexanika hamda eng katta va ergonomik suyuq kristalli displey mujassamlangan bo'lib, avtomatik ravishda shtrix-kodli reykalarda o'lchashlarni bajarishga qodir. DNA rusumli Leica(Shveysariya) raqamli nivelirlarda o'rnatilgan dasturiy ta'minot bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- shtrix-kodli reykarlar bo'yicha sanoq olish va masofani o'lchash;
- nivelir yo'lini reperlarga bog'lash;
- oraliq nuqtalar bilan birga nivelir yo'llarni o'tkazish;
- rejalash ishlarini bajarish;
- balandliklarni avtomatik hisoblash;

- tekshirish va nazoratlarni bajarish;
- ma'lumotlarni ayirboshlash va boshqalar.

DNA 03 niveliri I va II sinf yuqori aniq nivelirlashga, muhandislik inshootlari deformatsiyasini aniqlashga, DNA 10 niveliri esa texnik nivelirlash, kadastr va qurilish ishlarida nisbiy balandliklar, masofalarni tezkor o'lchashga mo'ljallangan. DNA 03 raqamli nivelir DL-101C , DL-102C TOPCON (Yaponiya)raqamli nivelirlari yuqori aniq va aniq nivelirlash ishlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, imkoniyatlari deyarli yuqorida ko'rib chiqilgan Dini va DNA raqamli nivelirlarga mos keladi. DL-101C, DL-102C TOPCONraqamli nivelirlarni qo'llash sohalari quyidagilardir:

- nivelir tarmoqlarini qurish;
- inshootlar deformatsiyasini kuzatish;
- chiziqli inshootlarni trassalash;
- yuzani nivelirlash;
- topografik syomka;
- yo'lqurilishlari(bo'ylama va ko'ndalang kesimlar, balandliklarni joyga ko'chirish);
- tunnellarni qurish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.I.Inogamov Marksheyderlik ishi
2. Avchiev Sh.K Amaliy geodeziya Oliy o'quv yurti uchun darslik Voris nashriyoti T. 2010
3. G.S.Kutumova I.I.Inogamov Geodeziya va Marksheyderlik ishi Toshkent 2020
4. <https://www.rusgeocom.ru/products/tsifrovoj-nivelir-trimble-dini-03>
5. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/n/nivelir/>

PATENT TIZIMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Abduraximov Shoxrux Shuxratjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

70420108-Biznes huquqi magistranti

E-mail: sh.sh.abduraximov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ishi turli mamlakatlarning milliy va xorijiy tajribalarini tahlil qilish orqali patent tizimining o'ziga xos jihatlari o'rganadi. Tadqiqotda xorijiy davlatlarning patent tizimidagi o'xshashliklar va farqlar, ularning yutuqlari va kamchiliklari, shuningdek, chet el qonunchiligini sinchkovlik bilan o'rganish orqali O'zbekiston va boshqa davlatlarning patent tizimlari o'rtasidagi o'xshashliklarga e'tibor qaratiladi. Ushbu umumiy xususiyatlarga huquqiy asoslar, patentni ro'yxatdan o'tkazish tartibi, patentga layoqatlilik mezonlari va ijro etish mexanizmlari kiradi. Xorijiy patent tizimlarida o'zbek modelidan farq qilishi mumkin bo'lgan xususiyatlar va innovatsiyalar xorijiy tizimlarning yutuqlarini o'rganadi, masalan, patent ekspertizasi samaradorligini oshirish, patentlar sifatini oshirish, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish.

***Kalit so'zlar:** patent tizimi, sanoat mulki, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, patent ekspertizasi.*

ОСОБЕННОСТИ ПАТЕНТНОЙ СИСТЕМЫ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

АННОТАЦИЯ

В данной исследовательской работе исследуются специфические аспекты патентной системы путем анализа Национального и зарубежного опыта различных стран. В исследовании с акцентом на перспективу Узбекистана будет уделено внимание сходствам и различиям в патентной системе зарубежных государств, их достижениям и недостаткам, а также сходствам между патентными системами Узбекистана и других государств путем тщательного изучения зарубежного законодательства. Эти общие характеристики включают правовые основы, порядок регистрации патента, критерии патентоспособности и механизмы обеспечения соблюдения.

Особенности и инновации, которые могут отличаться от узбекской модели в зарубежных патентных системах, исследуют достижения зарубежных систем, таких как повышение эффективности патентной экспертизы, повышение качества патентов и стимулирование инноваций и технологического развития.

Ключевые слова: *патентная система, Промышленная собственность, изобретение, полезная модель, промышленный образец, патентная экспертиза.*

FEATURES OF THE PATENT SYSTEM: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF DOMESTIC AND FOREIGN EXPERIENCE

ANNOTATION

This research paper examines the specific aspects of the patent system by analyzing the national and foreign experience of various countries. The study with an emphasis on the perspective of Uzbekistan will pay attention to the similarities and differences in the patent system of foreign countries, their achievements and shortcomings, as well as similarities between the patent systems of Uzbekistan and other states through a thorough study of foreign legislation. These common characteristics include the legal framework, patent registration procedure, patentability criteria, and enforcement mechanisms. Features and innovations that may differ from the Uzbek model in foreign patent systems explore the achievements of foreign systems, such as improving the efficiency of patent examination, improving the quality of patents and stimulating innovation and technological development.

Keywords: *patent system, industrial property, invention, utility model, industrial design, patent examination*

KIRISH

Intellectual mulk va sanoat mulki to'g'risidagi qonunlar innovatsiyalarni himoya qilish va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish orqali ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda jahon savdosida milliy mahsulotlar eksportining ahamiyati oshib bormoqda [2]. Intellectual mulkni himoya qilish bo'yicha kuchli qonunlarga ega bo'lgan va intellectual mulk va sanoat mulklari sanoat va YaIMda muhim rol o'ynaydigan ba'zi mamlakatlar qatorida AQSh, Yaponiya, Xitoy va Yevropa ittifoqi davlatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, birgina AQSHning o'zida intellectual mulk obyektlaridan kelgan foydaning o'zi 2019-yilgi yalpi ichki mahsulotda 7,8 trillion dollarni tashkil qilgan [10]. Bu davrda O'zbekistonning umumiy yalpi ichki mahsulot hajmi dollarga hisoblanganda

57,9 mlrd. dollardan iborat bo‘lgan [11]. Intellektual mulk obyektlarining YaIM dagi ulushi bo‘yicha O‘zbekistonda alohida hisob yuritilmaydi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar jihatdan bunday katta farq turli sabablar bilan bog‘liq. Biz ushbu maqolda buning huquqiy tomonlarini ko‘rib chiqamiz hamda intellektual mulk, xususan, patent tizimida xorijiy davlatlarda qanday imkoniyatlar mavjudligini, uni milliy patent tizimiga kiritish istiqbollari haqida fikr yuritamiz.

MUHOKAMA

Turli davlatlarning milliy qonunchiligida farqlar bo‘lishiga qaramay, sanoat mulki obyektlarini (ixtiro, foyali model, sanoat namunasi) patentlashda ularga qo‘yilgan talablar deyarli farq qilmaydi. Bunga 1883-yilda qabul qilingan “Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi” (keyingi o‘rinlarda – Parij konvensiyasi) katta ta’sir ko‘rsatgan. Quyida turli xorijiy davlatlarda sanoat mulki obyektlarini patentlashdagi (1) patentga layoqatlilik shartlari, (2) protsessual farqlar, (3) berilgan huquqlarga oid farqlar va (4) siyosiy va madaniy farqlarni tahlil qilamiz.

Avvalo, turli xorijiy davlatlarda patent tizimining vujudga kelishiga nazar soladigan bo‘lsak, patentlash tizimi 1624-yilda Angliyada qirol Jeyms I davrida Angliya parlamenti tomonidan “Yakov I statuti” nomi bilan qabul qilingan qabul qilingan “Act for Monopolies” – Monopoliyalari haqidagi qonundan boshlangan. Ushbu qonun eksklyuziv huquqlarni suiiste‘mol qilayotgan monopoliyalarni cheklashga va patent berishning yanada tartibga solinadigan tizimini o‘rnatishga qaratilgan edi. Keyinchalik bu tizim turli davlatlarga yoyilib, rivojlanib bordi hamda Parij konvensiyasi bilan umumiy tizimga asos solindi. Qo‘shma Shtatlardagi amaldagi patent tizimi 1952-yildagi Patent to‘g‘risidagi qonuniga asoslanadi. Ushbu qonunga asosiy e’tiroz Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan "birinchi ixtiro qilingan" (“first-to-invent”) prinsipi borasida bo‘lgan [4]. Boshqa barcha davlatlarda “birinchi topshirilgan” (“first-to-file”) tamoyili ishlab keladi. Yaponiya patent tizimi aynan AQSH hamda Fransiya patent qonunchiligining ayrim elementlari asosida 1885-yilda shakllantirilgan Patent monopoliyasi (Senbaitokkyo Joorei) qaroriga asoslangan. 1899-yilda Yaponiya 1883-yilgi Parij konvensiyasiga qo‘shilgach, nemis huquqidan andoza olib Patent qonuni, Dizayn qonuni va Tovar belgisi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Hozirda 1959-yildagi 121-sonli qonun amal qiladi.

Patentga layoqatlilik shartlari. Deyarli barcha mamlakatlarda sanoat mulki obyektlarining patentga layoqatlilik shartlari bir xil. Bular yangilik, ixtirolik darajasiga egalik va sanoatda fodalana olish imkoniyati kabilardir. Xususan, AQSh Patent Qonuni hamda uning Patent va tovar belgisi idorasi (USPTO) tomonidan belgilangan qoidalarga ko‘ra, AQShda patentga layoqatlilikning asosiy talablari yangilik – patent uchun arizasi topshirilgan sanadan oldin dunyoning hech bir

nuqtasida ma'lum bo'lmashligi, ixtirolik darajasi – texnologiyaning tegishli sohasida oddiy mahoratga ega bo'lgan odam uchun aniq bo'lmashligi, sanoatda fodalana olish imkoniyati – amaliy qo'llanishga ega bo'lishi va sanoatda ishlatilishi lozim [17, 101-103§]. Lekin, Yaponiya qonunchiligiga binoan, "ixtirolik darajasi" mezonini unchalik qat'iy emas. Milliy qonunchiligimizda esa uchala talabga javob beradigan ixtirolargina huquqiy muhofaza qilinishi belgilangan [18]. Biroq, istisno tariqasida ixtirolargina sanoatda ko'p miqdorda ishlab chiqarish imkoniga ega bo'lmasa ham, ixtiro deb tan olinishi mumkin [1, 125-b]. Bunga misol qilib, noyob turdagi va kam qo'llaniluvchi ixtirolarni keltirishimiz mumkin.

Ixtiroga patent oluvchi. Ixtiroga patent oluvchi masalasi ko'plab davlatlarda muammo sanalmaydi. Har qanday holatda ham ixtiroga birinchi bo'lib talabnoma bergan shaxs ixtiro uchun patent olishi barcha davlatlarda birdek amal qiladi va bu "first-to-file" tamoyili deb ataladi. Lekin AQShda, shu bilan birga Kanada hamda Filippinda uzoq vaqt davomida "birinchi ixtirochi" tamoyili amal qilib kelgan. Bu tamoyilga muvofiq patent birinchi ixtirochiga beriladi, ya'ni patent olingan ixtironing asl yaratuvchisi talabnoma bergan taqdirda avvalgi patentlar bekor bo'ladi hamda patent birinchi asl ixtirochiga qayta rasmiylashtiriladi. Hozirda barcha davlatlar "birinchi topshiruvchi" tamoyiliga o'tgan, shu jumladan AQSh Leahy-Smith America Invents Act (AIA) dan so'ng 2011-yilda rasman shu tamoyilni qabul qilgan.

Milliy patent tizimimizda "birinchi topshirgan" tamoyili amal qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga (keyingi o'rinlarda – Patent qonuni) muvofiq sanoat mulki obyektlaridan birini bir nechta shaxs o'zlari mustaqil ravishda yaratgan bo'lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Agentlikka (bugungi kunda Adliya vazirligi) birinchi bo'lib topshirgan shaxsga tegishli bo'lishi belgilangan. Bundan ko'rinadiki, milliy patent tizimimiz haqiqiy ixtirochini izlashdan ko'ra, birinchi bo'lib talabnoma topshirgan shaxs manfaatlarini himoya qiladi.

Turli davlatlar patent tizimida protsessual jihatdan tafovutlar juda ham kam uchraydi. Chunki juda ko'plab davlatlar Parij konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar normalarini o'zining milliy qonunchiligiga implementatsiya qilgan. Xususan, maxfiylik tamoyilini olsak, har bir davlatning vakolatli patent idorasi tomonidan ularga kelib tushgan talabnomalar bo'yicha hisobotlar chop etiladi hamda bular birinchi bo'lib talabnoma topshirilganlikni isbotlashda va shunday talabnomalarni rad etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda bu muddat barcha mamlakatlarda o'n sakkiz oy qilib belgilangan. Xususan, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, O'zbekiston va yana boshqalarda xuddi shunday. Lekin talabnoma topshiruvchi patent idorasidan talabnomani muddatidan ilgariroq chop qilish yoki kechiktirishni so'rab ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Kechiktirish

muddati turli davlatda turlichadir. Yevropa Patent Konvensiyasining 93-(1) va 48-(1)-moddalariga ko'ra, Yevropada patent talabnomasini topshirgan shaxs talabnomani chop etishni kechiktirishni so'rab ariza berganda, chop etish 30 oygacha kechiktirilishi belgilangan.

Patent tizimi subyektlarida ham farqlar mavjud. Patent uchun talabnomalar tuzish hamda patentga da'vogar jismoniy yoki yuridik shaxsning nomidan ish olib boruvchi subyektlar doirasi mavjud. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, bu ishlarni bajarish tegishli tarzda attestatsiyadan o'tga hamda ruxsatnomaga ega patent vakillarining vakolatlariga tegishli. Xuddi, shuningdek Yaponiya, Hindiston va ko'plab janubiy amerika mamlakatlarida patent vakillarisiz ish yuritish noqonuniy hisoblanadi. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarda esa fuqarolar o'zlari ham patent uchun talabnoma to'ldirishlari mumkin. Masalan, AQSh da talabnoma beruvchilar patentga talabnomalarni to'g'ridan-to'g'ri AQSh Patent va tovar belgilari idorasiga (USPTO) patent vakili yoki agenti tomonidan vakillik qilmasdan topshirish imkoniyatiga ega. Biroq, ko'plab talabgorlar patent tizimining murakkabligi tufayli patent vakili yoki agentlik xizmatini afzal ko'radi.

Ekspertiza so'rovi. Patent ekspertizasi talabnoma topshirishdan boshlanadigan AQSh va Yevropa qonunlaridan farqli o'laroq, Yaponiyada ekspertiza faqatgina arizachi yoki uchinchi shaxslarning so'rovi asosida boshlanadi. Patentga talabnoma berilgandan so'ng, har qanday shaxs Komissarga ariza berilgan kundan boshlab uch yil ichida arizani ko'rib chiqish to'g'risida yapon tilida so'rov yuborishi lozim [12]. Bu muddat davomida patentga layoqatlilik ekspertizasi o'tkazilmasa ham boshqa talabnomalarda keltirilgan sanoat mulki "yangi" emas deb rad etiladi.

Ba'zi davlatlarda buning aksi o'laroq patent ekspertizasini kechiktirish mumkin emas. Jumladan, AQShda patentga ariza topshirilgandan so'ng, imtihon jarayoni Patent va tovar belgilari idorasi (USPTO) tomonidan boshlanadi. Ariza beruvchida imtihonni kechiktirish yoki keyinga qoldirishni talab qilish imkoniyati yo'q. Yevropa Patent idorasi (EPO) ham imtihon jarayoni belgilangan vaqt jadvaliga amal qiladi va arizachilar imtihonni kechiktirishni talab qila olmaydi. Aksincha, ba'zi mamlakatlar patent ekspertizasini belgilangan muddatdan avvalroq, tezroq amalga oshirish imkonini ham taklif qiladi. Buning uchun bir qancha dasturlar mavjud va har bir dastur qo'shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular quyidagi dasturlar:

1) Patent prokuraturasi avtomagistrali (PPH) dasturi. Bu dastur talabnoma beruvchilarga boshqa a'zo mamlakatda tegishli talabnomadan so'ng amalga oshirilgan ekspertiz natijalari asosida tezlantirilgan ekspertizani taklif qiladi. Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa ko'plab mamlakatlar PPH dasturining o'z versiyalarini amalga oshirdilar [13].

2) Green Channel (Yashil kanal) dasturi Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa bir qator mamlakatlarda, ekologik foydali yoki toza texnologiyalar bilan bog'liq ba'zi patent dasturlari uchun tezkor ekspertizani ta'minlashni ko'zda tutadi [14]. Ushbu dasturlar ekologik jihatdan toza va uni ifloslanishdan himoya qilishga qaratilgan innovatsiyalarni rag'batlantirishni maqsad qilgan.

3). Patent tezkor dasturlari Braziliya, Kanada, AQSh va Avstraliya kabi bir nechta mamlakatlarda taklif qilinadi. Bu talabnoma beruvchilardan muayyan haq evaziga patent talabnomalari uchun muddatidan oldin tezkor ekspertiza qilish imkonini beradi. Bu turli davlatlarda turlicha nomlanadi. AQShda bu Track One dasturi deb ataladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi paytda bu dastur juda ham ko'p ishlatilmoqda [15].

4). Tezlashtirilgan ekspertiz dasturlari – Buyuk Britaniya va Singapur kabi mamlakatlarda ma'lum texnologiya sohalarida yoki ixtirolarning muayyan turlari uchun patentga talabnomalarni tekshirishni tezlashtiradigan tizimni joriy qilganlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu dasturlarning aniq tafsilotlari, talablari, shartlari va mavjudligi mamlakatlar orasida farq qiladi. Ariza beruvchilar tezlashtirilgan imtihon dasturlari to'g'risida ma'lumotlarni har bir mamlakatdagi tegishli patent idoralari yoki intellektual mulk organlariga murojaat qilish orqali olishlari mumkin.

Mualliflik haqi (Royalty). Axborot-kommunikatsiya tarmoqlarning tez sur'atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o'z asarlariga bo'lgan mutloq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga undamoqda [5]. Mualliflik haqi, ya'ni ixtirochining qilgan ixtirosidan o'zgaralar shartnoma asosida foydalangani uchun oladigan haq hisoblanadi. Mualliflik haqi asosan muallif hamda boshqa shaxslar o'rtasidagi litsenziya shartnomasi asosida kelishuv va muzokaralar bilan belgilanadi. Bu amaliyot deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Lekin Yaponiyada biroz boshqacha amaliyot ham shakllangan. Yaponiyada patent idorasi tomonidan chop etiladigan talabnoma shu qadar aniq bo'ladiki, uni hatto boshqa shaxslar ham foydalana oladi. Chop etilgan talabnoma asosida yasalgan texnika, texnologiyalardan foydalanlik uchun patent olgan ixtirochi patent olgan kundan boshlab uning ixtirosidan foydalanayotganlardan "royalty"ni talab qilishi mumkin. "Royalty" patent berishdan oldin undirilishi mumkin emas. Bu amaliyot boshqa davlatlarda shakllanmagan hamda ko'pincha tanid ostiga olinadi. Buning asosiy sababi patent olingunicha bu ixtiro jamiyat hayotida va sanoatda o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Bu holat ixtirochi uchun juda katta yo'qitish bo'lishi mumkin. Lekin buning ijobiy tomonlari ham mavjud. Ixtiro va boshqa kashfiyotlar qanchalik tez sanoatlashtirilsa, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham shu qadar tez hissa qo'shishi mumkin.

Majburiy litsenziyalar. Majburiy litsenziyalash tizimi hukumatning patent egalaridan ma'lum sharoitlarda o'zlarining patentlangan texnologiyalarini boshqalarga litsenziyalashni talab qilishini anglatadi. Buning ikkita asosiy sharti mavjud. Quyidagi ikki holatda patent egasi patentlangan texnologiyani litsenziyalashga majburlanadi:

1) Patent ixtirosi muayyan muddat davomida umuman ishlatilmagan yoki yetarli darajada ishlab chiqarishda foydalanilmagan hamda undan doimiy foydalanishga istak bildirgan shaxslar bo'lsa;

2) Agar patentlangan ixtirodan jamoat manfaatlari uchun juda ham zarur bo'lsa, majburiy litsenziyalash talab etiladi.

Majburiy litsenziyalash deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. "Pandemiya holatlarida mamlakatlar dori vositalari va patent olingan ixtirolarga nisbatan huquq egasidan ruxsat olmagan holda majburiy litsenziya berish tamoyilini qo'llaydi" [6]. Yapon qonunchiligida ko'ra, agar patentlangan ixtiro Yaponiyada uch yil yoki undan ko'proq vaqt davomida yetarlicha va doimiy ravishda ishlanmagan bo'lsa, patentlangan ixtiro ishlatishni niyat qilgan shaxs patent oluvchidan (yoki eksklyuziv litsenziatdan) shaxsga eksklyuziv bo'lmagan litsenziya (nomutlaq litsenziya) berish to'g'risidagi bitim bo'yicha munozaralar o'tkazishni so'rashi mumkin, ammo, patentlangan ixtiro uchun patentga talabnoma berilgan kundan boshlab to'rt yil o'tmagan bo'lsa, majburiy litsenziyalashni talab qilish mumkin emas [20]. Agar patent egasi litsenziya berishdan yoki muzokaradan bosh tortsa, manfaatdor tomon Yaponiya Patent idorasiga yoki arbitrajga murojaat qilishi mumkin.

2001-yilda Doha shahrida bo'lib o'tgan JSTning vazirlar konferensiyasida «TRIPS bitimi va jamiyat salomatligi bo'yicha Doha deklaratsiyasi» qabul qilingan. Aynan shu deklaratsiya dori vositalaridan foydalanishga imkoniyat yaratish bo'yicha «TRIPS bitimining moslashuvchan qoidalari»ning amalga bo'lishiga sharoit yaratgan. Deklaratsiya qoidalarida fors-major holatlari qatori epidemiya sharoitida daromadi o'rta va past bo'lgan mamlakatlarga zarur tibbiyot mahsulotlarini majburiy litsenziya asosida berish qayd etilgan [8].

Milliy qonunchiligimizda ham patentlangan sanoat mulkidan ro'yxatgan olingan kundan boshlab uch yil mobaynida yetarli yoki umuman foydalanilmagan taqdirda undan foydalanishga tayyor shaxs sudga nomutlaq litsenziya berishni so'rab murojaat qilishi mumkinligi belgilangan (Patent qonuni 11-modda).

Muddatdagi farqlar. Berilgan patentning amal qilish muddatida ham davlatlar doirasida farqlar mavjud. Masalan, Milliy patent tizimimizga ko'ra, ixtirolar yigirma yil, sanoat namunalari o'n yil, foydali modellar besh yil davomida patent bilan huquqiy muhofaza qilinadi (Patent qonuni 5-modda). AQShda patent patentga ariza

berilgan kundan boshlab ixtiro uchun yigirma yil, sanoat namunalari uchun esa patent berilgan kundan boshlab o'n to'rt yil muddatga beriladi [19, 154§-173§]. Ko'rishimiz mumkinki, patentning amal qilish muddati patentga ariza topshirilgan vaqtdan yoki patent berilgan vaqtdan boshlab o'ta boshlaydi. Patentga ariza berilgach, o'rtacha 2-4 yilda patent olinishini hisobga olsak, patent egalari uchun patent olingan kundan boshlab muddatni hisoblash afzalroq bo'ladi.

Yaponiyada ham patentning amal qilish muddati ariza topshirilgan paytdan boshlab amal qila boshlaydi. Patent talabnoma berilgan paytdan boshlab yigirma yil davomida amal qiladi. Foydali modellar uchun patent o'n yillik himoya, sanoat namunasi uchun esa yigirma besh yillik himoya taqdim etiladi [20,21,22, Article 67, 15, 21]. Patentning amal qilish muddati davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib hukumatlari tomonidan belgilanadi. Qaysidir davlat uchun ixtirolarning o'rni yuqori bo'lsa, boshqa davlatda ahvol sanoat namunalari ko'proq himoya qilishni taqozo etadi. Muddat qancha bo'lmasin, patentlashdan asosiy maqsad sanoat mulki obyektlarini himoya qilish orqali ularning yaratilishini rag'blantirish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'lib qolaveradi.

Patent idoralariga davlatning ta'siri. Amerika Qo'shma Shtatlarida AQSh Patent idorasi Savdo Departamentining agentligi bo'lib, idoraning eng yuqori mansabdor shaxsi bo'lgan Komissar Fan va texnologiya bo'yicha kotib yordamchisi orqali Savdo kotibiga hisobot beradi. Ushbu zanjirdagi shaxslar, shuningdek, Patentlar bo'yicha to'rtta komissar yordamchilari Prezident tomonidan Senatning maslahati va roziligi bilan tayinlanadi va uning xohishiga ko'ra xizmat qiladi. Xuddi shunday, Yaponiyada Yaponiya Patent idorasi Xalqaro Savdo va Sanoat Vazirligining (MITI) agentligi hisoblanadi. Yaponiya Patent idorasining bosh direktori o'rtacha har ikki yilda o'zgaradi va odatda MITIdan keladi. Xuddi shuningdek, patentlash faoliyatini deyarli barcha davlatlarda, shuningdek, O'zbekistonda ham davlat organi – Adliya vazirligi amalga oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-89-son farmonga muvofiq). Boshqa davlatlardan farqi bizning mamlakatda maxsus organ tugatilib, barcha vakolatlar Adliya vazirligiga berilgan.

Bundan tashqari, huquq tizimida ham ayrim farqlar mavjud. Qo'shma Shtatlar, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Hindiston kabi davlatlarda umumiy huquq tizimi amal qiladi. Patent tizimi maxsus qonunlar va statutlar asosida shakllantirilgan bo'lsa ham, sud presedentlarining patent tizimiga ta'siri bor. Amerika Qo'shma Shtatlarida texnologiya nou-xau qonunchiligi asosan sudyalar tomonidan ishlab chiqilgan va uni faqat ko'plab sud qarorlarini tahliliy o'qish orqali aniqlash mumkin. AQSh federal tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi huquqiy

muammolar odatda shtat qonunlari bilan tartibga solinadi, bu barcha ellikta shtat uchun bir xil emas va ba'zan shtat sudlari, ba'zan esa federal sudlar tomonidan shtat qonunchiligini qo'llagan holda hal qilinadi. Bulardan farqli o'laroq Yaponiya, Xitoy, Koreya hamda bizning huquq tizimimiz ham roman-german huquq tizimiga asoslangani bois patent tizimi haqidagi har bir qoida avvaldan qat'iy belgilangan.

Til bo'yicha farqlar. AQSh, Xitoy, Yaponiya hamda boshqa davlatlar patent talabnomalarini davlat tilida topshirishni talab qiladi. Biroq, bu chet ellik tadbirkorlar uchun kamsitish sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Ayniqsa, Xitoyda xorijlik tadbirkorlar xitoy tili qiyin bo'lgani uchun bundan ko'p nolishadi va ko'pincha patent olishda mahalliy patent vakillari xizmatidan foydalanishadi.

Patent sohasidagi nizolarni ko'rish.

Olimlarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlagan holda intellektual mulk yaratuvchilari, ya'ni ixtirochilarning huquq va manfaatlari qonun bilan himoya qilinishini unutmazlik lozim [9]. Patent tizimining yana bir o'ziga xos jihati undagi nizolarni hal qilishda sudlarning ishtiroki hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, AQSh da bu bilan bog'liq nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha shtat sudlari tomonidan, Patent va savdo belgisi idorasi (USPTO) qarorlari bo'yicha esa federal sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, patent bo'yicha nizolar, asosan, fuqarolik sudlari tomonidan, maxsus organning qarori yuzasidan vujudga kelgan nizolar esa ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yaponiyada esa nizolarni hal qilishda boshqacha amaliyot shakllangan. Aynan intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilish uchun maxsus sud tizimi tashkil etilgan. Bu Intellektual mulk oliy sudi (IP High Court) hamda uning hududiy bo'limlaridir. Bunday sudlar tashkil etilgunicha intellektual mulk bilan bog'liq nizolar Yaponiya Oliy sudi tarkibidagi umumiy fuqarolik apellyatsiya ishlari bilan bir qatorda ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan beshinchi maxsus bo'lim tomonidan hal qilingan (1950-yillar). Ushbu bo'lim yillar davomida takomillshib bordi hamda nihoyat 2004-yil iyun oyida Intellektual mulk Oliy sudini tashkil etish to'g'risidagi qonun qabul qilindi va alohida maxsus ixtisoslashgan sud tizimi vujudga keldi. [16]

XULOSA

Turli davlatlarda patent tizimi o'sha davlatlarning milliy qonunchiligi asosida shakllantirilgan. Lekin ularning asosiy qoidalari deyarli bir xil. Bunga 1883-yilgi Parij Konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar normalarini milliy qonunchilikka gormonizatsiya va unifikatsiya qilish orqali bir xillashtirgani sabab bo'lgan. Turli davlatlarda patent tizimi deyarli bir xilda tashkil etilgan bo'lsa ham lekin uning samaradorligi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri turlichadir. Bunga turli

xil omillar sabab bo'lishi mumkin, jumladan, ijtimoiy, geologik joylashuv, rivojlangan davlatlarga yaqinlik, turli xalqaro bitimlarga a'zolik, madaniy va boshqa omillar. Biz bu maqolada faqatgina huquqiy omillar nuqtai nazardan ko'rib chiqdik. Deyarli barcha mamlakatlar patent tizimi unchalik katta ahamiytga ega bo'lmagan jihatlar bilangina farq qiladi. Demak, patent tizimining samaradorligiga huquqiy omilning ta'siri unchalik katta emas. Huquqni qo'llash amaliyoti esa bir muncha ta'sir etishi mumkin. Chunki biz faqatgina huquqning qonunchilikda birligilish darajasini tahlil qilish bilangina cheklandik.

Intellektual mulk sohasida samarali huquqiy muhofaza va himoya tizimini yaratmasdan turib, mamlakatning innovatsion taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi [3]. Patent tizimining samaradorligini oshirish yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli omillarga bog'liq. Bizning bugungi tahlillarimizdan ko'rinib turibdiki, huquqiy jihatdan milliy patent tizimini tashkil etgan qonunchilik bazasi yetarli darajada shakllantirilgan. Bizningcha, endi ushbu tizim boshqa davlatlardagi kabi samarali ishlashi uchun uning amaliy jihatlarini ko'rib chiqish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. A.Z.Djumaxodjayev. (2001). *Patentshunoslik: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*. Mehnat.
2. Abdugopirovich Y. A. (2021). Types Of Legal Protection Of A Trademark (Service Mark) In Foreign Countries: The Example Of The Madrid System. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*. – T. 12. – №. 4. – С. 1068-1073.
3. Юлдашов А.(2020). Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.
4. Curesky, Karen M. (1989). International patent harmonization through W.I.P.O.: An analysis of the U.S. proposal to adopt a "first-to-file" patent system. *Law and Policy in International Business*. 21(2): 289-308
5. ЮЛДАШОВ А. (2022). Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.
6. YULDASHOV A. (2023). Intellectual property law policy in Uzbekistan. *Global Scientific Review*. – Т. 12. – С. 80-85.

7. Юлдашов А. (2021). Географик кўрсаткич тушунчаси ва иқтисодий ва маданий мустақамлашда унинг тутган ўрни. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 2. – №. 1. – С. 249-257.
8. Юлдашов А. А. (2021). Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности. *Электронный инновационный вестник*. – №. 1. – С. 18-20.
9. Юлдашов, А. А. (2021). Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира / А. А. Юлдашов // Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности : Сборник статей Международной научно-практической конференции, Москва, 09 июня 2021 года / Образовательное частное учреждение высшего образования «Институт международного права и экономики имени А.С. Грибоедова» (ИМПЭ им. А.С. Грибоедова); Кафедра интеллектуальной собственности и гражданско-правовых дисциплин. – Москва: Издательская группа "Юрист". – С. 198-205. – EDN VFPFTV.
10. USPTO. (2022). *Intellectual property and the U.S. economy: Third edition*. United States Patent and Trademark Office, US. <https://www.uspto.gov/sites/default/files/documents/uspto-ip-us-economy-third-edition.pdf>
11. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. (2019). *Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish*. Maqola. https://stat.uz/uploads/docs/yalpi_ichki_mahsulot_dekabr_uz.pdf
12. WIPO. (2023). *PCT Applicant's Guide – National Phase – National Chapter – JP*. World Intellectual Property Organization. Article. <https://www.wipo.int/export/sites/www/pct/guide/en/gdvol2/annexes/jp.pdf>
13. WIPO. (2023). *PCT-Patent Prosecution Highway Program (PCT-PPH and Global PPH)*. World Intellectual Property Organization. Article. https://www.wipo.int/pct/en/filing/pct_pph.html
14. Imogen Percival and Robin Newman (2022). *Intellectual Property Office Green Channel accelerates environment-friendly patents*. Government Science & Engineering. <https://governmentscienceandengineering.blog.gov.uk/2022/07/18/intellectual-property-office-green-channel-accelerates-environment-friendly-patents/>
15. USPTO. (2023). *USPTO's Prioritized Patent Examination Program*. United States Patent and Trademark Office, US.

<https://www.uspto.gov/patents/initiatives/usptos-prioritized-patent-examination-program>

16. WIPO. (2023). *An International Guide to Patent Case Management for Judges*. World Intellectual Property Organization. Article. <https://www.wipo.int/patent-judicial-guide/en/full-guide/japan/7.1.4>
17. Government Publishing Office (2023). *United States Code Title 35 – Patents*. United States Patent and Trademark Office, US. https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf
18. Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi. (2002). *“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun*. <https://lex.uz/docs/-76671>
19. Government Publishing Office. (2023). *35 U.S.C. United States Code, 2011 Edition. Title 35 – PATENTS*. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title35/html/USCODE-2011-title35.htm>
20. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Japan Patent Act. Act No. 121 of April 13, 1959*. https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4097#je_ch5sc1at12
21. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Utility Model Act Act No. 123 of April 13, 1959*. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4259>
22. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Design Act. Act No. 125 of April 13, 1959*. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4260>

LANGUAGE SYSTEM AND ITS STRUCTURAL FEATURES

The concept of language as a phenomenon of cultural and historical development

Sagdullaeva Laura Khakimjanovna

Teacher of English of University Geological Sciences

email: Laura.sagdullaeva@gmail.com

Annotation: *The article examines the reasons of the most important features of speech activity, which distinguishes it from other types of activity. Speech communication is carried out according to the laws of a particular languages.*

Key words: *speech communication, language, psycholinguistics, scientific concepts, mental formation.*

TIL TIZIMI VA UNING TUZILISH XUSUSIYATLARI

Til tushunchasi madaniy-tarixiy taraqqiyot hodisasi sifatida

Annotatsiya: *Maqolada nutq faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan ajralib turadigan eng muhim xususiyatlarining sabablari ko'rib chiqiladi. Nutq aloqasi ma'lum bir til qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq aloqasi, til, psixolingvistika, ilmiy tushunchalar, aqliy shakllanish.*

ЯЗЫКОВАЯ СИСТЕМА И ЕЕ СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Концепция языка как феномен культурно-исторического

Аннотация: *В статье исследуются причины важнейших особенностей речевой деятельности, отличающие ее от других видов деятельности. Речевое общение осуществляется по законам определенного языка.*

Ключевые слова: *Речевое общение, язык, психолингвистика, научные концепции, психическое формирование.*

The language has an internal order, the organization of its parts into a single whole. Consequently, systemic and structural nature characterize the language and its units as a whole from different angles. The language system is an inventory of its units, united in categories and tiers according to typical relations; the structure of the

После обретения Узбекистаном независимости особое внимание было уделено повышению уровня грамотности населения. Потому что стало понятно, что уровень грамотности членов общества является одним из основных факторов, обеспечивающих развитие страны. Поэтому в связи с принятием национальной программы подготовки кадров (1997 г.) срок обязательного образования был продлен на один год. Прежде всего, стала применяться новая концепция содержания образования, способа его организации, определения характера образования. Важность грамотности также значительно возросла, поскольку внедрение идеи национальной независимости рассматривалось как мероприятие общегосударственного значения. Система образования в нашей стране организована таким образом, что здоровый человек не остается в стороне от учебы.

Понятие " грамотность " определяется в разных местах по-разному. В некоторых странах грамотным считался человек, умеющий читать простые тексты, в то время как в некоторых странах грамотным считался человек, умеющий читать и писать. Именно поэтому вопрос о присвоении сущности понятия " грамотность " неоднократно рассматривался на международных совещаниях по программам демографической статистики и переписи населения. На 10-й сессии ЮНЕСКО в Париже в 1958 году было решено считать грамотными людей, которые могут понимать и читать письмо и могут изложить свою повседневную жизнь в письменной форме, с целью унификации концепции грамотности во всех странах.

Даже в наши дни, когда наука неуклонно развивается, информационные технологии совершенствуются, а человеческое мышление становится все более

доступным, уровень грамотности во всем мире не так высок, как грамотность по данным соответствующих систем ЮНЕСКО, в развивающихся странах наблюдается быстрый рост населения, снижение грамотности из-за неполной вовлеченности детей в систему образования. Даже в высокоразвитых странах количество неграмотных людей составляет значительный процент населения. Вот почему на Генеральной конференции ЮНЕСКО в 1966 году было установлено, что 8 сентября-Международный день распространения грамотности.

Уровень грамотности-одна из самых актуальных проблем в современной системе образования. Это означает не только умение находить нужную информацию, но и умение добиваться ее и применять на практике, анализировать и синтезировать эти знания, руководствуясь тем, что информация живет бесконечно.

Система высшего и среднего образования многих европейских стран отличается от нашей. Основное отличие заключается в обучении студентов использованию информации, а не схем и запоминании. Конечно, важно развивать память. Тем не менее, в рамках такой системы, как образование, важно не только изучить материал, но и обсудить, как сделать выводы и выводы, найти альтернативные решения, рассмотреть на первый взгляд различные взаимосвязи между обсуждаемым вопросом, поддержать логические аргументы и обосновать свои утверждения.

Минимальная грамотность отражает умение читать и писать простые сообщения, функциональная грамотность – умение пользоваться навыками чтения и письма с точки зрения взаимодействия с обществом (открытие банковского счета, заполнение анкеты при въезде в отель, чтение инструкций к приобретенному устройству, написание искового заявления и т.д.), т. е. позволяет человеку полноценно функционировать в социальной среде. Это уровень грамотности, который позволяет.

Понятие "функциональная грамотность" впервые появилось в документах ЮНЕСКО в конце 60-х годов прошлого века, а затем стало использоваться исследователями, определившими его как метод социальной ориентации личности, воплощающий связь образования и многогранной человеческой деятельности.

В современном быстро меняющемся мире функциональная грамотность становится одним из основных факторов, способствующих активному участию людей в социальной, культурной, политической и экономической деятельности, а также обучению на протяжении всей жизни. Функциональная грамотность

формируется при изучении всех школьных предметов и поэтому имеет различные формы проявления. Функциональная грамотность - рассматривается как способ использования всех знаний, умений и навыков, которые человек постоянно приобретает в жизни, для решения жизненных задач в различных сферах человеческой деятельности. Функционально грамотный человек - это человек, который ориентируется в мире и действует в соответствии с социальными ценностями, ожиданиями и интересами. Одна из самых больших и важных задач, стоящих перед нами, - научить учащихся функциональной грамотности с начальной школы и вырастить их в функционально грамотных людей.

Одной из важнейших задач современного образования является формирование функционально грамотных людей. Что такое "функциональная грамотность"? Функциональная грамотность – это способность человека вступать во взаимоотношения с внешней средой, быстро адаптироваться и работать в ней. Основы функциональной грамотности закладываются в начальной школе, где проводятся интенсивные занятия по различным видам речевой деятельности – письму и чтению, говорению и аудированию.

Содержание понятия "грамотность" исторически изменяется вместе с изменением требований общества. Смена современной образовательной парадигмы под влиянием социальных факторов и тенденций в развитии общества обусловила необходимость рассмотрения вопроса о формировании функциональной грамотности в сфере общения как важного качества личности, определяющего успех. В заключение следует отметить, что, повышая функциональную грамотность младших школьников, мы можем воспитать и вырастить наше будущее поколение функционально грамотных личностей, способных не терять себя в любой ситуации, быть вдумчивыми, проницательными, умеющими находить рациональные решения жизненных трудностей. Это вносит большой вклад в развитие общества и приводит к развитию экономики.

Литература:

1. Kovaleva G S., Krasnovskiy E. A., Krasnokutskaya L. P., Krasnyanskaya K. A. Rossiya RIABA xalqaro qiyosiy o'rganish natijalari // Ta'lim masalalari. – 2004. – 1-son.
2. Kholodnaya M. A. Zamonaviy ustuvorliklari maktab ta'limi: ijtimoiy hayotga moslashish qobiliyati
3. aql yoki intellektual rivojlanish va ta'lim? // Material IV Butunrossiya Kongressi Rossiyadagi ta'lim psixologlari "Psixologiya va zamonaviy rus ta'limi" (2008-yil 8-12-dekabr, Moskva). – M., 2008-yil.
4. Leontiev A. A. O'qish psixologiyasidan o'qishni o'rgatish psixologiyasiga // 5-xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari (2001-yil 26-28-mart): 2 soat ichida – 1-qism / ed. I. V. Usacheva. – M., 2002-yil.
5. 2010-yil 7-dekabrda 2011-2020-yillarda Qozog'iston Respublikasi ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi.
6. Perminova L.M. Funktsional savodxonlikning minimal maydoni (Sankt-Peterburg maktabi tajribasidan) //Pedagogika. 1999. – 2-son. – B.26-29.
7. Perminova L.M. Funktsional savodsizlik/savodsizlik ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida. – M., 2003-yil 8. Repkina G.V., Zaika E.V. O'quv faoliyatining shakllanish darajasini baholash. – M., 1997-yil

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TIL O'YINLARINING O'RNI

Satiboldiyeva Malohatxon Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, magistr

Teshaboeva Gulnoza Alimjonovna

Andijon davlat universiteti, o'qituvchi

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, fan darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

- 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik "hikoyacha" (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirishdan iborat.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi narsalar bilan tanishish yordamida so'zni ovoqli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yig'iq gap (*Bolalar yuguryapti*), sodda yoyiq gap (*Lola do 'konga bordi*), uyushiq bo'lakli gap (*Anvar oyisiga yordamlashdi, ukasiga qaraydi*), qo'shma gap (*O'g'il bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy-mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Fanlar, uy-ro'zg'or asboblari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi.

Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi. Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va *Bu nima? Bu kim? Bu qanday fan? Kim nima qilyapti?* kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli narsalarning nomini, ularning belgilarini aytish, narsalarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi.

Masalan o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum ber mavzuda (*kuz, mevali bog', oila, sinf, maktab haqida*) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. O'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O'qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchini savollariga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Maktabda ilm o'rganish jarayonida o'quvchi nutqini o'stirish, lug'atini boyitish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi, chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bolalar nutqini o'stirishda nutq jarayonining mazmundorligiga mantiqan to'g'ri va aniqligiga, sodda va sofligiga e'tibor berish lozim. Tegishli nutq madaniyatini ta'minlash, o'quvchilarga ortiqcha so'zlar, siyqasi chiqqan iboralardan qutilishda mohirona maslahatlar ko'magida yordam berish, aytilgan har bir mustaqil fikr, mulohaza so'zlarning, o'ylab topilgan yangi misollarning sifatli uchun rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

O'yin kichik yoshdagi o'quvchilarni faollashtiradi, ular o'rtasida ahillik, birlik, g'oliblik uchun intilishni kuchaytiradi. Umuman dars jarayonida o'quvchilarning charchog'ini yo'qotish va ularning og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradigan o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi deb o'ylayman. Sabab bola o'yin faoliyatiorqali anchagina ko'nikma hosil qiladi va biz uni rivojlan tirib borishimiz zarur.

Quyida ana shunday o'yinlardan namunalar keltiramiz.

1-o'yinning jihozi - har bir o'quvchi uchun alohida harflar hamyonchasi. O'yining borishi: har bir tovush va harf hakida o'quvchilarga tushuncha berilgandan so'ng tovushlarni talaffuz qildirish, shu harfni kesma harflar ichidan yoki matn ichidan topib ko'rsatish o'yini tashkil kilinadi. O'yinning maqsadi bolalarda tovush va harf haqida tushunchalarni shakllantirish, tovushlarni sof talaffuz qilishga o'rgatishdir.

2-o'yinning jihozi - magnit taxtasi va harflar. Magnit taxta orqali o'quvchilarning og'zaki nutqda o'rgangan harflarini yozma shaklida tekshirib ko'rish mumkin. Buni amalga oshirish uchun o'quvchilarning yangi harfga doir

tuzgan so'zlarini kesma harflardan magnit taxtasiga yozib borishlarini talab qilish va bu borada guruhlararo musobaka ham o'tkazish kerak.

1-o'yinning jihozi - katta va kichik kesma harflar. O'quvchilar lug'atini boyitishning qiziqarli turlaridan yana biri - kesma harflarni o'qituvchi stoli ustiga teskari qilib qo'yadi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga ajraladilar va har bir guruhdan

o'quvchilar chaqiriladi. Ular teskari turgan harflardan olishadi. Olgan harflari bilan boshlanadigan so'zlar toishadi. Keyingi o'quvchilar shu so'z ishtirokida gaplar, gaplardan kichik matn tuzadilar. O'yin shunday davom ettiriladi.

2- o'yinning jihozi - meva va sabzavotlar. Meva va sabzavotlar orqali o'quvchilarning lug'atini boyitish, nutqini o'stirish uchun ularning rasmlarini emas, aynan o'zini ko'rsatish qiziqarliroq bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning idrok etish salohiyatini rivojlantiradi. Masalan: olma, anor, uzum, karam, sabzi, piyoz, pomidor, bodring ko'rsatilgandan so'ng bolalar ularning nomini aytadilar. Birinchi guruhdagi o'quvchilar meva va sabzavolarning nomini aytsa, ikkinchi guruhdagilar ko'rinishini aytadilar: dumaloq, qizil, sariq, uzunchoq, yashil. Uchinchi

O'yinning ikkinchi usulida birinchi guruhdagi o'quvchilar narsalarning nomlarini aytsalra, ikkinchi guruhdagilar bu so'zlarni bo'g'inga ajratadilar va unli tovushlarni topadilar. Musobaqa shu so'zlar bilan gap tuzdirish yuilan davom ettiriladi.

Aksincha aytish o'yini.

O'yin quyidagicha tashkil qilinadi. Biror bir predmetning sifati yo belgisini aytib shar yoki kaptok o'quvchiga irg'itiladi. O'quvchi uning qarama qarshi ma'nosini anglatadigan so'zni aytishadi. Masalan: shirin-nordon, baland-past.

Tez-tuz o'yini.

Stol ustida har xil predmetlar rasmi qo'yiladi. Orqasiga raqam yozilgan. O'quvchi raqamni aytadi. Shu raqamdagi predmet olinadi.

Masalan: olma rasmi.

Tez shu predmetga gap tuzishi kerak. *Olma. Bog'imizda olma daraxti ko'p.* O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

Hikoya tuz o'yini.

So'zlar beriladi. Shu so'zlar asosida hikoya tuziladi. Masalan: daraxt. Hovlimizda katta mevali daraxt bor...

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi xar bir mavzu bo'yicha mufyan shakldagi ta'limiy o'yinni tashkil qilish mumkin. O'qituvchi, avvalo ta'limiy o'yinlarning ta'lim- tarbiyaviy maqsadini belgilab, o'yinga kerakli matetiallarni tayorlab, o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, o'quvchilarning xatolarini yo'l-yo'lakay tuzatib borish kerak. O'yin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.

“So'z” o'yini.

Qaysi tovush (harf) so'zlarning manosini o'zgartiryapti?

1- variat - og'zaki. Bunda o'qituvchi navbat vilan so'zlarni og'zaki ayta boshlaydi: o'quvchilar qo'l ko'tarib so'zning ma'nosini o'zgartirayotgan

tovushni aytadi va ma’nosini o’zgartirayogan so’zlar shitirokida og’zaki kaplar tuzadilar.

- 2- variat - yozma ravishda. Bunda ikki guruxdan iborat o’quchilar musobaqa tarzida xat taxtaga yozilgan so’zlarning manosi o’zgartirayotgan xarfning tagiga chizib borishadi.

O’yin uchun so’zlar.

| | | | |
|------|-------|------|-------|
| Bil | lesh | boz | bozor |
| Bal | bo’sh | bez | bezor |
| Bel | bosh | bo’z | bezor |
| Bo’l | | biz | bazor |

“Xarflarni o’zgartirib so’z tuzing” o’yini.

- 1- variat -og’zaki. Bunda o’qituvchi so’zlarni aytadi, o’quvchilar bir so’z tartibidagi unli yoki undosh tovushlarni o’zgartirib yangi so’z topishib, bu so’z ishtirokida so’zlar tuzadilar.
- 2- variat- yozma ravishda. Xat taxtaga so’zlar qator qilib yozib qo’yiladi. 2- guruxdagi o’quvchilar unli yoki undosh tovushlarni o’zgartirib yangi so’zlar tuzib yozadilar. O’yin musobaqa tarzida o’tkaziladi.

O’yin chuchun so’zlar.

Unlilarni o’zgartirish.

| | | | |
|---------------------------|--------|---------|-----|
| Kun: | ko’p | kon | |
| Ko’z: | ko’r | kar | |
| Dil: | do’l | | |
| Nafas: | nafis | | |
| Aka: | uka | | |
| Alam: | olam | | |
| Ariq: | oriq | | |
| Bormoq | bermoq | | |
| Osh: | esh | ish | |
| Pichoq: | pachoq | po’choq | |
| Soz: | so’z | siz | suz |
| Saman: | somon | | |
| Undoshlarni o’zgartirish. | | | |

| | | | |
|---------|-------------|--------|-----|
| Moy: | toy | choy | soy |
| Til: | dil | bil | qil |
| Bor: | tor | qor | xor |
| Alam: | qalam | dalam | |
| Ayiq: | qayiq | | |
| Asal: | kasal masal | | |
| Barmoq | qarmoq | tarmoq | |
| Barcha: | darcha | | |
| Bosh: | qosh | tosh | |
| Kam: | nam | g'am | sha |
| Tuz: | muz | kuz | buz |
| Nog'or | zog'ora | | |
| Sariq: | tariq | | |
| Shahar | shakar | zaxar | |
| Tovoq: | qovoq | | |
| Tovus | tovush | | |

Fonetik o'yinlar, leksik o'yinlar, grammatik o'yinlar, muloqat o'yinlari o'quvilar lug'atini boyitishda yaxshi samara beradi. O'yinlar ichida albatta, xalq og'zaki ijodi (topishmoqlar, tez aytishlar, metagrammalar) dan foydalanish ham nutq samaradorligini o'stirishda hamda oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar ko'proq o'quvchilarni guruhlarga bo'lib olib boriladi. Nutq o'stirishga qaratilgan o'yin turlari barcha darslarda ham olib boriladi. O'quvchi nutqiga faqat o'qish, o'zbek tili yoki matematika darsida emas, balki, dunyotanih, mehnat, tasviriy san'at, musiqa darslarida, turli sayohatlarda ham e'tibor berilsa, nutqi ravon, aniq, so'zga usta, hurfikr o'quvchilarni tarbiyalab borayotgan bodamiz.

O'quvchilarimiz ko'p gapiradigan emas, oz va soz gapiradigan bo'lib, nutqi ham rivojlanib borsa ajab emas. Pedagog K.D. Ushinskiy har bir fan hamisha bolaga so'z orqali o'rgatilishi, o'zlashtirilishi va bayon qilinishi kerakligini, uning uchun o'quvchi tushunmagan har bir so'zni tushuntirib borishi muhim ahamiyatga ega ekanligini bejiz ta'kidlamagan. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini to'liq tushunsagina, u bu so'zdan o'z nutqida amaliy ravishda foydalana oladi. Matn ichidan bolalarning tushunishlari qiyin bo'lgan so'zlarni ajrata bilishni o'rgatish va shu so'zlarni ma'nosini o'zlashtirib olishlariga erishish kerak.

Adabiyotlar:

1. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova-Interfaolmetodlar; mohiyati va qo‘llanilishi (metodik qo‘llanma)-Toshkent-2013 yil.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.; 2013yil.
3. Yoldoshev J.G‘. Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017yil.
4. Muslimova, A.F. O‘z-o‘zini takomillashtirishga va ijodiy o‘zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O‘rta maxsus kasb ta’limi. - 2010 yil - № 4.

QASHQADARYO VILOYATI TOPONIMLARIGA UMUMIY TAVSIF

Toshmurodova Saodat Eshtemir qizi

Chirchiq shahar 25-maktab

toshmurodovasoadat@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining geografik joy nomlarini tabiiy geografik jihatdan o'rganish, ularni to'plash, tabiiy geografik nuqtai nazardan tahlil qilish va guruhlashtirish yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tushunarsiz nomlar, komponent, gidronim, oronim, etnonim, fitotoponim, zootoponim.*

GENERAL DESCRIPTION OF NAMES OF KASHKADARYA REGION

***Abstract:** This article covers the natural geographical study of geographical place names of Kashkadarya region, their collection, analysis and grouping from a natural geographical point of view.*

***Key words:** Obscure names, component, hydronym, oronym, ethnonym, phytotoponym, zootoponym.*

Qashqadaryo viloyati maydoni jihatidan Respublikada yirik viloyatlardan biri. Viloyat Respublikaning janubi-sharqida, Qashqadaryo havzasida joylashgan, sharqidan Hisor va Zarafshon tizmalari o'rab turadi. Tarkibida 13 qishloq tumani (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 12 shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Yangi Nishon, Tallimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 5 shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Nuriston, Eski Yakkabog', Qashqadaryo) bor. Ma'muriy markazi – Qarshi shahri.

Qashqadaryo vohasi qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Kitob shahridan 30 km shimoli-sharqda Hazrati Bashir qishlog'i yaqinidagi g'orda paleolit davrida odam yashaganini ko'rsatuvchi topilmalar aniqlangan. Chimqo'rg'on suv omborining janubiy sohilidagi Bo'rjarsoyning quyilish joyida so'nggi bronza davri (miloddan avvalgi 9-8 asrlar)ga oid qadimiy dehqonlar manzilgohi topilgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalaridayoq sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Yirik dehqonchilik vohalari, shuningdek, shaharozlik madaniyat (miloddan avvalgi 3-asrda) mavjud bo'lgan.

Ilk oʻrta asrlarda Qashqadaryo vohasining yuqori qismi Kesh quyi qismi Naxshab deb atala boshlaydi. Milodning 6-7 asrlarida eski shaharlar tanazzulga yuz tutib, yangi shaharlar vujudga keladi. 1220-21 yillarda Qashqadaryo vohasidagi shahar va qishloqlar moʻgʻullar istilosi natijasida vayron qilindi. 1318-26 yillarda moʻgʻul xonlaridan Kepakxon qurdirgan saroy yaqinida Qarshi shahriga asos solindi. 14-15 asrlarda Amir Temur va Mirzo Ulugʻbek davrlarida Shahrisabzda bir qancha monumental binolar – saroy, masjidlar, maqbara va boshqalar qurildi.

Aholisining asosiy qismi oʻzbeklar, shuningdek, tojiklar, turkmanlar va boshqalar bor. 20-asrning boshlarigacha hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida yashagan aholining koʻpchili urugʻ-aymoqlarga boʻlinar edi. Masalan, Qarshi shahri va uning atroflarida mangʻit, saroy, qovchin, qatagʻon, qutchi, qipchoqlar, xitoy, qirq, yuz qabilalari, Shahrisabz va uning atroflarida kenagan, saroy, qutchi, turk, qatagʻon, qalmoq, qangli, chuyut, qiyot, qoʻngʻirot, moʻror, mangʻit, mitan, moʻgʻul, nayman, sayot qabilalari, Gʻuzor va uning atroflarida qoʻngʻirot, mangʻit va boshqa urugʻlarning vakillari yashaganlar[1, 128-b].

Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyati toponimlari orasida etnonimlar katta oʻrin tutadi. Mubolagʻasiz aytish mumkinki, viloyat toponimiyasida oʻzbeklarning koʻpchilik urugʻ-aymoqlarining nomlari saqlanib qolgan.

Har bir hudud oʻzining tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, aholisining urf-odatlarini, etnografiyasi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tabiiyki, bu joy nomlarida ham aks etadi. Qashqadaryo viloyati ham oʻzining tabiati, aholisi, xoʻjalik faoliyati bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Viloyatning reliefi murakkab tuzilishga ega boʻlib, bu joy nomlarida ham oʻz aksini topgan. Geografik joy nomlari tarkibida oronimlarning va u bilan bogʻliq gidronimlarning koʻpligi shundan dalolatdir. Shunisi diqqatga sazovorki, oronimlar orasida asosiy oronimik termin hisoblangan togʻ, tepa termini bir necha marta takrorlanadi. Shu bilan birga, togʻda yashovchi aholi koʻproq tosh soʻzini ishlatadi. Bundan tashqari, past togʻlarga nisbatan tepa termini ham qoʻllaniladi. Dovonda esa bel, oshuv terminlari koʻproq ishlatiladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida zov, dapsan, oshuv kabi mahalliy terminlar koʻp ishlatiladi, baland togʻlarga nisbatan oq, past togʻlarga nisbatan esa qora soʻzlari koʻp qoʻllaniladi.

Oronimlar haqida soʻz ketganda, avvalambor relief shakllari nomlari tarkibida uchraydigan oronimik terminlar haqida gapirish kerak boʻladi, chunki, bunday soʻzlar oronimlarning turini koʻrsatadigan indikatorlar –darakchilardir. Shuni aytish kerakki, toponimlar bir qancha hollarda adabiy til normasiga boʻysunmaydi, shevaviy shakllarda talaffuz qilinadi, masalan, adabiy tildagi togʻ termini baʼzi joylarida tov shaklida talaffuz qilinadi: Yetimtov (Qamashi tumani), Kakliktov

(Yakkabog‘ tumani), Kosontov (Koson tumani), Oqboshtov, Oqqo‘ltov, Oqrabotov, Sakirtov, Seypiltov, Qaypaltov, Qiziltov, Qo‘ng‘irtov (Dehqonobod tumani), Choltov (Qamashi tumani), Qirqtov (Kitob tumani), Qo‘ng‘irtov (Chiroqchi tumani); tog‘ termini faqat ikki oronim – Qoratog‘ va Qo‘rg‘ontog‘ (Shahrisabz tumani) tarkibida uchraydi. Ayrim turgan “tog‘” yoki “qoya” ma’nosidagi tosh termini Tuyatosh (Dehqonobod tumani), Ugurtosh (Chiroqchi tumani), Yaktosh (Kitob tumani) oronimlarini hosil qilgan; Oqbuloqgaza, So‘rigaza, Qizilgaza (Qamashi tumani) oronimlari tarkibidagi gaza indikator “tog‘ qirrasini” ma’nosida respublikada ko‘p uchraydi. “Kemtik” (kamtik) ma’nosida kam termini tog‘ tizmasining ko‘pincha tizmasining yo‘l o‘tadigan pastroq qismini bildiradi: Darvozakam dovoni, Egarkam tog‘i (Shahrisabz tumani), shu tumandagi Kam tog‘lari. Bel termini “dovon” ma’nosida bir necha marta takrorlanadi: Muzbel, Qorabeltov (dovon, Shahrisabz tumani), O‘rtabel (dovon, Mirshikor tumani). Aqba (arabcha) “dovon”, “tog‘ yo‘li” demakdir: Kalonaqba “katta dovon” (Kitob tumani), Oqboykalon dovoni (Qamashi tumani) ham aynan o‘sha ma’noda, bunda faqat oldin termin, keyin sifat kelgan: Aqban kalon. Oronim indikatorlardan “tog‘ orqasi”, “tog‘ yelkasi” ma’nosidagi sirt (Qorasirt tog‘i, Dehqonobod tumani), “pastroq tog‘larning chag‘irtoshli oftobro‘y yonbag‘ri” ma’nosidagi chagat (Qorachag‘at tog‘i, Dehqonobod tumani), “uzunasiga cho‘zilgan balandlik”ni bildirgan qir (Qoraqir tog‘i, Nishon tumani), “tog‘ tarmog‘i”, “dara” ma’nosidagi qo‘l Oqqo‘ltov tog‘i, Dehqonobod tumani, Uchqo‘lsoy jarligi – G‘uzor tumani terminlarini aytib o‘tish mumkin.

Viloyat oronimlarini hosil qilgan terminlardan biri qoq indikatoridir. Geografik adabiyotda qoq deganda ko‘pincha cho‘llardagi yog‘in suvi to‘planadigan ko‘lmaklar nazarda tutiladi. Tog‘larda ham qoya bo‘shliqlarida, o‘yiqlarida qor-yomg‘ir suvlari to‘lib qoladigan chuqurlik qoq (tosh qoq) deyiladi; chuqurroq qoqlarning suvi yozning yarmigacha turishi mumkin (tevarak-atrofdagi jonivorlar ana shunday qoqlardan suv ichadi) [3, 98-b].

Ko‘pincha oronimlar tushunarli bo‘lsa metaforik-majoziy ma’nolarda keladi: Belisiniq tog‘i (G‘uzor tumani) “o‘rta qismi past tog‘”, Yetimtov (Qamashi tumani) – “yolg‘iz tog‘”, Jahonnamo tog‘i (Dehqonobod tumani) “tog‘ tepasidan go‘yo butun dunyo ko‘rinib turadigan tog‘”; Ichaksoy jari (Yakkabog‘ tumani) “ichakday uzun, ilang-bilang jar”, Saksondara tog‘i (Nishon tumani) “serdara, daralari ko‘p tog‘”, Osmonbuloq tog‘i (Dehqonobod tumani), “tog‘ tepasidagi buloq”, Xontaxta tizmasi (Qamashi tumani) “usti supaday tekis tog‘”, Ellikbosh tizmasi “sercho‘qqi tog‘” (Dehqonobod tumani).

Viloyatning shimoliy, shimoli-sharqiy va sharqiy qismi baland tog‘lar bilan o‘ralganligi bu yerda daryolar, soylar, jilg‘alar, buloqlar ko‘p. Ushbu holat viloyat joy

nomlari tarkibida gidronimlarning salmoqli o‘rinni egallashiga sabab bo‘lgan. Gidronimlar joyning tabiiy holati, xosiyati, suvning xususiyatlari, shu joyning o‘simlik turi, hayvonot dunyosini aks ettiradi.

Qashqadaryo viloyati tekislik bilan birga tog‘ va tog‘oldi hududlardan iborat bo‘lganligi sababli gidronimlarga boy. Viloyatning eng katta daryosi Qashqadaryo, uning irmoqlari – Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo, G‘uzordaryo, Qoratepa tog‘ining janubiy yonbag‘ridan yigirmaga yaqin soy oqib tushadi (Sho‘robsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy, Qalqamasoy va b.). suv nomlari haqida gap ketganda birinchi galda Qashqadaryo gidronimining etimologiyasi esga keladi. Qashqa komponentli toponimlar bir-biridan farq qiladi. Qashqaqum – o‘simliksiz baland qum tepaliklari; qashqatepa – yolg‘iz baland tepalik; qashqasuv- tiniq tog‘ suvi; qashqayo‘l – tik tog‘yo‘li. Shahrisabz tumanida bir soy Qashqabuloq deb ataladi. Zomin tumanida ham qashqabuloq degan chashmalar bor. Masalan, shu tumanning Qoramozor qishlog‘i yonida Qashqabuloq tog‘ tepasida yaxlit tosh tirqishidan chiqib yotibdi. Demak, bu yerda qashqabuloq – “tiniq tog‘ suvi”.

Qashqadaryo gidronimining kelib chiqishini olimlar boshqacharoq izohlaydilar. V.V.Bartold Qashqadaryo gidronimi qadimgi Kesh (to‘g‘risi - Kash): hozirgi Shahrisabz nomining fonetik jihatdan o‘zgarishi oqibatidir deb yozgan edi. Demak, bu daryo avval Kesh (Kash) daryosi deb, Amir Temur davrida Xashqa (Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik Qashqarud, nihoyat Qashqadaryo bo‘lib ketgan.

Gidronimlar tarkibida qashqa terminidan tashqari achchi, sho‘r, taxir (Achchisoy, Dehqonobod tumani), buloq, daryo, ko‘l, soy, suv, chashma, shirin, sho‘r, quduq kabi gidronimik indikatorlar ko‘plab takrorlanadi.

Suv obyektlari orasida el-elat, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan gidronimlar uchraydi: Arabband (daryo, Chiroqchi tumani), Azlartepa (quduq, Chiroqchi tumani), Mirishkor (kanal, Mirishkor tumani), Po‘loti (kanal, Koson tumani), Chimboy (soy, Qamashi tumani), Hizalak (soy, Chiroqchi tumani); o‘simlik nomlaridan tarkib topgangidronimlardan Zirkbuloq (Dehqonobod tumani), Irg‘aylik (soy, Qamashi tumani), Chinorsoy (Kitob tumani), Yulg‘unli (suv ombori, Mirishkor tumani) kabilarni aytib o‘tish mumkin [5, 125-b].

Majoziy (metaforik) gidronimlar ham uchraydi: Jinnidaryo (Kitob tumani), Yo‘tansoy (yo‘tandoy-so‘loqmondoy, “katta, ulkan”, Kitob tumani).

Qamashi tumanidagi Mamarli gidronimi diqqatga sazovordir. Mumtoz adabiyotda mamar “kechik”, “suv yo‘li” ma’nosini anglatadi.

Bir qancha daryo-soylar nomlarini maxsus tadqiqotsiz izohlab bo‘lmaydi. Bunday jumboq nomlar toponimiyaning hamma sohalarida, hamma joylarda

uchraydi. Qadimiy nomlar o'z sirlarini osonlikcha ochmaydi. Tushunarsiz nomlar fan uchun tadqiqot obyektidir [4, 78-b.].

Viloyat bo'yicha to'plangan geografik nomlar avvalo, ular ifodalayotgan obyekt turiga ko'ra oronimlar, gidronimlar va oykonimlarga, so'ng mazmuniga ko'ra joyning geografik o'rni va tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog'liq nomlarga, reliefi va foydali qazilmalar bilan bog'liq nomlarga, iqlimi va ob-havosi xususiyati bilan bog'liq nomlar, ichki suvlari bilan bog'liq nomlar, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi bilan bog'liq bo'lgan joy nomlarga bo'lindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi joy nomlari orasida eng ko'pchiligini joyning reliefi, suv obyektlari bilan bog'liq nomlar, joyning geografik o'rni, holati va tabiiy xususiyati bilan bog'liq nomlar hamda o'simlik va hayvonot dunyosi bilan bog'liq nomlar tashkil etadi. Havza iqlimi va ob-havosi hamda tuproqlari, foydali qazilmalari bilan bog'liq nomlar esa kam uchraydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangi obyektlarga nom berayotganda, avvalo, shu joyning tabiiy xususiyati, holati, hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning nomini qo'yish masalasiga e'tibor qaratish zarur. Joyning tabiiy xususiyati va holati, iqlimi va ob-havosi, suv obyektlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi hamda foydali qazilmalari bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlarning umrboqiyiligiga va nomlarning o'zgartirilmasdan uzoq saqlanishiga olib keladi. Zero, geografik joy nomlari milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning bir qismidir

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари.-Т.: “О‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2005.
2. Qorayev S. Топонимика.-Т.: О‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т.: “Ўқитувчи”, 1988.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Т.: “Муҳаррир”, 2009. –Б.269
5. Хуррамов Қ. Оронимлар ва орографик терминлар муносабати // Ономастика Узбекистана. -Т.: 1989. -Б.91-92.

QASHQADARYO VILOYATI MAVZUSINI O‘QITISHDA JOY NOMLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Toshmurodova Saodat Eshtemir qizi

Chirchiq shahar 25-maktab

toshmurodovasoadat@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati miqiyosida viloyat toponimlari va ulardan maktab geografiya darklarida foydalanish bo‘yicha muammolarni o‘rganish, zamonaviy metodikalar ishlash, joy nomlarini kelib chiqishi tarixini yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, geografik ob‘ektlar, geografik xarita, geografik terminlar, lug‘aviy ma‘no, krassvord, skanvord, chaynvord, filvordlar.*

THE METHODOLOGY OF USING PLACE NAMES IN TEACHING THE SUBJECT OF KASHKADARYA REGION

***Abstract:** This article covers the history of toponyms of the district at the scale of Shaykhontohur district and the history of the origin of toponyms and their use in school geography lessons.*

***Key words:** linguistics, geographical objects, geographical map, geographical terms, dictionary meaning, crossword, scanword, chainword, filewords.*

Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada beriladigan ma‘lumotlarni hududiy bog‘lashda foydalaniladi. Geografiyada biror hodisa yoki voqeani tushuntirmoqchi bo‘linsa, albatta joy nomi bilan bog‘lanadi. Geografik qonuniyatlarni geografik obyekt nomisiz tushuntirib bo‘lmaydi. Umuman, geografiyada joy yoki geografik obyekt nomi bog‘lanmasdan bilim berish mumkin emas. Ikki joy tabiatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish kerak. Umuman o‘quvchilarning xaritaning bilishi, joy nomlarini qanchalik darajada bilishi bilan belgilanadi. Biroq geografik nomlar, ayniqsa chet el geografik nomlari bolalarga tushunarsiz, ularni eslab qolish u yoqda tursin hatto talaffuz qilish ham juda qiyin. Bunday nomlarni o‘quvchilar eslab qolishlari uchun ularning ma‘nosini tushuntirib berish juda muhimdir. Chunki tushunarsiz so‘zlarni eslab qolishdan ko‘ra tushunarli so‘zni, hatto so‘z birikmasini eslab qolish osonroqdir.


Geografik nomlarni o‘rganish, o‘qitishda predmetlararo aloqalarda ham qo‘l keladi. Geografiya o‘qitishda ona tili, chet el toponimlarini o‘rganishda chet tillari bilan bog‘lanish yaxshi natija beradi. Ayrim geografik nomlarning joylashishi va

ma’nosi tarixiy voqealar bilan bog’langan. Bu esa geografiyaning tarix fani bilan aloqasini mustahkamlashga imkon beradi. Geografik nomlarning ma’nosini yaxshi bilish chet tillarini o’rganishga ham yordam beradi.

Geografik nomlarni chuqur tushunishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarni) o’rganish yordam beradi. Mahalliy geografik terminlarni tushunish o’quvchilarga atrof muhitni ongli bilib olishga yordam beradi. Bu esa o’z o’lkasiga, vatanga muhabbatni tarbiyalaydi. Mahalliy geografik terminlarni o’quvchilar ongiga ko’proq sindirish uchun geografiya darslarida ko’proq faol va interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Darslarda geografik savol-javoblardan tashqari geografik joy nomlarini o’rganish uchun “Atamalar zanjiri” o’yini, “Ortiqchasini toping”, “Klastr” metodlardan hamda krassvord, skanvord, chaynvord, filvord tuzish kabi usullardan foydalanishlari mumkin.

“**Atamalar zanjiri**” o’yini muayyan sinfga yoki ma’lum bir hududdagi (davlat, viloyat, tuman) joy nomlariga bag’ishlangan bo’lishi mumkin. Bu o’yinni o’tkazish tartibi quyidagicha: birinchi partada o’tirgan o’quvchi bir joy nomini aytadi, ikkinchi o’quvchi birinchi o’quvchi aytgan joy nomining oxirgi harfidan boshlanadigan joy nomini aytadi, so’ngra uchinchi o’quvchi ... va hokazo shu tartibda davom etadi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati joy nomlari misolida “Atamalar zanjiri” o’yini


“Ortiqchasini toping” metodida o‘quvchilar mavzu mohiyatini yorituvchi joy nomlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatish va shaxsiy yondashuvlarini asoslash orqali mustaqil fikrlash, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash va mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Buning uchun topshiriq tuzilayotganda, ya’ni mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi joy nomlari tizimini shakllantirayotganda shu masalaga e’tibor berish kerakki, ular orasidagi bog‘liqlik umumiy bo‘lishi, lekin qaysidir biri bu umumiylikka tegishli bo‘lmasligi lozim. Shundagina o‘quvchilar o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘likni asoslashga va bu aloqadorlikni analiz va sintez qilishga imkon tug‘iladi (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyati joy nomlari misolida “Ortiqchasini toping” metodi.

Klaster metodi o‘quvchilarga ixtiyoriy muammo va savollar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Ya’ni Qashqadaryo viloyatida mavjud bo‘lgan joy nomlaridan ixtiyoriy ravishda yozish mumkin, bu yerda ma’lum cheklov va miqdor yo‘qligi sababli o‘quvchilar o‘zlari bilim va malakasiga tayangan holda istagancha joy nomlarni yozishlari mumkin. Undan foydalanish o‘quvchining ilmiy tafakkurining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan

mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ya‘ni nazariyadan olgan bilimlariga tayangan holda shahar va qishloqlar, tog‘lar va tekisliklar, cho‘l va chalacho‘llar, daryo va ko‘llar nomlarini bir-biridan ajratib, ularga oid geografik obyektlarni joylashtirish jarayonida mantiqiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi (3-rasm).



3-rasm. Qashqadaryo viloyati joy nomlari misolida “Klastr” metodi.

Odatda uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlar yozuvsiz xaritani bo‘yash yoki savollarga javob yozishdan iborat bo‘ladi. Bunda o‘quvchini mantiqiy o‘ylashga, tafakkur qilishga, xulosa va qarorlar qabul qilishga ko‘maklashuvchi ko‘nikmalar deyarli shakllanmaydi. Demak, uyga topshiriqlar berish jarayonida krassvord, skanvord, chaynvord, filvord tuzish usulidan foydalanilsa o‘quvchilar o‘z bilimlarini rivojlantirish bilan birga ma‘lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o‘zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o‘rgatiladi, shuningdek axborotlarni qaysi bo‘limga tegishli ekanligini aniqlash hamda ulardan savollar tuzib krossvordda ifodalash jarayonida mantiqiy

fikrlash va shaxsiy qobiliyatlari rivojlanadi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan krassvord, skanvord, chaynvord, filvordlar maktab yoki sinf devoriy gazetalarida e'lon qilinishi yoki sinf maktab ko'rgazmalarida namoyish qilish ham mumkin. Bu esa o'quvchilarning geografiyani, joy nomlarini o'rganishga bo'lgan xavaslarini va qiziqishlarini oshiradi.

Umuman olganda, maktab geografiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda joy nomlarini o'rganishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Yuqoridagi usullardan tashqari, geografik joy nomlariga bag'ishlab maxsus geografik kechalar, viktorinalar va tadbirlar uyushtirish mumkin. Bundan asosiy maqsad, geografiya fanini puxta o'zlashtirish va joy nomlariga hamda fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishdir.

Bundan tashqari, geografik nomlarga bag'ishlab maxsus geografik kechalar, viktorinalar uyushtirish mumkin. Krossvordlar, rebuslar tayyorlab maktab yoki sinf devoriy gazetalarida e'lon qilinishi ham mumkin. Umuman olganda, maktab geografiya darslarida va darsdan tashqari joy nomlarini o'rganishning turli usullaridan foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари. Монография. –Т.: “Фан ва технология”, 2009.
2. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Т.: “Ўқитувчи”, 1988.
3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Т.: “Муҳаррир”, 2009. –Б.269
4. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. –Қарши, “Насаф”, 1993. 154-б.

MODIFIED MINERAL SORBENTS FOR WASTE WATER TREATMENT

¹ J. K. Zokirbekov

¹ B. A. Aliev

¹ E. A. Egamberdiev

¹ Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

ABSTRACT

The information presented in this work is of great practical importance. With its help, the production process of sorbents for wastewater treatment becomes easier and does not require a lot of time, thereby helping the ecological development of the Republic of Uzbekistan. The experiments carried out during this work allow us to open the prospects of using natural clay materials, thiourea and polyethylenimine for efficient and convenient treatment of waste water of industrial enterprises.

Keywords: metallurgy, mechanical engineering, metal, waste water, copper, cadmium, lead, mercury, zinc, ion.

Introduction. From the literature, we found that bentonite clays are promising sorbents for heavy metal ions. The study of physicochemical and textural properties of sorbents is relevant, as it allows to obtain detailed information about the effect of the modifier on the sorption activity of bentonite clay.

Local bentonite clay (Uzbekistan, Navoi region) was studied in the work. The choice of the studied material deposit is due to the fact that the quarries have already been built, and there is a road nearby that allows the extraction of clay raw materials without preliminary preparatory work and economic costs. As modifiers: polymer-polyethyleneimine (PEI) and thiourea (T) were used because they form stable chelate complexes with a number of metals and are non-toxic.

In this study, E-clay bentonite was used for research, its properties are detailed in Table 1. Based on the data in Table 1, we can conclude that bentonite is practically a monomineral raw material, and it contains about 90-95% montmorillonite.

Table –1

Properties of "Navoi" bentonite

| No | Characteristics | Indicators |
|----|------------------------|------------|
| 1 | Fraction (mm) | 0,08 |
| 2 | Montmorillonite (%) | 91-97 |
| 3 | Moisture Content (%) | 13 |
| 4 | Sand (%) | 1-3 |
| 5 | Swelling index (at 2g) | 25 |

Physico-chemical and textural characteristics of modified sorbents and original bentonite clay are presented in Table 2.

Table –2

Physico-chemical properties of bentonite clay and modified sorbents: (BG+PEI), (BG+T)

| Characteristics | БГ | БГ+ПЭИ | БГ+Т |
|--|--------|--------|--------|
| Humidity, % | 8,645 | 4,705 | 4,525 |
| Ash content, % | 6,465 | 25,325 | 19,536 |
| Surface area, m ² /g | 2,892 | 26,598 | 14,235 |
| Total pore volume of acetone, cm ³ /g | 29,055 | 18,355 | 12,855 |
| Adsorption activity with iodine, % | 30,675 | 36,78 | 20,32 |
| Total volume of pores in water, cm ³ /g | 3,295 | 1,125 | 3,102 |
| Specific volume of pores, cm ³ /g | 0,001 | 0,014 | 0,005 |

Based on the data presented in Table 2, modification of original bentonite clay significantly increases properties such as ash content, specific surface area, iodine adsorption activity, and specific pore size. Therefore, it can be concluded that the modification of bentonite with polyethenimine and thiourea leads to the predominance of meso- and micropores in the structure of the sorbent, thereby increasing the adsorption activity for heavy metal ions.

The morphology and composition of the surface of the sorbents are shown in the SEM data presented in Figures 1a and 1b.




Figure-1. Initial photomicrograph of bentonite clay (a) and modified polyethyleneimine

As can be seen from the images, the original bentonite clay has a denser structure than the bentonite clay modified with polyethyleneimine. It is assumed that the polymer particles are introduced into the interlayer voids of the bentonite, which increases the pore size and creates a head to fill them with TM ions.

References

1. E.Egamberdiev, S. Turabdjano, D. Mirzaeva, Kh. Khaydullaev, U. Sharipova, A. Shokhakimova, and O. Bakhtiyorov.: Effect of chitosan substance on the mechanical properties of paper obtained on the basis of flax cellulose. E3S Web of Conferences 371, 01045 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101045>
2. Egamberdiev E.; Ergashev Y.; Turabdjano S.; Abdumavlyanova M.; Makhkamov A.; Rashidov, Sh.; Karimov, Sh.: Effect of chitosan on the surface properties of cellulose-based paper obtained from the flax plant. E3S Web of Conferences 371, 01010 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101010>
3. Ergashev Y.; Egamberdiev E.; Mirkhodjaeva D.; Akmalova G.; Umarova M.; Kholdarov R.: Obtaining a filter material used in gas and air purification. E3S Web of Conferences 371, 01012 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101012>
4. Igamqulova N.; Mengliev, Sh.; Egamberdiev E.: Reduction of waste disposed to the environment through recycling of unused methyldiethanolamine. E3S Web of Conferences 371, 01049 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101049>
5. Arslanov, Sh.; Turabdjano S.; Azimova, Sh.; Azimov D.; Sultankhojaeva N.; Egamberdiev E.: Physico-chemical properties and research of acids contained in oils of Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 2023, 371, 01021, DOI 10.1051/e3sconf/202337101021
6. Egamberdiev E.; Turabdjano S.; Akmalova G.; Mukhtarova N.; Ayubova I.; Mirzakhmedova M.; Rakhmonberdiev G.: Obtaining paper from composition of different fibers and its analysis. E3S Web of Conferences, 2023, 371, 01004, DOI 10.1051/e3sconf/202337101004
7. Ergashev Y.; Egamberdiev E.; Turabdzhanov S.; Akmalova G.; Isanova R.; Rashidov R.; Sobitov O.: Obtaining filter material from natural fiber composition and areas of its use. E3S Web of Conferences, 2023, 371, 01047, DOI 10.1051/e3sconf/202337101047
8. Egamberdiev E.; Makhkamov A.; Rakhimjonov B.; Khusanov D.; Akmalova G.; Mirzakhmedova M.; Rahmonberdiev G. Effectiveness of cleaning of sunflower oil with filter material made from composition of organic and inorganic fibers. 3rd International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering, ICECAE 2022Virtual, Online13 October 2022до 16 October 2022Код 187394, DOI 10.1088/1755-1315/1142/1/012050
9. Egamberdiev E.; Akmalova G.; Rahmonberdiev G. Obtaining paper products from cellulose-containing plants and researching its field of application. 3rd International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering, ICECAE 2022Virtual, Online13 October 2022до 16 October 2022Код 187394, DOI 10.1088/1755-1315/1142/1/012054

EFFECT OF TEMPERATURE ON SORBENTS

¹ J. K. Zokirbekov

¹ B.A. Aliev

¹ E.A. Egamberdiev

¹ Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

ABSTRACT

The information presented in this work is of great practical importance. With its help, the production process of sorbents for wastewater treatment becomes easier and does not require a lot of time, thereby helping the ecological development of the Republic of Uzbekistan. The experiments carried out during this work allow us to open the prospects of using natural clay materials, thiourea and polyethyleneimine for efficient and ash treatment of waste water of industrial enterprises.

Key words: metallurgy, mechanical engineering, metal, waste water, copper, cadmium, lead, mercury, zinc, ion.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim muassasalari, uzluksiz ta'lim.

Аннотация: В данной статье считается актуальной задачей изучение системы образования развитых зарубежных стран, применение их передового опыта с учетом национальных особенностей. Ниже поясняется система образования ряда развитых зарубежных стран, в частности содержание начального образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование и начальные учебные заведения, дополнительное образование.

Annotation: In this article, it is considered an urgent task to study the educational system of developed foreign countries, to apply their best practices taking into account national characteristics. The educational system of a number of developed foreign countries, in particular, the content of primary education, is explained below.

Keywords: Preschool education and primary educational institutions, continuing education.

Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz. 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qarorga ko'ra umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish,

kompetensiyaviy yondashuvda asoslangan dars ishlanmalar yaratish va amaliyotga joriy etish muhimdir. Umumiy oʻrta taʼlim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, maʼnaviy barkamol va intellektual shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha yoshidagi bolalar bilan ishlash maktabgacha taʼlim tashkilotlaridan innovatsion ishlarda qatnashishni va jamiyatning rivojlanishiga hamohanglikni talab qiladi. Barcha yangilanishlar taʼlim tashkilotlarining rivojlanish konsepsiyasiga mos kelishi kerak. Agar maktabgacha taʼlim tashkilotlari zamon talablariga javob bersa va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qabul qilsa, bu bolalar uchun kelajakda zarur boʻladigan bilim va koʻnikmalarni egallash uchun imkoniyat yaratadi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha taʼlim tizimini jadal rivojlantirish, tizimda yillar davomida toʻplanib qolgan muammolarni kompleks bartaraf etish, bolalarning maktabgacha taʼlim tizimiga yanada kengroq qamrab olinishini taʼminlash maqsadida Respublika prezidenti va Hukumati tomonidan bir qator muhim islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, Respublika Prezidentining tegishli farmoni bilan sohadagi yagona davlat siyosatini yuritish orqali islohatlar samaradorligini oshirish maqsadida 2017-yil 1-oktabrda Maktabgacha taʼlim Vazirligi tashkil etildi.

Xulosa qilib, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning taʼlim tizimini oʻrganish, ularning ilgʻor tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalda qoʻllash dolzarb vazifa sanaladi. Xorijiy mutaxassislar pedagogik texnologiyalarning rivojlanishini uch bosqichga boʻlib oʻrganish lozim deb hisoblaydilar. Birinchi bosqichda, oʻqitish jarayonini faqat oʻqituvchining oʻzi olib borar edi. N.F.Talizina taʼkidlaganidek, «Inson tajribasi oʻqitish texnologiyasi funksiyasini bajargan». Ikkinchi bosqichda esa, darslik va qoʻllanmalar chop etila boshlagandan soʻng - oʻqitish texnologiyasi mazmunida tub oʻzgarishlar sodir boʻldi. Oʻqituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga kela boshladi. Uchinchi bosqichda esa, oʻqitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi, oʻqituvchi va oʻquvchilar uchun texnik vositalar, yaʼni oʻrgatuvchi mashinalar ham qoʻshildi. Texnologiya taraqqiyotida inson psixologiyasi katta oʻrin tutadi. Tarixan pedagogik texnologiya taktik (strategik emas) jihatdan faoliyat koʻrsatgan va rivojlangan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarni amalda qoʻllash masalalari dolzarb boʻlib qolmoqda. Boshlangʻich taʼlim tizimi. Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat boʻlib, har biri shakliga koʻra turlicha boʻlgan taʼlim tizimiga ega. Taʼlim muassasalari

asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud. Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) xukumatining kompetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi. GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal xukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir. Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan.

Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi. Sekin asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida otanalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi, boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat

3. Ta'limning ikkinchi bosqichi "yo'nalishli bosqich" deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim haqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'limning to'rtinchi bosqichi gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma "yetuklik attestati" – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning beshinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari. GFR ta'lim tizimi umumiyevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, Chet davlatlari ta'lim standartlari unifikatsiya (bir xillashtirish) qilingan, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega. Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumbolg'dt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelg'berg universiteti bo'lib, 1386-yil tashkil topgan. 1388-yil tashkil topgan Kyolg'n universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir. Germaniya Federativ Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniga" ko'ra har bir o'quvchi o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir. Germaniyaning har bir o'quvchisi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya hukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta'lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida fan konsepsiyalari, qiyosiy jadvallar, uzviyligi ta'minlangan fan dasturlari muhokama qilish portaliga joylashtiriladi. Muhokamalar

natijasida takomillashtirishga qaratilgan takliflar asosida o'zgartirishlar kiritiladi. Uzviylashtirilgan fan dasturlari asosida darsliklar mazmuni uzviyligi ta'minlanadi.

Koreys bog'chalari talim tizimining bir qismi hisoblanmaydi. Bolalar xususiy muassasalarda qabul qilinadi. Ular asosan koreys tilida, biroq ingliz tilida faoliyat yuritadigan bog'chalar ham anchagina. Bog'chalarga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko'pchilik bolalar maktabga tayyorgarlik ko'rishmaydi va shunchaki oz tengqurlari bilan bog'chalarga qatnab yuraverishadi. Bog'chaning asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalari bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yoshgacha bolishi mumkin. Boshlang'ich maktab Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. Ular 13 (12) yoshgacha boshlang'ich maktablarda ta'lim oladilar. O'quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestr ga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar qatoriga: Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa kiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimi sifatini ta'minlashda bir qancha muammoli masalalar mavjudligini ko'rish mumkin. Jumladan:

- Nima uchun maktabning birinchi sinfiga borgan bola darslarga moslashish va fan dasturida berilgan mavzularni o'zlashtirishda qiynaladi?
 - Nega boshlang'ich ta'limda yaxshi baholarga o'qigan bola yuqori sinflarda o'qishi pasayib ketadi?
 - Nima uchun o'quvchi kasb tanlashda mustaqil tanlovni amalga oshira olmaydi?
 - Nega oliy ta'limni tugatganlar kasbiy faoliyatga tezkor kirishib keta olmaydi?
- Bu kabi savollarning javobi sifatida uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikning ta'minlanmaganligini ko'rsatish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishi davomida AQSH va Singapurdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sifatni mustaqil baholash tizimlarining xususiyatlari tahlil qilindi. Amerika Qo'shma Shtatlari. Mamlakatdagi deyarli barcha shtatlar erta bolalik ta'limi (maktabgacha ta'lim) uchun moliyaviy yordam dasturini amalga oshirmoqda. Shunga ko'ra, ularning samaradorligini aniqlash kerak va buning uchun birinchi navbatda ta'lim xizmatlari sifatini baholash talab etiladi. Bu davlat tomonidan

moliyalashtiriladiigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va bolalar rivojlanish markazlarini tashqi baholash dasturlarini amalga oshirish uchun asos bo'ldi. Ushbu dasturlarni amalga oshirishning asosiy muvofiqlashtiruvchisi-Umumiy ma'muriy reglamentlar ta'lim departamenti (Education Department General Administrative Regulations(EDGAR).

AQSHda ta'lim sifatini baholash test natijalariga va bolalarning akademik bilimlarini tekshirishga asoslanadi: bu yerda bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qanday kelganligi (dastlabki ko'rsatkichlar) va uni qanday tugatganligi (yakuniy ko'rsatkichlar) muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandini olib kelishga qaror qilishlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zaro raqobatlashishga majbur. Bu yerda baholashning asosiy parametri- bu ta'lim sifatidan qoniqish va ta'lim tashkiloti haqida ota –onalarni ijobiy fikrlari.

Belarusiya "maktab-bolalar bog'chasi" ta'lim muassasasi to'g'risida "bolalar rivojlanishi markazlari" ni tashkil etuvchi nizomni ishlab chiqdi va tasdiqladi - ushbu yangi turdagi integral o'quv muassasalari maktabgacha va maktab bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maqbul sharoitlarni yaratish maqsadida tashkil etilgan. o'quv jarayonini tashkil etish va mazmunini uzluksizligini ta'minlash. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tashkilotlarida ta'lim bosqichlari uzviylikini ta'minlashning samarali mexanizmlari takomillashtirilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduhalikov T.X. O'rta mahsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari:Diss.ped.fan nom.-T.:OMKHTRI, 2003.-175 b.
2. Абдухакимова М.К. Организационно-педагогические основы развития системы дошкольного образования в республике Узбекистан (1991-2000гг.). ТДПУ-2004; 174с. Дисс.на соис.учен.степ.кан.пед.наук.
3. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. Д-ра пед. наук. – Ташкент,2002.-44с.
4. Багутдинова Н. Управление качеством образования / Н. Багутдинова, Н.Новиков. // Стандарты и качеством-2002.-№9.
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari. <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>

KATTALAR TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nimatova Moxinur Sobit qizi

TAFU "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

nimatovamohinur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada andragog kim degan savolga keng miqyosda javob berilgan. Shuningdek, Kattalar ta'limiga misol qilib, malaka oshirish institutlari o'qituvchilari, kechki maktablar, turli kurslarni olishimiz mumkin. Oilasida, ish joyida turli xil muammolarga duch kelgan, o'z qobig'iga o'ralib qolgan, hayotda o'z "men"ini topa olmayotgan insonlar andragog yordamiga muxtojdir. Mana shunday muammolardan kelib chiqib, kattalar ta'limi jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini barqaror rivojlantirish metodikalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Andragogika, andragog, kattalar ta'limi, uzluksiz, variativlik, o'zaro uyushqoqlik.

Аннотация: В данной статье дается исчерпывающий ответ на вопрос, кто такой андрагог. Также в качестве примера образования взрослых можно взять преподавателей институтов профессионального обучения, вечерних школ, различных курсов. В помощи андрагога нуждаются люди, которые сталкиваются с различными проблемами в семье и на работе, застряли в своей скорлупе, не могут найти свое «я» в жизни. На основе этих проблем выделяются методы устойчивого развития эффективности организации и управления процессом образования взрослых.


Ключевые слова: Андрагогика, андрагог, образование взрослых, преемственность, вариативность, взаимная организация.

Annotation: This article provides a comprehensive answer to the question of who is an andragogue. Also, as an example of adult education, we can take teachers of professional training institutes, evening schools, various courses. People who face various problems in their family and workplace, who are stuck in their shell, who cannot find their "I" in life, need the help of an andragogue. Based on these problems, the methods of sustainable development of the effectiveness of the organization and management of the process of adult education are highlighted.

Key words: Andragogy, andragog, adult education, continuity, variability, mutual organization.

Jahon va mamlakatimiz ilm olamida ijtimoiy institutlar faoliyatini modellashtirish bo‘yicha, ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Kattalarning ta’limiy faoliyatini tashkil etish quyidagi amaliy tamoyillar negizida amalga oshiriladi:

1-rasm



Hozirgi vaqtda BMT qoshidagi YUNESKO tashkiloti ta’lim olishning 3 ta shaklini rasman tan oladi:

- **Rasmiy (formal)** ya’ni maxsus ta’lim muassasalarida olib boriladigan va tasdiqlangan guvohnoma yoki diplom berish bilan yakunlanadigan ta’lim. U kasbiy ta’lim tizimi, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirishning turli xil kurslaridan iborat.
- **Norasmiy (non-format)** u istalgan joyda olib boriladi va diplom berilishi shart emas. Bunga turli to‘garaklar, klublar, seksiyalar kiradi. Aynan shu ta’lim bilan madaniyat muassasalari shug‘ullanadilar. Rivojlangan davlatlarda norasmiy ta’lim ahamiyatiga ko‘ra rasmiy ta’lim bilan bir xil, ko‘pincha xatto yuqoriroq darajada turadi, chunki aynan unda inson o‘z shaxsining ijodiy rivojlanishi uchun qulay sharoit topadi.
- **Informal (informal)** ya’ni kutubxonalar, ommaviy axborot vositalari, do‘stlar bilan muloqot, teatr, muzey yoki ko‘rgazmalarni tomosha qilish orqali uyushmagan, maqsadga yo‘naltirilmagan holda axborotga ega bo‘lish.

Bunday holatlar ko'pchilikda ro'y berayotganligi tufayli haqiqatan ham o'zimiz sezmaganda biz butun hayotimiz davomida o'qiydigan, o'rganamiz. "Qanday qilib ta'limni yanada samarali qilish mumkin va bu nima uchun zarur?" - degan savol berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uzluksiz ta'lim zarurligini juda ko'p buyuk pedagoglar va ma'rifatchilar ta'kidlaganlar. K.D.Ushinskiyning mashhur so'zlarini eslaylik: "O'quvchiga foydali bilimlarni faqat kitobdan emas, balki uni o'rab turgan predmetlar, hayotiy voqealar, qalb kechinmalaridan olish uchun ham bilim berish kerak. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan inson butun umr o'qiydi"- deb yozgan edi.

Kattalar ta'limini tashkil etish mobaynida ayrim tashqi va ichki qiyinchiliklarni mavjudligini ham nazarda tutish lozim. Axborot olish tizimlari kuchayib ketgan hozirgi davrda, zamonaviy o'quvchi yoki talaba o'z ota - onasidan axborot masalasida ustunlik qiladi. Yangi asrda axborot bilan ishlashning yangi usul hamda vositalaridan foydalanilmoqda. 40 yoshdan o'tgan kishilarni tashqi dunyodan kelayotgan axborotlarning ko'pligi, turli - tumanligi, noan'anaviyligi tashvishga soladi. U xatto o'zi ishlab turgan sohadagi axborotlarni qamrab olish imkoniyatiga ham ega emas. Katta odam oldida yangi "maktab"da nafaqat o'qish, balki "uqish" vazifasi paydo bo'ldi. Eng avvalo kompyuter texnikasini egallash, axborot tizimida ishlay olish. Bu esa muloqotning yangi, masofaviy shaklini o'zlashtirishni talab etadi. Kishining yoshi ulg'ayib borgan sari, uning yangi zamonaviy ta'lim jarayoniga kirishiga yillar davomida shakllangan ichki to'siqlar halal beradi. "Quyida mazkur to'siqlar haqida to'xtalib o'tamiz:

Psixofiziologik omil. Ba'zi katta yoshli insonlarda yangi bilimlarni o'zlashtira olish borasida shubha paydo bo'ladi. Bu shubha yosh ulg'ayishi bilan insonda aqliy salohiyat sekinlashishi, xotiraning pasayishi haqidagi qarashlar bilan bog'liq. Lekin olimlar tomonidan hamma yoshda ham o'qish, o'rganish mumkinligi isbotlangan.


Ijtimoiy-psixologik omil. Katta yoshlilarning ta'lim jarayonidan kutilayotgan natija va maqsadning aniq bo'lishi, ularda o'qish-o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning kuchliligini ko'rsatadi, ammo ba'zilar qaytadan o'quvchilik maqomiga tushish, layoqatsizlikdek ko'rinib qolishdan qo'rqishadi. Ular bu jarayonga har doim ha psixologik jihatdan tayyor bo'lmaydilar.

Ijtimoiy to'siq. Katta yoshli odam ta'lim jarayonida ishtirok etar ekan, u ta'limning sifatli bo'lishiga nafaqat jiddiy e'tibor qaratadi, balki o'zi uchun qiziqarli yoki kerak bo'lmagan bilimlarni ochiqlik bilan rad etadi, o'z munosabati yoki noroziligini ochiq bildiradi. Chunki o'rganilayotgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdan uning o'zi manfaatdorligini yaxshi yushunadi. Bu esa ta'lim sifatiga yangi talablarni qo'yadi. Shu sababli andragog ta'lim berish jarayonida katta yoshli

o'quvchining o'ziga xosligi, dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi va boshqa jihatlariga e'tibor qaratish zarur.

Psixologik – pedagogik omil. Ba'zida insonlarda umr bo'yi o'qib o'rganishi kerakligi haqida qarashning shakllanmaganligi yoki inson o'zini umr bo'yi o'qib - o'rganishga, yangiliklarni qabul qilishga layoqatli ekanligini to'g'ri baholay olmasligi kuzatiladi. Shuning uchun ham katta yoshlilar ta'limi jarayonida ularning o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishlari uchun qulay shart – sharoitning yaratilishi va bunda jarayon erkin interfaol muloqot maydoni, muvaffaqiyatga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qitishda amaliy- ishbiarmon o'yinlar, treninglar, debatlar keng foydalanish maqsadga muvofiq".

Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etishning samarali usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:



2-rasm

Kattalar ta'limi jarayonini to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, hal etish, unga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish, mavjud muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifati va samaradorlik aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

O'qituvchi kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- kasbiy rivojlanishda tanqidiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lishi;

- zamonaviy pedagogik va axborotlar texnologiyalaridan foydalanish va axborotlarning yangiligi, ishonchliligini ta'minlash;
- pedagogik faoliyatda ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi reflektiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish,
- sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini rivojlantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarni takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish va hokazo.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchidan dars ishlanmasini yozish uchun asosiy vosita bo'lib hisoblanadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati – bu o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish demakdir. Yangi pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli bo'lishi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir. Innovatsion ta'lim o'qituvchi faoliyatini yangilash, o'quvchilarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilm-fan va yangi texnologiyalar ta'sirida jamiyatning barqaror rivojlanishi kafolatlanadi. Buning uchun hozirgi zamonaviy sharoitda :

- ❖ o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;
- ❖ mavjud elektron axborot-ta'lim resurslarini mukammallashtirish;
- ❖ jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini avvalo o'qituvchi chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi;

❖ zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metodlardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda andragog kim degan savolga keng miqyosda javob berilmoqda. Malaka oshirish institutlari o'qituvchilari, kechki maktablar, turli kurslar bunga misol bo'ladi. Oilasida, ish joyida turli turli muammolarga duch kelgan, o'z qobig'iga o'ralib qolgan, xayotda o'z "men"ini topa olmayotgan insonlar andragog yordamiga muxtojdirlar.

Andragog o'z ishini professional tashkil etganligini quyidagilar belgilaydi:

- Tinglovchi va o'quvchilarning o'qituvchiga samimiy munosabati va ishonchi.
- Mashg'ulot yoki tinglashga borlig'i bilan jalb bo'lishi.
- Bilim olishga butun kurs davomida chanqoqligi.
- Tinglovchilar o'rtasida samimiy va o'zaro hurmat.
- Bir-birlaridan yoki o'qituvchidan samimiy yordam so'rash yoki berish.
- Biror bir o'quvchida o'qish davrida vujudga kelgan muammoni hal qilishda baxamjihatlik.
- O'z muammosini mashg'ulot paytida qo'rqmay o'rtoqlashish,
- O'z pozitsiyasida mustaxkam turish.
- Andragogning bilim va qiziqishiga hurmat bilan qarash.
- Tinglovchilarning kurs yakunida kursdan to'la qoniqishlari.

Mazkur jarayonda o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish samaradorligi esa mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, ularda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, reflektiv faoliyatni hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etishga bog'liq bo'lib, bu ularning kreativ va reflektiv qobiliyatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Malaka oshirish borasidagi yangiliklarni amaliyotga joriy etish o'z-o'zidan emas, balki barcha pedagoglar ongi, tajribasi, ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi. Ta'lim islohoti yangicha fikrlovchi, intiluvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Malaka oshirish jarayonida har bir pedagogning shaxsiy sifatleri va kasbiy mahoratini o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'nggi yangiliklar bilan boyitib borish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishi, o'quv jarayoni va malaka oshirishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy andragogik amaliyotni tashkil etish usullari orasida eng samaralilari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish kerak:

- Kattalarning haqiqiy muammolarini aks ettiruvchi va uni hal qilishga hissa qo'shadigan guruhlarini o'rganish jarayonida vaziyatlarni yaratishga imkon beruvchi simulyatsiya modellashtirish;
- Dizayn – ta'lim jarayonida voqelikning maqsadli prognostik o'zgarishi sifatida;
- Mavjud kasbiy va shaxsiy tajribani tushunish, baholash, tuzatish imkonini beradigan turli xil aks ettirish turlari;
- Dasturlash va algoritmlash, buning asosida zarur ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirish amalga oshiriladi.
- Zamonaviy amaliyotda andragogik faoliyatning yetakchi g'oyalari va modellarini sinovdan o'tkazish andragogik bilimlarning amaliy yo'naltirilganligidan, uning kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatidan dalolat beradi, bunday muhim faoliyatning mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
- Bandlikka ko'maklashish markazlari, kasb-hunar rehabilitatsiya markazlari, malaka oshirish institutlari, eksternal o'qitish, kechki (smenali) maktablar kabi boshqa ijtimoiy muassasalar. Shubhasiz, mutaxassislar toifalari va ta'lim muassasalarining turlari mavjud, ularni tayyorlashda andragogiya normativ blok sifatida ishtirok etishi kerak.

Agar an'anaviy ta'lim tizimi haqida gapiradigan bo'lsak, unda zamonaviy o'qitish usullari unga mos keladigan muassasalarda juda kam uchraydi, lekin o'quv markazlari va malaka oshirish va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarga kelsak, ularning faoliyatida yangi usullar tobora ko'proq paydo bo'ladi. Nima uchun bu usullar an'anaviy usullarga qaraganda ko'proq samaradorlikka ega? Avvalo shuni ta'kidlash joyizki, zamonaviy o'qitish usullari an'anaviy usullardan farqli o'laroq, bir oz boshqacha xususiyatlar bilan ajralib turadi, xususan:

1. Zamonaviy o'qitish usullari allaqachon maxsus pedagogik rejaga moslashtirilgan rivojlanish jarayonida. Rivojlanish muallifning o'ziga xos uslubiy va falsafiy qarashlariga asoslanadi
2. Harakatlar, operatsiyalar va o'zaro ta'sirlarning texnologik ketma-ketligi aniq kutilgan natija bo'lgan maqsadli sozlamalarga asoslanadi.
3. Usullarni amalga oshirish o'qituvchi va talabalarning shartnomaviy asosga ega bo'lgan va differentsiatsiya va individuallashtirish tamoyillarini, shuningdek, insoniy va texnik salohiyatdan optimal foydalanishni hisobga oladigan bog'liq faoliyatini o'z ichiga oladi. Majburiy komponentlar aloqa va dialoglar bo'lishi kerak

4. Pedagogik usullar bosqichma-bosqich rejalashtirilgan va ketma-ket amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ular har qanday o'qituvchi uchun mumkin bo'lishi kerak, lekin har bir talabning maqsadga erishishini kafolatlashi kerak.
5. Usullarning ajralmas tarkibiy qismi diagnostika muolajalari bo'lib, unda talabalar faoliyatini o'lchash uchun zarur bo'lgan vositalar, ko'rsatkichlar va mezonlar mavjud. Zamonaviy o'qitish usullari ko'p hollarda psixologik va pedagogik asosga ega bo'lmasligi mumkin, shuning uchun ularni qandaydir yagona tarzda tasniflash juda qiyin. Ammo bu nafaqat ularning ta'lim faoliyatida qo'llanilishiga to'sqinlik qilmaydi, balki ushbu dasturning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Ta'lim uchun yangi metod, texnologiyalar, innovatsiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishning asosiy yo'li sifatida ham maydonga chiqadi. Ayni shu sababli barcha mamlakatlar ta'lim tizimiga yangi metod, texnologiyalar, innovatsiyalarni mumkin qadar ko'proq joriy etishga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andragog ish kitobi // Ed. S.G.Vershlovskiy. - Sankt-Peterburg: Bilim, 1998 yil.
2. Andragogika // O'.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva Namangan-2014.
3. Андрагогический подход к развитию образоваельной активности педагога в процессе повышения квалификации // Г.А.Владимировна. Тема диссертация и автореферати по ВАК РФ 13. 00. 01 дисс кандидат педагогичеких наук.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonbekova M. X., Sayfurov D. M., To'rayev A.B. – "Sano standart" nashriyoti, 2015.
5. Mirsoliyeva M.T., Ishmuhammedov R.J O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Metodik qo'llanma. – Toshkent: - fan va texnologiya. 2014.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINI O‘QITISHGA DOIR MULOHAZALAR

Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda Alisher Navoiy merosining maktabda qay darajada o‘qitilayotganligi juda muhim sanaladi. Uning asarlari yosh avlod uchun ta’limiy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shoirning merosini umumta’lim bosqichlarida o‘qitish biroz muammoli masala. Bizga ma’lumki mumtoz matnning o‘ziga xos xususiyatlari uni mustaqil o‘qib tushunishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, xususan, Navoiy asarlarida payg‘ambarlar, tarixiy shaxslar, geografik joy nomlari, qadimiy afsona va rivoyatlar bilan bog‘liq voqealarga urg‘u beriladi. Shunday ekan shoirning asarlarini sharhsiz tushunish qiyin. Biz maqolada mutafakkirning “Farhod va Shirin” dostonini maktabda sharhlab o‘qitish yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tganmiz. Asar tahlili o‘quv soatlarida, dostonni sharhlab tushuntirish uchun “Angla”, “Idrok xaritasi”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Suhbat”, “Xarita” metodlaridan qanday foydalanish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *mumtoz, sharh, doston, lero-epik, aruz, ramziy, majoziy, metod, “Mosini top”.*

ANNOTATION

Today, the degree to which Alisher Navoi’s heritage is taught in schools considered very important. His works are aducational and educational for the young generation. Teaching the poet’s legacy at the general education level is somewhat problematic. As we know, the characteristic features of the classic text it prevents independent reading and understading. In addition, especially in Navoi’s works, events related to prophets, historical figures, names of geographical places, ancient legends or narratives are emphasized. Therefore, it is difficult to understand the works of the poet without comment. In the article, we commentend on the thinker’s epic “Farhod va Shirin” and expressed our opinions on teaching it at school. In the study hours of the analysis of the work, instructions on how to use the methods of “Angla”, “Perception map”, “Working in small groups”, “Interview”, and “Map” were shown to interpret and explain the epic.

Keywords: *select, commentary, poem, lero epic, aruz, symbol, allegorical, method, “Tind according”.*

Kirish

Badiiy adabiyot o'quvchini hayot bilan tanishtirar ekan, hayotni sevishga o'rgatadi. Asar qaysi tur va janrga mansub bo'lmasin shaxsda odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Alisher Navoiy asarlarida umuminsoniy g'oyalar yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Bugungi kun shoir adabiy merosini yangicha o'qitishni talab qilmoqda. Matnning yonida lug'at ya'ni, izohtalab so'zlarning yetarlicha aks etishi, nasriy bayoni yonida ilmiy sharh ham bo'lishi kerak deb o'ylaymiz. Barchamizga ma'lumki, shoir ijodini targ'ib qilishda bir qator muammolarga duch kelinadi. Chunki ayrim umumturkiy so'zlarning asar yozilish davri bilan bugungi shakli mutanosib emas. Bir so'zning bir necha ma'nolari mavjud. Ta'lim bosqichlarida DTS talablari asosida shoirning lirik merosi hamda "Xamsa" asari o'qitilib kelinadi. Shunga qaramay, o'quvchilar Navoiy asarlari mag'zini chaqa olmaydi. G'azallarini yod oladi, lekin matn zamiridagi ma'noni anglamaydi. Negaki, ularda ilmiy-irfoniy, falsafiy qarashlar borki, sharhga ehtiyoj seziladi. Ulug' shoir asarlaridagi ma'no va mohiyat, ramziylik va nozik qochirimlar, bir-birini takrorlamaydigan badiiyat unsurlari, eng asosiysi ularda ilgari surilgan g'oyalar mag'zini chaqish badiiy matnda qo'llanilgan har bir so'z va iboralar, ramz-u tashbehlarni bilish zarur¹.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Shoir ijodini o'rganish maqsadida dastlab lug'atlar tuzilgan. Husayn Boyqaro Navoiy asarlari uchun "Badoe ul-lug'at" lug'atini tuzdirgan. Shundan so'ng XX asrga qadar "Abushqa", "Xamsa bo halli lug'at", "Sangloh", "Lug'ati atrokiya", "Lug'ati turkiy", "Lug'ati chig'atoy "Xamsa"yi Navoiy", "Nisobi Navoiy", "Lug'ati amr Navoiy", "Dar bayoni lug'ati Navoiy", "Halli lug'ati chig'atoyi" kabi qo'lyozma lug'atlar tuzilgan. Ushbu lug'atlar shoir asarlarini nasriylashtirish imkonini yaratdi. Asarlarni nasriylashtirishdan maqsad xalq ommasiga tushunarli bo'lishi uchun edi. Mir Mahdum ibn Shohyunus "Xamsa" dostonlarini nasriylashtirish sababini "Nasri Xamsayi Benazir" asarining muqaddimasida quyidagicha izohlaydi. *Ammo ahli donish va risolar qissayi ma'jub va hikoyati marg'ublardin bahramondurlar. Ammo ushbu zamonning aksar adamlari faqat savodxon bo'lub, nazmning faxmidin ojiz va bebahradurlar. Shu jihatdan avomunnos ham bahra olurmukin deb qasirona nasr tariqida baqadri toqat bayon qildim.*² Ya'ni shoir ijodini tushunish o'z zamonasida ham XX asrning boshlarida ham biroz mushkul bo'lgan. Bu muammo bugungi kungacha ham davom etib kelyapti. Bir qancha lug'atlarning yuzaga kelishi ham shu masala bilan bog'liq aslida.

¹M.Rajabova, Z.Amanova. O'quv qo'llanma. Navoiyshunoslik. Buxoro davlat universiteti. –B.4.

² Q. Ergashev. "Nasri xamsayi Benazir". "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi.2009-yil.51-son.

O'tgan asrning 60-yillariga kelib, shoirning asarlarini tushunish uchun sharhlar yuzaga keldi. Aziz Qayumov "Xamsa" dostonlarining g'oyaviy va badiiy yo'nalishini ochib berishda sharh usulidan unumli foydalandi. Alibek Rustamov "Bimilloh"ning ma'nolar risolasini yozdi. Najmiddin Komilov "Ma'nolar mahzaniga safar" kitobida shoir g'azallariga sharhlar bitdi. Shu qatorda Abduqodir Hayitmetov, Boqijon To'xliyev, Nusratullo Jumaxo'ja, Sultonmurod Olim, Dilorom Salohiy kabi adabiyotshunos olimlarimiz mutafakkir ga'azallarini sharhlab, beqiyos ijod namunalari yana-da sayqal berishdi.

"Sharhlash" arabcha so'zdan olingan bo'lib, *izohlash, tushuntirish, bayon etish* kabi ma'nolarni anglatadi. Ovro'pa ilmiy atamashunosligida sharh tushunchasi hamma vaqt ham bir xil ma'noni ifoda etmagan. Masalan, rus adabiyotshunosligida komentariy atamasi to'g'ri kelib, u bayon etish, tushuntirib berish, mag'zini chaqib berish ma'nolaridan tashqari, keng ma'noda, ya'ni ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishlarga nisbatan ham qo'llanadi¹. Zaminimizga islom dini, madaniyatining kirib kelishi adabiyotga, san'atga sezilarli ta'sirini o'tkazdi. Olim-u fuzalolar asarlarida diniy, tasavvufiy qarashlar o'z aksini topdi. Natijada sharh ilmiga ehtiyoj sezildi. Sharhlab o'qitish usulining paydo bo'lishi madrasalar ta'limi bilan bog'liq. Madrasa oliy o'quv dargohi VII-VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. Markaziy Osiyodagi madrasalarda arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan. Ular talabalarga muddaris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan².

Sharhlashning quyidagi turlari mavjud:

1. Lingvistik sharh (Tushunilishi qiyin so'zlar, ma'nosi notanish va noaniq so'zlar izohi). Sharhning bu turini quyidagi so'zlar qamrab oladi: arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dealektizm, arab-fors so'zlar izohi.

2. Tarixiy-milliy sharh. Bunda qadimiy, milliy urf-odatlar, an'analar udumlar bilan bog'liq bo'lgan an'analar izohlanadi.

3. Tarixiy adabiy sharh. Adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog'liq an'analar izohlanadi.

Mahkamoy Tursunovanning qayd etishicha, asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so'zlar izohi bo'lishi mumkin:

- Jo'g'rofik joy nomlari.
- Mumtoz asardagi tarixiy shaxslar.
- Xalq maqollari iboralar va tasviriy vositalar.
- Qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi.

¹ Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. –T.: Mumtoz so'z, 2017. –B.31.


² uz.m.wikipedia.org.

- Son bilan ifodalangan so‘z va iboralar¹.

Taniqli metodist olim Safo Matjon o‘zining “Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar” metodik qo‘llanmasida sharhli o‘qish haqida quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tadi. Asrlar mobaynida sharhli o‘qishning madrasa va eski maktab ta’limida mutolaaning asosiy turi sifatida qo‘llanilib kelingani bejiz emas. Sharhli o‘qish lug‘at bilan ishlashni anglatmaydi, balki asardagi obrazli ifodalar, iboralar maqol va matallar mazmunini sharhlash tarixiy afsonaviy, xayoliy fantastik timsollar haqida ma’lumotlar berish izohlash kabi murakkab masalalarni qamrab oladi². Alisher Navoiy “Xamsa” asari syujetida qadimiy afsonalar, afsonaviy qahramonlar, payg‘ambarlar, xalq maqollariga ishoralar borki sharhni talab etadi.

“Farhod va Shirin” dostonini sharhlab o‘qitishda maktab o‘qituvchisi quyida keltirilgan jadvaldan foydalanishi mumkin.

“Idrok xaritasi” metodi



¹ T. Mahkamova .Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari . –T.: Mumtoz so‘z,2017. –B.34.

² Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.: O‘qituvchi, 1996. –B.124.

O‘qituvchi dostonni sharhlashda “Idrok xaritasi” metodidan foydalanar ekan, quyida keltirilgan mezonlarga tayanishi o‘rinli:

-dostonda keltirilgan joy nomlari haqida tushuncha berish, bugungi va tarixdagi o‘rnini xaritadan ko‘rsatish;

-payg‘ambarlar nomi keltirilgan o‘rinlarni sharhlashda diniy kitoblarda keltirilgan ma‘lumotlarga tayanish;

-tarixiy shaxslar, sulolalar vakillari haqida ma‘lumot berilishi mumkin o‘rinlarda, afsona va rivoyatlarni keltirib o‘tish;


-ramziy timsollarni sharhlash uchun muallifning g‘oyasi, asarning tub mohiyati aks etgan o‘rinlarga e‘tibor qaratish tavsiya etiladi.

Natija

Doston liro-epik turga mansub. Unda ma‘lum voqea hodisalar tasvirlanadi. Shuning uchun ma‘lum bir voqea-hodisani qamrab olgan baytlarni sharhlashda “Angla” usuli bilan yondashamiz.

“Angla” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Matnga ilk yondashuv.
2. Mazmuni idrok etish.
3. Shaklni idrok etish.



Asarni sharhlab o‘qitishdan oldin o‘quvchilarning asar mazmunini anglashga qaratilgan emotsional tayyorgarligi talab etiladi.

Asarni sharhlashdan oldin...



Taqdimotni ko‘ring.

1. Taqdimot sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Tinglagan baytlaringiz mazmunini tushundingizmi?

I. Matnga ilk yondashuv.

Asarni sharhlaymiz.

*Shabistonida tug‘di bir yangi oy,
Yangi oy yo‘qki mehri olamaroy.
Ochildi bog‘ida bir otashin vard,
Demaykim vard, balkim shulai dard.
Falak deb dard elining shohi oni,
Malak deb dard o‘ti ogohi oni.
Tushub ishq ahli ichra har taraf jo‘sh
Chu tug‘di o‘tda sayr aylar Siyovush.*

“Mosini top” topshirig‘i

“A” bandida berilgan lug‘atlarni “B” banddagi izohlardan mosini topib, jadvalni to‘ldiring.

A



B

| | |
|--|--|
| Siyovush | |
| Atirgul | |
| Kechki yotoqxona; ichki haram doirasi; qop-qorong‘u kecha; qorong‘ulik | |
| Istioraviy yo‘l bilan Farhodni bildiradi, uning tug‘ilishi qorong‘u kechada yangi oyning paydo bo‘lishiga qiyoslangan | |
| Tug‘ildi | |
| Olamni bezovchi, dunyo bezagi | |
| Farishta | |

II. Mazmuni idrok etish.

Baytning mazmuni: Uning oromgohida (tungi) yangi oy tug‘ildi, u oy emas, olamni yorituvchi quyosh edi. Farhod tug‘ilgunga qadar xoqonning hayoti bamisoli qorong‘u tunde edi, oy (Farhod) tug‘ildi-yu uning hayotini quyoshdek yoritdi. Shabiston so‘zi orqali xoqonning hayotiga ishora qilingan. Matn mazmunidan kelib chiqib, olamaroy so‘zini olamni yorituvchi quyosh ma’nosida olamiz. Quyosh olamni o‘z nuri bilan yoritadi (bezaydi). Xaqonning hayotida go‘yo ma’no yo‘qdek edi. Uning farzandli bo‘lishi hayotiga mazmun kiritdi. Chunki farzand inson umrining gultoji, naslining davomchisidir.

Baytda “shabiston” so‘zi orqali *iyhom* (bir so‘zni ikki ma’noda qo‘llash) va “shabistonida”, “yangi oy” so‘zlari vositasida esa *istiora* (bir so‘zni bir o‘rinda ikki ma’noda qo‘llash) kabi san’atlar ila go‘zal badiiy ifoda yuzaga kelgan.

Keyingi baytlarda Farhodning ishq dardi bilan tug‘ilganiga ishora qilingan. U tug‘ilishi bilan ishq ahlining ichida sarosima boshlandi. Go‘yo tug‘iliboq Siyovushning o‘t ichra sayr qilib yurganidek edi. Siyovush tarixiy shaxs, shuning bilan birga, mifik qahramon. Otasi – Kaykovus, onasi –turonlik zodagon ayollardan biri. Go‘dakligida onasidan yetim qolgan Siyovushni Rustam tarbiya qiladi. Siyovushga o‘gay onasi Sudoba oshiq bo‘lib qoladi. Siyovush uni rad etganida Sudoba tuhmat qiladi. Otashparastlik (o‘tga olovga tapinuvchi) odatiga ko‘ra, Siyovushning otasi uning pokligini isbotlash uchun ot bilan gulxandan o‘tkazadi. Alanga shu ondayoq gulshanga aylanadi. Siyovush Turonga, uning podshohi Afrosiyob tomonga o‘tadi¹. Baytda Farhod poklik bobida olovdan eson-omon o‘tgan Siyovushga qiyoslangan. Siyovush xalq orasida katta shuhratga ega bo‘lgan. U haqida ko‘p afsona, rivoyat qo‘shiqlar to‘qilgan. Afsonalarda unga xos bo‘lgan mardlik, jasorat, ulug‘vorlik kuylangan. Vafo va sadoqat poklikni kuylash Sharq adabiyotida qadim-qadim zamonlardan davom etib kelayotgan muqaddas mavzulardan biridir. Sharqning buyuk shoirlari bu muqaddas g‘oyalarni turli janrlarda g‘oyat ehtiros va so‘nmas ixlos bilan tasvirlaganlar. Bu mastahkam axloqiy kodeks xalqlarimiz turmushiga, ongiga singib katta ijtimoiy ma’no kasb etib keladi². Navoiy inson va uning axloqiy fazilatlarini ulug‘lashda qadimgi afsonalar syujetidan keng foydalangan. Yuqoridagi baytda shoir talmeh san’ati orqali o‘tmishga nazar tashlab fikr ta’sirchanligiga erishgan.

III. Shaklni idrok etish

Sha-bis-to-ni /-da tug‘-di bir/ya-ngi oy

¹ Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at 1-jild. –T.: Sharq,2016. –B.507.

² Najmiddin Komilov. Ma’nolar mahzani. – T.: Tamaddun, 2012. – B. 4.

Ya-angi oy yo‘q/-ki, meh-ri o/-la-mo-roy

Vazni: hazaji musaddasi mahzuf.

Mafoiylun mafoiylun fauvlun

V - - -/V - - -/V - -

V - - -/V - - -/V - -

Qofiyadosh so‘zlar: oy, olamoroy. Muqayyad qofiya.

Raviy: “y” tovushi. Radif ishtirok etmagan.

She’riy san’atlar: istiora...

O‘qituvchi vaznning qanday o‘qilishini tushuntiradi va ovoz chiqarib o‘qiydi. O‘quvchilar vaznga solib o‘qishni mashq qilishadi. Asar so‘zlaridagi har bir bo‘g‘inga urg‘u berish, baland ovozda zo‘r berib, ba‘zan qichqirib o‘qish mumkin emas. Aruzda so‘zlardagi tovush va bo‘g‘inlar ba‘zan alohida, ba‘zan esa bir-biri bilan qo‘shilib talaffuz qilinadi¹. “Ravon nutq inson ko‘rki” shiori ostida nazm daqiqasi tashkil qilinib, o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanadi. Mumtoz matnlarni ifodali o‘qish uchun aslida ularning vaznini bilish talab etiladi. O‘quvchilar diqqatini asarda aks etgan g‘oyalar oqimigagina qaratib qolmay, ana shu voqealar asnosida qo‘llanilgan badiiy san’atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo‘naltirilsa, ularning ko‘ngil ko‘zi ochiladi. Shunda bolalar so‘zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topib oladigan bo‘lib qoladilar². Dostonda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalarni, dostonning vaznini sharhlash adabiyot darslarida o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi. San’atni tushunishga o‘rgatadi. Yozuvchining mahorati va asarning qadr-qimmati asarda so‘zning san’at darajasida qanday qo‘llanilgani bilan o‘lchanishini o‘quvchi tushunishi kerak. Matn ostidagi tagma‘noni tushunishda asarda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalarning o‘rni muhim.

Muhokama

Asar qahramonlari ismiga sharh berish orqali ularning fe‘l-atvoriga, ismlarning munosib tarzda tanlangani, ichki dunyosi maqsadi va qarashlarini ochib berishda qo‘l keladi. Demak, shoir qahramonlarni nomlashda, ismlar orqali xarakter-xususiyatlarini ochib berishni ko‘zlagan. Qahramonlar nomi ma‘lum bir ramziy ma‘nolarni anglatadi. Shoir asarlari mohiyatini to‘laroq anglab yetish uchun shaxs nomlari obrazlar tizimini taniy olish, timsollar haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish talab etiladi. Navoiy Farhod ismini asarning o‘zida sharhlagan.

Jamoliddin ko‘ringach farri shohi

Bu fardin yorudi mah to ba mohi.

¹ Najmiddin Komilov. Ma‘nolat mahzani. – T.: Tamaddun, 2012. - B.3.

² Q. Yo‘ldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. –B. 63.

*Qo'yib yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topdi ziynat.
Anga farzona Farhod ism qo'ydi
Hurufi max'azin besh qism qo'ydi,
Firoq-u, rashk-u hajr-u oh ila dard
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq atgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab.*

Farri shohi - shohlik nuri;

Mah to ba mohi - oydan baliqqacha bu yerda "osmondan yergacha" degan ma'noda qo'llangan;

Farzona - oqil, dono;

Hurufi – harflar;

Ma'xazin - biror narsaning olingan joyi, manba;

Murattab – tartib berilgan, tartiblangan, tuzilgan;

Fard - yakka, yolg'iz, ajralgan, befoyda.

Mazmuni: "Jamolidin" shohlik yog'dusi ko'zga tashlanib turgani sababli shu nurdan yer-u ko'k yorishib turardi. Baytda keltirilgan "mah to ba mohi" –oydan baliqqacha quyidagicha sharhlanadi. Afsonaga ko'ra yerni ho'kiz, ho'kizni baliq ko'tarib turadi. Bu yerda o'sha baliq ko'zda tutilgan. Iboraning ma'nosi shuki, eng balanddagi narsa bilan eng pastdagi narsagacha, ya'ni butun yer-u osmon Farhodning yuzidagi shohlik yog'dusidan yorishib ketdi. Misrada "farri shohi", "mah to ba mohi" iboralari tarse' san'atini vujudga keltirgan. Himmat, iqbol-u davlat birdan o'zining yuzini ko'rsatib, bular ham uning yuzidagi yog'dudan ziynat topdilar. "Himmat"dan "h", "iqbol"dan "alif", "davlat"dan "d"ni olib, qo'shsak, "hod" paydo bo'ladi, buni "far"ning soyasi, ya'ni keyiniga olsak, "Far-hod" so'zi hosil bo'ladi¹. Baytda *himmat, iqbol, davlat* so'zlari ta'did san'atini hosil qilgan. Shoir dostonida Farhod ismini «Firoq»dan "f"ni, "rashk"dan "rashk"dan, "r"ni, "hajr"dan "h"ni, "oh"dan "o"ni va nihoyat, "dard"dan "d"ni bir-biriga biriktirganda "Farhod" ismi tarkib topdi. Sevgi ustozini shunday qilib besh so'z boshidan bittadan harfni ajratib olib, unga ism qo'ydi.

*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.*

Ushbu baytda go'yo Farhodning hayot yo'li uning boshidan kechadigan voqealarga urg'u beriladi. Farhod ishq bilan tug'iladi va *firoq* chekadi. Xusravning

¹ Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2019. –B. 82.

Shiringa sovchi qo'yishi, Armanistonga hujum qilishi *rashk* so'ziga ishora. *Hajr* – Shirin ishqida hijron tortgani, uning yonida o'zini tutib turolmasligi, hushidan ayrilishi. *Dard* – Salosil qurg'onida bandi qilinishi, tog'-u toshlarga chiqib *oh* chekishi.

Shu o'rinda Farhod obrazining genezisi haqida ham ma'lumot berib o'tish lozim. Chunki o'quvchilar Farhod ismli shaxs haqiqatda uzoq o'tmishda mavjud bo'lganligiga qiziqishadi. Farhod obrazi Nizomiy tomonidan o'ylab chiqilgan obraz emas. U xalq orasida qadimdan ma'lum edi. Shunga ko'ra Farhod obrazi bugungi kungacha saqlanib qolgan¹. Farhod haqidagi qissa, rivoyat va afsonalarning xalq orasida keng yoyilishiga yana bir muhim sabab mavjud. Tarixshunos olim Yahyo G'ulomov "O'zbekiston SSR tarixi" kitobida Firaatning Farhod ekanligini ta'kidlab o'tgan. Ya'ni Firaat VI asrda Marvda yashagan, u haqidagi yagona ma'lumotlar Doro I ga qarshi isyon ko'targan, dastlab muvaffaqiyat qozongan, keyinchalik mag'lubiyatga uchrab, asirga tushgan va qattiq qiynoq bilan o'ldirilgan. Shu tariqa xalq orasida uning mardligi afsonaga aylangan. Bunday obrazlarning vujudga kelishi xalqning ijtimoiy turmushi bilan chambarchas bog'liqdir. Farhod kabi pahlavonlar xalqning orzu-umidi bo'lgan. Xalq ana shunday ideal qahramonlar ularning turmushini yengillashtirishiga ishongan. X – XI asrlarda Farhodning tog' qazish, toshyo'narlik mahoratidan hikoya qiluvchi afsonalar juda ko'p bo'lgan. Bekobod tumanidagi Farhod tog'i, Xorazm viloyatidagi Devqal'a, Qoshg'ardagi Ming uy kabi geografik joylar nomi bilan bog'liq afsonalar Farhod kulti bilan bog'lanadi. Prof. I. Braginskiy "Shohnoma" va unga yaqin turgan bir qancha epik asarlar asosida afsonaviy sak qahramonlarining ro'yxatini tuzganda Farhod ismli qahramonni ham eslaydi. Muallifning xabar berishicha, Farhod Zovarning o'g'li, Zolning nabirasi. Afsuski, bu qahramon haqida mufassal ma'lumot saqlanmagan. "Shohnoma"da Afrosiyobning lashkarboshilari haqida so'z borganda ham uning Farhod ismli jangavor sipohsalori bor edi, deb eslanadi. B.Bartoldning "Mo'g'ullargacha bo'lgan Turkistondagi xristianlik haqida" deb nomlangan asarida VI asrda Suriyada yashagan iste'dodli yozuvchi Farhod haqida ma'lumot bor. Tarixchi Muhammad Bal'amiyning "Tarixiy Tabariy" asarida Farhod bilan Shirin munosabatiga oid bir lavha haqida hikoya qilinadi. Xusravning Shirin ismli kanizi bor edi, deb yozadi, Bal'amiy, - Farhod unga ko'ngil qo'yib, uning uchun Besutun tog'ini qazishga kirishgan edi. Farhod tomonidan qo'porilgan har bir tosh ushog'ini o'n kishi, balki yuz kishi o'rnidan qo'zg'ata olmaydi. Ular hozir ham turibdi². Farhod xalq tasavvurida ideal qahramon sifatida namoyon bo'lgan. X–XII

¹ С. Еркинов. Навоий "Фарҳод ва Ширин" и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.: Фан, 1971. – Б.71.

² Таърихи Табарий. Фанлар академияси Шарқшунослик институти, инв. № 8986, 300-бет.

asrlarda yashagan Og‘ochiy, Qatron Tabriziy, Farididdin Attor kabi shoirlar she‘rlarida Farhod qissasini qalamga olganlar.

Shirin –Sharq adabiyotiga oid tadqiqotlarda uning tarixiy shaxs ekanligi aytiladi. Tarixda mashhur bo‘lgan Shirin VI asr oxiri va VII boshlarida yashagan. Shirin to‘g‘risida dastlabki ma‘lumot VI asr oxiri va VII asr boshlarida yashagan Vizantiya tarixchisi Feofilakt Simokattaning “Tarix” kitobida uchraydi. Simokatta Shirinni xristian diniga mansub bo‘lgan rum qizi deyishga moyil bo‘ladi.¹ “Suriya anonim solnomasi” asarida Shirin Armiyanka deb ko‘rsatiladi. VII asr arman tarixchisi Sebeos kitobining Xusrav Parvez va Shirin to‘g‘risida hikoya qiluvchi qismida Shirin Sosoniylar davlatiga qarashli Xuziston viloyatidan edi deb ko‘rsatiladi². Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra Shirin Xusravning eng sevikli xotini bo‘lgan.

Navoiy dostonida Shirinni aql va hayoda go‘zal, Farhodga munosib, qahramon sifatida tasvirlagan. Shirin o‘zida barcha ma‘naviy fazilatlarni jo qilgan obraz. Uni bu dunyoning o‘tkinchi davr-u davroni qiziqitirmaydi. Asarda Shirin pok, samimiy muhabbatni, inson sha‘ni, qadr-qimmatini oliy o‘ringa qo‘yadi.

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,

Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur. (“Farhod va Shirin”, 328-bet)

Shirin nomi ham qadimgi tarix asarlarida faqat Shirin tarzida emas, balki Sira shaklida ham uchraydi. “Avesto” kitobida suv ma‘budasi Ardivisura –Nohid tilga olinadi. O‘rta Osiyoning turli rayonlarida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida ana shu suv ma‘budasining tasviri ishlangan buyumlar, haykalchalar topilgan. Ularda Advisuraning qo‘lida ko‘pincha suv idishi tasvirlangan bo‘ladi³. Eron tarixiga oid ko‘pgina asarlar muallifi E.Gibbon Shirinni *Sira* tarzida tilga olgan⁴. Bu Advisura Shirin shakliga ega bo‘lgunga qadar *Sura*, *Sira* kabi atalib kelingan. Suv ma‘nosini anglatgan Sira so‘zi *S* tovushining *Sh* tovushiga aylanishi bilan *Shir* –*Shira* shakliga ega bo‘lgan. *Shir* - tegishlilik, vositalik mazmunini anglatuvchi –*in* affiksini qabul qilib, *Shir-in* – suvga tegishli mazmunini anglatib qolgan bo‘lishi mumkin⁵.

Navbatdagi obraz Mehinbonu Armaniston o‘lkasini boshqaradigan malika. Bu ismning izohi – buyuk, ulug‘, ulug‘vor, vatan; bonu so‘zi begim, beka ma‘nolarini anglatadi. Navoiy asralarida ayollar aqlli, vafoli, ilm-fanda misoli dono. Shoir Mehinbonuni Momo Havvoga o‘xshatadi.

Qo‘pub gulruh harimin qildi ma‘vo

Nechukkim ravzai jannatni Havvo. (“Farhod va Shirin”, 265-bet)

¹ Феофелакт Симокатта. История, М, 1957, стр. 134

² “История епископа Себеоса”, Ереванб 1939, стр.44.

³ Г.Григорьев. Городище Тале-Барзу, Труды отд.

⁴ E.Gibbon, The decline and fall of the Roman empire, vol.V, London.1900, p. 62.

⁵ С.Еркинов Навоий “Фарход ва Шириин” и ва унинг қиёсий таҳлили. Т.: Фан, 1971.-Б. 23.

Uning Shirin xonasiga kirib kelishi, Momo Havvoning Jannatdan makon tutganiga qiyoslangan. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Olloh tomonidan yaratilgan birinchi inson Odam Ato jannatda jufti Momo Havvo bilan yashagan¹. Shoirning ta’rif berishicha, uning kelib chiqishi Faridunga borib taqaladi. Zoti Jamshidnikidan baland.

*Ki, Afridun sori borur nasabda,
Erur Jamshiddin ortuq hasabda.
Agarchi soya solmas boshig‘a toj,
Va lekin tojvarlardin olur boj. (« Farhod va Shirin »,259-bet)*

Boshiga toj soya solmasa ham ko‘p tojdorlardan boj oladi. Baytda keltirilganidek, shoir Mehinbonuda buyuk vatanparvar ayol obrazini gavdalantirgan. Mehinbonu Shirinning eng yaqin g‘amxo‘ri, himoyachisi, qadrdon xolasidir. Dostonda Shirin bilan bog‘langan biror lavha ularni bir-biridan ayro ko‘rsatmaydi. Shirin va Mehinbonu har bir ishda birdam va hamdam edilar.² Mehinbonu cheksiz mehr-muhabbatga ega inson timsoli. Shirinni nihoyatda e‘zozlashi, aziz tutishi buning yaqqol misolidir.

Mulkoro – so‘zning izohi: mamlakatni bezaydigan, yurtga oro ko‘rk beruvchi ma’nolarini ifodalaydi. Chin mamlakati podshohining tadbirli vaziri, Farhodning otabegi, uning salomatligi haqida hamisha qayg‘uradigan ma’naviy ota.

*Hamul Farhodg‘a erdi atobek,
Ko‘rib Farhod xud oni atodek, (“Farhod va Shirin”,95-bet)*

Vazirning sa’y –harakati bilan mamlakat obod edi . U el orasida Mulkoro nomi bilan mashhur edi. U Farhodga otadek bo‘lib, Farhod ham uni o‘z otasiday ko‘rar edi.

*Chekib afg‘onni Mulkoro atodek,
Kim ul Farhodg‘a erdi atobek. (“Farhod va Shirin”,217-bet)*

Farhod xazinadagi ko‘zgudan Shirinni ko‘rgach ahvoli yomonlashib hushini yo‘qotadi. Shunda Mulkoro Farhod uchun otalardek fig‘on tortadi. To‘rt qasr qurilishida me‘mor, donishmand, xoqonning o‘ng qo‘li, aql farosatli, tadbirli shaxs.

*Ki chun shah qildi Mulkoroni ma‘mur,
Binolar mulkidin qilmoqqa ma‘mur. (“Farhod va Shirin”,96-bet)*

Asar voqealar rivojida vazir yetakchi o‘rinni egallaydi. To‘rt faslga monand, ulug‘vor qasr qurilishida jonbozlik ko‘rsatadi. Farhodning maslahatgo‘yi. Uning komil inson bo‘lib yetishuvida Mulkoroning o‘rni beqiyos.

¹ Sharq hikoyati va rivoyatlari. –T.: Sharq.2015. –B.15

² Aziz Qajumov. Farhod va Shirin sirilari.-T.: Fofur Fuloim nomidaagi adabiёт va san’at1979.-B.136.

Shopur – fors-tojikcha, pahlaviycha shahzoda, shoh farzandi degan ma’nomlarni anglatadi. Navoiyda Shopur Farhodning do‘sti, usta rassom sifatida talqin etilgan. Dostonda Shopur nafaqat Farhodning do‘sti, balki Shirinning ham do‘stidir. Unday do‘stona birdamlik tuyg‘ulari Navoiyning o‘ziga yaxshi tanish edi. Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Muhammad Paxlavon kabi sadoqatli do‘stlarga ega bo‘lgan.¹

Sen ersang hamrohim jannat durur yo‘l

G‘araz bu ersa, bismillah, ravon bo‘l.

Bo‘lib Farhodg‘a Shopur munis,

Tutib oning bila sayr ichra majlis. (“Farhod va Shirin”, 255-bet)

Bu do‘stlik boshlariga musibat kelganda sinalgan do‘stlikdir. Xalqparvarlik, fidoiylik, sadoqat kabi mushtarak tuyg‘ular Shopur va Farhodni ikki yorti bir butun qilgan edi. Shopur do‘stining qayg‘usiga Sherik, quvonchiga hamroh bo‘la oladigan inson timsoli.

Bahrom – (Mirrih) Mars sayyorasining nomi. Qadimgi afsonalarga ko‘ra, ilmi nujumda Bahrom harbiy ishlar homiysi hamda yovuzlik, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi pahlavon sifatida tasvirlangan. Dostonda ham Bahrom Farhodning o‘chini oladi. Yovuz Sheruyani Arman diyorida quvib, mamlakatda tinchlik, osoyishtalik o‘rnatadi. Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarida yozishicha, Eronning kuchsiz podsholaridan biri bo‘lgan. U ikki yarim yil podsholik qilgan. Bahrom obrazi dostonning oxirgi boblarida faollashadi. Farhodning sadoqatli do‘sti, ko‘kaldosh inisi. Sadoqatni otasi Mulkorodan o‘rgangan.

Dedi: “xoqong‘a elting bo‘yla e‘lom

Ki, topti bir-birin Farhod-u Bahrom.

Yetib Farhodning qabrini zohir,

Ul-u Shopur bo‘ldilar mujovir.(509-bet)

Bahrom Armaniston o‘lkasini dushmandan xalos qilgach, qo‘shinni Chinga jo‘natadi. O‘zi esa Shopur bilan Farhod qabri tepasida mujovir bo‘lib qolishadi.

Xusrav – fors-tojikcha; mashhur, nomdor, hukmdor kabi lug‘aviy ma’nomlarga ega. Xusravning laqabi Parvez – muzaffar, baxtiyor deganidir. U Sharq adabiyotida keng tarqalgan obraz. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u sasoniy podsholardan. “Tarixi mulki ajam” da yozilishicha, Xusrav Parvez hukmronligi Muhammad alayhissalomning payg‘ambar etib yuborilishi davriga to‘g‘ri kelgan. Payg‘ambarimiz uni islom diniga da‘vat etib noma yuborganlar. U nomani yirtib tashlagan. Bu ishi bilan mulki va davlatig‘a qasd qilgan. Rasuli Akram s.a.v.

¹ Азиз Қажумов. Фарход ва Ширин силари.- Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1979 -Б.90.

mo‘jizasidan, mulki zavolga uchrab o‘g‘li Sheruya podshoh bo‘lgan¹. Xusrav obrazi o‘z nafsiga qul hiylakor hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. U manfaati yo‘lida hech kimni ayamaydi. Aynan u kuch-qudratidan razolat uchun foydalanadi.

Buzurg Ummid – Buzurg – ulug‘ buyuk; Ummid – orzu, tilak degan ma’nolarni ifodalaydi. U yer ostidan ko‘kkacha bo‘lgan hamma narsani biladi. Xusravning bilimdon vaziri. U bilimni makr-hiyla, yovuzlik yo‘lida sarf qiladi. Farhodni qo‘lga tushirib, o‘ldirib yuborish rejalarini birma-bir tuzadi. “Tarixi mulki Ajam”da Farhod, Shirin, Buzurg Ummid nomlari tarixiy shaxslar sifatida tilga olingan. Xusravning olamda husn-u latofat va jamol-u malohatda tengsiz Shirin ismli mahbubasi, Farhoddek raqibi, shuningdek, Buzurg Ummiddek asirining a’lami darajasidagi vaziri bo‘lgan.² Asar qahramonlari ismini sharhlashda ularning fe’l-atvorini ham ochib bergan ma’qul.

Dostondagi detallarni sharhlashda, shoirning maqsadini hisobga olish muhim. Samandar yog‘i, Sulaymon uzugi, Iskandar tilsimi, Jamshid jomi kabilar detallarni sharhlash, o‘quvchi oldidagi mavhum tushunchalarni oydinlashtiradi. Jamshid jomi, samandar yog‘i, Iskandar oynasi xayoliy fantastik timsollar hisoblanadi. Ularni sharhlashda afsonalarga tayanish asosli.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan ijodiy ish. Bu metod qo‘llanganda ta’lim oluvchilar darsda faol ishtirok etadi. Ta’lim beruvchi esa vaqtni tejash imkoniga ega bo‘ladi.

Sinf o‘quvchilari to‘rt guruhga bo‘linadi. Guruh sardorlari o‘qituvchi avvaldan tayyorlab qo‘ygan, rasmlil va matnli mozaikalardan birini tanlashadi.

Masalan: 1-guruhga, samandar qushining suvrati mozaikasi va u haqida ma’lumot beruvchi matndan tayyorlangan mozaika.

2-guruhga, Sulaymon uzugi suvrati mozaikasi va u haqida tayyorlangan matn mozaikasi. Uchinchi va to‘rtinchi guruhlariga Jamshid jomi va Iskandar oynasi surati va matnidan tayyorlangan mozaikalar beriladi. Guruhlar o‘zaro ichki guruhga bo‘linishadi. Bir guruhda olti kishi bo‘lsa, uchtasi rasmni tiklashga jalb etilsa, qolgan

¹ A.Navoiy. Tarixi mulki ajam. Tanlangan asarlar to‘plami. 8-jild. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU,2013. –B. 668.

² A.Navoiy. Tarixi mulki ajam. Tanlangan asarlar to‘plami. 8-jild. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU,201. - B.668.

uchtasi matnni tiklashga jalb etiladi. Ma'lum bir vaqt belgilanadi. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach taqdimotlarini sinf taxtasiga ilishadi. Ramziy detallar haqida ma'lumot berishda sharhlash usulidan foydalanishadi. O'qituvchi ularni analiz qilib turadi hamda dars yakunida o'quvchilar uchun mavhum bo'lgan tushunchalarga oydinlik kiritadi, fikrlarni umumlashtiradi. Bu usul dars davomida sinab ko'rildi. Quyidagi tasvirlardan foydalanildi.



1.Samandar qushi. 2.Iskandar oynasi. 3.Sulaymon uzugi. 4. Jamshid jomi.

Asardagi joy nomlarini sharhlashda uzoq o'tmishga oid tarixiy faktlarga tayaniladi. Yunoniston hududida antik davrda yashagan faylasuflar haqida suhbat o'tkaziladi. Navoiy nega aynan shu hududni asarga kiritgani sharhlanadi. Bizga ma'lumki, Yunoniston hududida miloddan avvalgi asrlarda ilm-fan o'ta yuqorilagan davrlar bo'lgan. O'zgacha uslubdagi hashamatli amfiteatrlar, ibodatxonalar noyob arxitektura asosida qurilgan saroylar mavjud bo'lgan. Ayrimlari hozirgacha saqlanib qolgan. Shoir ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni yaxshi egallagan. Buni asarlari qahramonlari misolida ko'rishimiz mumkin. "Farhod va Shirin" dostonida bir qancha dunyoviy ilmlarga urg'u beriladi. Farhod shu ilmlarni mukammal egallagan komil inson sifatida namoyon bo'ladi. Bu bilan mutafakkir diniy va dunyoviy ilmlarni

yoshlar yaxshi bilishi kerakligini targ'ib qilgan. Uning asarlarida ilmiy kashfiyotlarga ishoralar bor. Shoirning Chin o'lkasiga murojaat qilishi bejiz emas. Bu o'lkada qadimda san'at yaxshi rivojlangan. O'z-o'zidan ma'lumki, Navoiy san'at shaydosi bo'lgan. Doston boblarining muqaddima qismlarida ham Chin o'lkasini juda go'zal tarzda tasvirlaydi. Shoir dostonida Farhodning do'sti Shopurni rassom sifatida tasvirlaydi. Shopurning vatani Eron. Eronda qadimda moniylik oqimi bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Moniy naqqosh, usta rassom bo'lgan. Shoir u haqida juda yaxshi bilimga ega bo'lgan. Insoniyatning ilk taraqqiyot bosqichlarida naqqoshlik san'ati bilan mashg'ul bo'lishi mutafakkirni hayratlantirgan bo'lsa ajab emas. Shuning uchun Navoiy Shopurni usta rassom sifatida tasvirlagan. Chunki Farhod ilm fan, san'at shaydosi, do'sti Shopur ham mahoratda undan kam bo'lmasligi kerak edi.

Alisher Navoiy "Tarixi mulki ajam" asarida dostonni yozishda tarixiy faktlarga tayanganligini yozadi. Shirinni arman qizi deb ta'riflashiga ma'lum bir asos bo'lgan bo'lishi kerak. Farhodning Arman o'lkasiga borib suv ochishi, u yerni obod qilish epizodi dostoniga behuda kiritilmagan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Armanistonda islom dini va xristian dini vakillari o'rtasida kuchli to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. Farhodning u yerni obod qilishi, Bahromning esa tinchlik o'rnatish voqealari, bizningcha, shuning uchun kiritilgan bo'lishi kerak. Shoir kuchli siyosatchi bo'lgan. O'z diyorida yoki jahonda sodir bo'layotgan voqealarga befarq bo'lmaganligi tayin. Navoiyning istagi yer yuzida doim tinchlik hukmron bo'lishi edi. Buni "Xamsa" dostonidagi boshqa asarlari misolida ham ko'rish mumkin.



Joy nomlarini sharhlashda “**Xarita**”, “**Suhbat**” metodlaridan foydalanish o‘rinli. Sinf taxtasiga maxsus tayyorlangan xaritalar ilinadi. Suhbat asosida xaritalarda tasvirlangan inshoot yoki tarixiy shaxs, biror bir voqea tasvirlari yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Xulosa

Sharhlab o‘qitish asarni har tomonlama, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda yondashishdir. Mumtoz matnning mazmun-mohiyatini anglash, o‘quvchining yosh xususiyatini inobatga olib, matnni sharhlash, o‘qituvchidan muntazam izlanishni talab qiladi. Adabiyot o‘qituvchisi vaqtli adabiy nashrlarda, ilmiy-adabiy to‘plamlarda e‘lon qilinayotgan mumtoz namunalar, xususan tasavvuf bitiklari talqin va tahlil qilingan maqolalarni muntazam ravishda, o‘rganib borishi lozim¹. O‘quvchilar Hazrat Navoiyning “Xamsa” dostoni bilan tanishar ekan, uning zamiridagi ramziy, majoziy ma‘nolarni hamda badiiy ifodalarda aks etgan jozibani anglashi o‘qituvchining adabiy mahorati orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. M.Rajabova, Z.Amanova. O‘quv qo‘llanma. Navoiyshunoslik. Buxoro davlat universiteti. –B.4.
2. Q. Ergashev. “Nasri xamsayi Benazir”. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi.2009-yil.51-son.
3. Tursunova M. Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari. –T.: Mumtoz so‘z, 2017. –B.31.
uz.m.wikipedia.org.
4. T. Mahkamova .Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari . –T.: Mumtoz so‘z,2017. –B.34.
5. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.: O‘qituvchi, 1996. – B.124.
6. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at 1-jild. –T.: Sharq, 2016. –B.507.
7. Najmiddin Komilov. Ma’nolar mahzani. – T.: Tamaddun, 2012. – B. 4.
8. Najmiddin Komilov. Ma’nolar mahzani, - T.: Tamaddun, 2012. –B.3.
9. Q. Yo‘ldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. –B. 63.

¹V.Qodirov . Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammo va yechimlar. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi,2009. –B.122.

10. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. –B. 82.
11. С. Еркинов. Навоий “Фарҳод ва Ширин “и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.: Фан, 1971. – Б.71.
12. Тарихи Табарий. Фанлар академияси Шарқшунослик институти, инв. № 8986, 300-бет.
13. Феофелакт Симокатта. История, М, 1957, стр. 134.
14. История епископа Себеоса. Ереван. 1939, стр.44.
15. Г.Григорьев. Городище Тале-Барзу, Труды отд.
16. E.Gibbon, The decline and fall of the Roman empire, vol.V, London.1900, p.62.
17. С.Еркинов Навоий “Фарҳод ва Ширин “и ва унинг қиёсий таҳлили. Т.: Фан, 1971.-Б. 23.
18. Sharq hikoyati va rivoyatlari. –Т.: Sharq.2015. –В.15.
19. Азиз Қаяумов. Фарҳод ва Ширин сирлари.-Т.: Гофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1979.-Б.136.
20. Азиз Қаяумов. Фарҳод ва Ширин сирлари.-Т.: Гофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1979.-Б.90.
21. А.Navoiy. Tarixi mulki ajam. Tanlangan asarlar to‘plami. 8-jild. –Т.: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. –В. 668.
22. А.Navoiy. Tarixi mulki ajam. Tanlangan asarlar to‘plami. 8-jild. –Т.: G‘ofur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013 . –В.668.
23. V.Qodirov . Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammo va yechimlar. –Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. –В.122.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ASARLAR VOSITASIDA MILLIY TUYG‘ULARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI

Bozorova Ziyoda

TERDPI Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaladai milliy tuygularni shakllantirishda badiiy asarlardan foydalanish hamda oilada milliy tuygularni shakllantirishda ota onalarga pedagogik maslahatlar, ahamiyatga molik bo‘lgan jihatlar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, milliy tuyg‘u, ertak, maqol, topishmoq, ijod, rivojlanish, munosabat

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF NATIONAL FEELINGS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ARTISTIC WORKS

ABSTRACT

In this article, the use of artistic works in the formation of national feelings in preschool children, as well as pedagogical advice to parents and important aspects in the formation of national feelings in the family, are discussed in detail.

Key words: family, national feeling, fairy tale, proverb, riddle, creativity, development, attitude.

KIRISH

Mustaqillik davridagi islohotlarning birinchi bosqichida butun xalqni, asosan, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishildi. Bu davrda yosh avlod milliy qadriyatlar va an’analarning tub mohiyatini bilishdi. O‘tmishda ajdodlarimizning jahon fani ravnaqiga qo‘shgan buyuk ta’limoti bilan yaqindan tanishdi. Boshqacha aytganda, yosh avlod o‘zligini angladi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida, yosh avlod o‘zligini anglash natijasi o‘laroq, ma’naviy-ahloqiy, diniy-ahloqiy, ma’daniy-estetik, ma’naviy-marifiy, huquqiy va jismoniy jihatdan qarashlari chuqurlasha boshladi.

Darhaqiqat, Maktabgacha talim tashkilotlarida talim-tarbiya ravnaqi, bolalarning milliy g'ururini tarbiyalash va yuksaltirish singari ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda kuchli ijtimoiy siyosat yaratib bergan imkoniyatlar salmog'i katta bo'lib, bunda tarbiyaviy ishlar yuqoridagi masalani sifatli hal qilishga yo'naltiridi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir oila va davlat barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg'urishi lozim. SHaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila—haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelinayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, ma'suliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola xayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'alarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Yuqoridagi tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yo'li-avvalo ota-onalarning ma'naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onaning oldidagi, el-yurt oldidagi burchini to'g'ri anglashini, insonning dunyoga kelishi va komil topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni puxta bilishini, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'alarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy g'urur va qadriyatlarga mehr-muhabbatni o'yg'otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Binobarin, ota-onalik shunday ma'suliyatli vazifaki, uning jamiyatimiz manfaatiga mos tarzda amalga oshirilishi uchun inson ham ma'naviy jihatdan ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni insonlarga nafi tegadigan darajada yetuk qilib tarbiyalash uchun ham bilim shunchalik muhimdir.

Shuning uchun ham oila muqaddas hisoblanib, unga hayot maktabi deya ta'rif beradilar. Maktabgacha yoshdagi bola uchun oila – birinchi vatan, ijtimoiy hayotning birinchi pog'onasidir.

Vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to'kilgan yerdan boshlanadi. Zero milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash ham oiladan boshlanishi lozim. Ana shu tarzda, Vatan tushunchasi – oila tushunchasi singari yaqin bo'lib boradi va oila a'zolarining har biriga, ularning shuuriga iliqlik baxsh etadi. Bu iliqlik Vatan tuyg'usini bola ongida shakllanishiga olib kela boshlaydi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayonida oilaning kattalari-bobolar, momolar, yaqin qarindosh –urug'lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan, bola tarbiyasida ota-onasidan ham ko'ra bobo va buvilarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o'rin tutadi.

Masalan, Amir Temurning nevarasi tarbiyasi bilan ularning onasi emas, ulug' bibilari –buvilari shug'illangan. Xususan, SHohruh Mirzo singari temuriy shahzodalar Saroymulxonim qo'lida tarbiya topgan.

Bundan besh yuz ellik yil avval yashab ijod qilgan buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblaganlar. Alisher Navoiy bolalar oilada va maktabda intizomli bo'lishlari va o'zlarining odobli ekanliklarini ko'rsatishlari kerakligini ham ta'kidlab o'tgan edi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda

Alisher Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko'rsatishga alohida e'tibor berar va kishilarni, ayniqsa yoshlarni yaxshi kishilardan o'rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo'lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibрати tuz'risida shunday yozadi:

Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay ,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
Har kimki atog'a ko'p rivoyat qilg'ay,
O'g'lidan anga shu ish siroyat qilg'ay.

Milliy g'ururni singdirishda asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarni singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, milliy Navro'z bayrami, buyuk siymolar, Xotira va qadirlash kuni kabi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

XULOSA

Xulosa sifatida har bir oila o‘z farzandini sevadi. Hech kim ulardan yomon va baxtsiz insonlar yetishib chiqishini istamaydi. Farzandning har bir yutug‘i ota-onaning yuragini tog‘dek ko‘taradi, faxr va g‘urur tuyg‘ularini vujudga keltiradi. Lekin ota-onaning maqsad va niyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ular qanday yo‘l va vositalardan foydalanadilar, bular nihoyatda murakkab masalalardir. Agar oila ma’nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur – halovati bilan mashhul bo‘lsa, bularning hammasi bolaning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta. SHuning uchun ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o‘z-o‘zini tarbiyalashdan bo‘lmog‘i kerak. Ota-onalarning eksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.J.Mutalipova "Xalq pedagogikasi" Fan va texnologiya nashriyoti 2015-yil.
2. Hasanboyeva O. "Oila pedagogikasi" –Toshkent: Aloqachi, 2007. 287-289 b.
3. Kayumova N.M., Ro‘ziyeva M.M.“Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o‘rni “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning roli” mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 102-104-b
4. Mamedova M.M. Oilada bolalarning shaxs xususiyatlarini shakllantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning roli”mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 546-549-b

TIJORAT BANKLARIDA AKTIV OPERATSIYALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Norboyev Olimjon Xolmamatovich
QarshiDU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida aktiv operatsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud holat tahlili va ularni bartaraf etish muammolari keltirilgan.


Kalit so'zlar: bank, iqtisodiy resurslar, salohiyat, aktivlar, kredit, diversifikatsiya, mulkchilik shakllari.

Mamlakatimizda bank tizimining barqaror rivojlanishida riskdan himoyalanih va daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirishda bank tizimi boshqaruvini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank mahsulotlariga tayangan holda aktiv tarkibidagi resurslarni tubdan o'zgartirish mexanizmini bank aktivlarini iqtisodiy jarayonida ikki tomonlama tavsiflash kerak, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, aktivlar bank mahsuloti sifatida, resurslarni mulk sifatida ularning mavjud ekanligidir.

Ikkinchidan, aktivlar iqtisodiy salohiyatini amalga oshirish natijasi sifati ekanligidir.



1-rasm. Tijorat banklari aktivlari qiymati¹ (mlrd. so'm).


¹www.cbu.uz O'zR Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Aktivlarni birinchi nuqtai nazardan ko‘rib chiqishdan aktiv va passivlarni bir-biriga muvofiqlashtirib boshqarishni nazarda tutadi, ya’ni yagona bank mahsulotini boshqarishdir. Ikkinchi nuqtai nazar aktivlarni mustaqil tizim sifatida, resurslar bilan bog‘lamasdan boshqarishni nazarda tutadi. Foydali boshqarish uchun iqtisodiy rejada aktivlarni ikkala tavsiflari ham muhimdir. Aktivlarni mustaqil tizim sifatida o‘rganish aktivlarni o‘ziga xos sifatini topishga imkon beradi va bu, o‘z navbatida, ularni boshqarishda ishlatish imkonini beradi. Bularga kompleks va integrallashgan yondashuv aktiv va passivlarni alohida o‘rganish jarayonida bo‘lgan tizimli xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz banklari aktivlarini boshqarishni mikrodaraja usulida, ya’ni bank darajasida ishlashga harakat qilinmoqda. Bank aktivlarining to‘g‘ri boshqarilmasligi bankning kredit portfelini samarali diversifikatsiya qilinmasligiga olib keladi. Markaziy bank esa makrodarajada tijorat banklarni aktivlariga iqtisodiy normativlarni o‘rnatish orqali boshqarmoqda.

Bank aktivlari tarkibini boshqarish jarayoni o‘zida bankning erishmoqchi bo‘lgan maqsadiga erishishda kerakli yo‘nalishda ekanligini aniqlovchi omildir. Bank aktivlari bankning mahsuloti ekanligini hisobga olsak uni boshqarish jarayonida ko‘pgina risklarga duch kelamiz. Modomiki, riskga barcha aktivlar moyil ekan, turli xatarlarni boshqarishning alohida uslublarini ko‘rsatgan holda hamda aktivlarning alohida turlarini boshqarish xususiyatlarini ajratib ko‘rsatgan holda boshqarishni umumiy strategiyasini ishlab chiqish kerak. Banklarda aktivlarni boshqarishning bir nechta maqsadi o‘rnatilishi mumkin, natijada ko‘p mezonli masalani yechishga to‘g‘ri keladi. Bunda bank aktivlarini rejalashtirish boshqarishda asosiy o‘rinni egallaydi, chunki rejalashtirishda boshqarishning maqsadi aniqlanadi. Maqsadni bilmasdan xohlamagan joyiga borib qolish mumkin. Maqsadlar rejali vazifalarda, normativlarda, limitlarda, aktivlar yo‘nalishini tanlashda o‘rnatilgan ustunligida aniqlab beriladi. Boshqaruv jarayonini tashkiliy jihatdan ta‘minlash uchun ish tartibi va qoidalari ishlab chiqiladi, masalan, ssuda berish va uning to‘lanishi, mijoz holatiga ko‘ra risk darajasini o‘rnatish yoki ular orqali amalga oshirilayotgan boshqa aktiv operatsiyalar.

Ammo, bank filiallarida aktivlarni boshqarishni tashkil etish funksiyasi zaif bo‘lib, banklarda operatsiyalarni o‘tkazishning shaxsiy tartibi mavjud emas va boshqarishni tashkil etish vazifasi bank tomoni dan tarqoq amalga oshiriladi. Ko‘pincha banklarning tanazzulga uchrashi aynan yomon menejment, jumladan aktiv operatsiyalarni yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun zamonaviy shart-sharoitlarda bu funktsiyaning ahamiyatini oshirish kerak.



2-rasm. Aktivlar tarkibini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar¹.

Aktivlar tarkibini to'g'ri boshqarishni yo'lga qo'yish orqali bank daromadlarini oshirishga erishish mumkin. Yuqoridagi 2-rasmda aktivlar tarkibini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rishimiz mumkin.

Bank aktivlarini boshqarishda amalga oshirilayotgan keyingi vazifa muvofiqlashtirishdir. U yordamida bank bo'limlari bilan xodimlar, faoliyat turlari va bank mahsulotlari o'rtasida uyg'unlik o'rnatiladi.

Modomiki, bank aktivlari mahsulotni bir necha turlarida namoyon etilgan ekan, ular o'rtasida aniq bir o'zaro munosabat o'rnatilishi kerak, u yoki bu mahsulot ishlab chiqarayotgan bo'limlar ishini muvofiqlashtirish lozim. Mablag'ni jalb etuvchi bo'lim faoliyati ham muvofiqlashtirilishi darkor, chunki aktiv operatsiyalar mavjud mablag' doirasida amalga oshiriladi. Bank aktivlari turlari kengaytirilsa, bank tarmoqlarining filiallari o'ssa muvofiqlashtirish funksiyasi ahamiyati o'sishi mumkin.

Tartibga solish bank menejmenti funksiyasi sifatida, bankning aktivlari tizimi bo'lgan holda, yuklatilgan dinamik tizim parametrlarini qo'llab-quvvatlash faoliyatini namoyon etadi. Tartibga solish jarayonida yuklatilgan tizimdan chiqib ketishini, ya'ni normadan chetga chiqishlarni to'g'rilaydi. Aktivlarni tartibga solishning quroli: normativlar, standartlar, rejali vazifalar, prinsiplar va boshqalar. Tartibga solish nazorat organi sifatida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Tijorat banki aktiv operatsiyalar yuzasidan bank faoliyatini tartibga solish normativlarini o'rnatadi.

Bank menejmenti va aktivlarini boshqarishda o'z qo'llanishni talab qiladigan universal qonunlardan biri tenglik qonunidir. Bu qonun faqat miqdoriy tenglikni emas, balki nazariyani sifat parametrlarini optimal tanlashni talab etishdan kelib

¹ Muallif ishlanmasi.

chiqadi. Ushbu qonun boshqaruvchi va boshqarilayotgan tizim, shuningdek bu tizimni alohida elementlari o'rtasida tenglikni talab etadi. Tenglik qonuniga rioya qilish, tashqi muhit ta'siriga moyil turg'un hamda dinamik tizimida majburiydir. Ushbu qonunga rioya qilish tizimning ishonchliligini ta'minlaydi, ya'ni uning elementlari o'rtasida tenglikni saqlaydi. Agar bu tenglik buzilsa, tuzilish aloqalarining uzilishi kelib chiqadi.

Bank aktivlariga nisbatan ushbu qonunni qo'llash aktiv turlari o'rtasida foydali munosabatni saqlashni talab etadi. Shuningdek, aylanish muddati va sifatiga ko'ra bog'liq bo'lgan aktivlar va passivlar o'rtasida ham tenglikni saqlash talab etiladi. Aylanishga ko'ra aktivlar va passivlar tengligini baholash uchun o'rtacha tortilgan aktiv muddatlarini o'rtacha tortilgan passiv muddatlariga ko'ra munosabati sifatida muddatli transformatsiyasi koeffitsiyentini ko'zda tutish kerak.

Yuqorida keltirilgan boshqarish jarayonlari yuzasidan biz "Xalq banki" ATBning aktivlarni boshqarish jarayonini tahlil qilgan holda, aktiv operatsiyalarini boshqarish bo'yicha quyidagi takliflarni berdik:

1. Respublikamiz tijorat banklari kredit operatsiyalarining daromadligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri kredit portfeli diversifikatsiya darajasining past ekanligi hisoblanadi.

Kredit portfelini to'g'ri diversifikatsiya qilinishi, ularning daromadligini ta'minlashga yordam beradi. Mamlakatimizning yirik tijorat banklari kreditlarining 35-40 foizi bitta tarmoq korxonalariga berilgan kreditlardan iboratdir. Bu esa, tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past ekanligidan dalolat beradi. Chunki xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan meyoriy ko'rsatkichga asosan tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismi bitta tarmoq korxonalarida yoki bitta sohada to'planib qolmasligi lozim.

Respublika AT "Xalq banki" aksionerlik tijorat bankining 2022yilda bank kredit portfeli 2020 yilga nisbatan 6384,8 mlrd so'mga yoki 151 foizga ortib 18792 mlrd so'mni tashkil qildi. Shundan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 2019,0 mlrd so'mga yoki 144 foizga ortib, 6581,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 4159,5 mlrd so'mga yoki 156 foizga ortib, 8976,3 mlrd so'mni tashkil qildi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar 206,3 mlrd so'mga yoki 155 foizga ortib, 578,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar esa 2656,1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Ushbu tarmoqlarni moliyalashtirishga asosiy e'tibor berilganligi bank tavakkalchiligini oshiradi. Xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan meyoriy ko'rsatkichlarga asoslangan holda kredit portfelini boshqa tarmoqlarga ham teng taqsimlanishi bankning daromadiga, barqarorligiga, likvidliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Daromad keltiruvchi aktiv salmog'ini oshirish lozim. AT "Xalq banki" jami aktivlari 2022 yilda 2020 yilga nisbatan 9076,0 mlrd so'mga yoki 52 foizga jami 26411 mlrd so'mni tashkil etdi. Jami kapital 2021 yilda 4869,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022 yilda 4929,3 mlrd so'mni tashkil qildi, ya'ni 1,2 punktga ortgan. Ammo birgina kredit operatsiyalarini emas, balki bankka daromad keltiruvchi operatsiyalar hajmini kengaytirish lozim. Bank aktivlari tarkibida uzoq va qisqa muddatli aktivlar o'rtasidagi farq yuqori bo'lib, uzoq muddatli kreditlar 2734,2 mlrd so'mni, qisqa muddatli kreditlari esa 623,4 mlrd so'mni tashkil qiladi. Ma'lumki, qisqa muddatli kreditlar, noan'anaviy kredit operatsiyalari lizing, trust, faktoring operatsiyalariga ko'proq mijozlarni jalb etish bank daromadi hajmini oshiradi. 2022-yilda aholi omonatlari 7189757,0 mln so'm bo'lib, 2020-yilga nisbatan 14,7 foizga o'sgan. 2022 - yilda bankning kredit qo'yilmalari 21019047,4 mln so'm bo'lib, 2020-yilga nisbatan 20,5 % ga oshgan. Bankning qimmatli qog'ozlarga jalb qilingan investitsiyalari bank aktivlari hajmidagi salmog'i juda past 548,9 mln so'm bo'lib, bu holat esa, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalar rivojlantirish, ular aktivlarini samarali boshqarishga, likvidliligi va daromadliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq aktiv operatsiyalarni davlatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish yo'li bilan rivojlantirish evaziga emas, balki korporativ qimmatli qog'ozlarga qiladigan investitsion operatsiyalari hajmini oshirish yordamida amalga oshirish lozim. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini kengaytirish orqali yo'lga qo'yish lozim.

3. Tijorat banklarining aktivlarining likvidliligi va daromadliligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning optimal darajasini yuzaga keltirish, kassali aktivlarni yirik miqdorda to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bankning depozit siyosatini takomillashtirish yo'li bilan ularning depozit bazasi tarkibida transaksion depozitlarning salmog'ini pasaytirish lozim. Bundan tashqari, tijorat bankining foizli daromadlarini oshirish maqsadida, ssudalarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'ini oshirish, forfeyting operatsiyalarini rivojlantirish zarur. Tijorat banki aktivlarini riskka tortish tizimini Bazal qo'mitasining uslubiy-meyoriy ishlanmalaridan to'laqonli tarzda foydalanishni yo'lga qo'yish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq. Kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash maqsadida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirishga yo'l qo'ymaslik, kreditlar foiz stavkalarining keskin tebranishining oldini olish, muddati o'tgan kreditlar hajmidagi salmog'i ko'rsatkichining meyoriy darajasini ta'minlash kerak:

Yuqoridagi keltirilgan taklif va xulosalarni bank amaliyotida qo'llash aktiv operatsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirishi, shu bilan bir qatorda tijorat banklari rivojlanishini, barqarorligi va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining Yangi tahriri, T.: "O'zbekiston", 01.05. 2023 <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996.
4. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. Лаврушин О.И., Банковский менеджмент. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 560 стр.
6. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho'lpon, 2011. -328 bet.

BANK TIZIMIDA AN'ANAVIY OPERATSIYALAR ORQALI TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Norboyev Olimjon Xolmamatovich

QarshiDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank tizimida an'anaviy operatsiyalar orqali tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha mavjud holatlar tahlili va ularni hal etish muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat bank, bank tizimi, xizmatlar, innovatsiyalar, onlayn xizmatlar, CRM, FinTECH.

Jahonda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biribankning rivojlanish strategiyasini to'g'ri tanlashdir. Ayniqsa Global COVID-19 pandemiyasi sharoitida bank xizmatlaridan foydalanishning onlayn shakllari iste'molchilar tomonidan tezkor o'zlashtirilishi, banklarda mijozlar bilan ishlash jarayonlarida samarali innovatsion strategiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. «2020 yil davomida chakana bank mijozlarining qariyb 85 fozi onlayn bank xizmatlaridan foydalanishgan».¹

O'zbekistonda «banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda banklararo valyuta bozori «onlayn» platformaga o'tkazilishi va bank moliya bozorida raqobatni oshirish masalasi» belgilab olingan bo'lsada, tijorat banklarida raqobatbardoshlik darajasi pastligi va ularning mijozlarga xizmat ko'rsatish turlarining yetarlicha diversifikatsiyalanmaganligi, mavjud xizmatlarning esa samaradorligi va natijaviylik darajasi pastligi, tanlangan mijozlar to'lovlari bo'yicha kechiqishlar va boshqa muammolar banklarning rivojiga to'sqinlik qilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida: 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023 yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko'rib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat budjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab borilishi; Bunda, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi ko'zda tutilgan².

¹ World Fintech Report 2020. ©2020 Capgemini. www.capgemini.com.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992- sonli farmoni. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b.

Tijorat banklarida mijozlarga yo‘naltirilgan marketing siyosatini ishlab chiqish zarurati, avvalo, raqobatli bozorda mijozlarning ehtiyojlarini to‘liq qondirish va sof raqobat sharoitida daromad yaratish qobiliyatini uzoq muddat saqlashga yo‘naltirish imkoniyatini ifodalovchi strategik maqsadlarni belgilashga qaratiladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari bank tizimida mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish (CRM – customer relationship management) amaliyoti keng qo‘llanildi. CRM o‘z mohiyatiga asosan dasturiy mahsulot yoki texnologiya ham emas, balki «mijozga yo‘naltirilganlik» hamda biznesni doimiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadli strategiyani shakllantirishga asoslangan tamoyildir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo‘yicha maqsadli strategiyalar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko‘lamini kengaytirish, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko‘paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini beradi. Bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to‘laqonli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo‘jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarash lozim. Tijorat banklarining mijozlar bilan munosabatlarini boshqarish bo‘yicha qarorlarni qabul qilish bank menejmentining asosiy vazifasi hisoblanib, qaror qabul qilishga imkon beruvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizmdan foydalanish, qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi. Qaror qabul qilishning asoslilikini oshirish uchun tijorat bankining iste‘molchilar segmentlari va ular bilan doimiy ishlash borasida axborotlar bazasini shakllantirib borish lozim. Tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish va marketing siyosatini yuritishda segmentlash strategiyalari, bank xizmatlaridan mijozlar qoniqishini oshirishga yo‘naltirilgan strategiyalari, rag‘batlantiruvchi kommunikatsiya strategiyalari, mijozlar bilan munosabatlarda motivdan foydalanish, segmentlash strategiyalari eng muhim yo‘nalishlardir. Tijorat banklarida mijozlar bilan ishlash siyosatining iyerarxiyasi mijozlarga «sodiqlik dasturlari» deb nomlanuvchi strategiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bunday dastur bankning o‘z mijozlari bilan munosabatlarining muhim elementi hisoblanib, O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida foydalanish samarali marketing siyosatini yurishni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi bank xizmatlari bozorida tijorat banklari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yuzaga chiqarishga qaratilgan harakatlar mijozlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish va taqdim etilayotgan xizmat turlarini sifati va ko‘lamini oshirish bilan birga bank xizmatlari turini kengaytirib borish, mijozlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish siyosati asosiy yo‘nalishga aylangan. O‘zbekiston


bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti shiddat bilan shakllanayotganligi tijorat banklarida xizmatlari sifati va ko‘lamini oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirish muammosini qo‘ygan. Globallashuv jarayoni, raqobatbardoshlikning haddan ziyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini ham yuzaga keltirgan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda raqobat muhiti va dinamik o‘zgaruvchan bozor sharoitida O‘zbekiston tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda quyidagi vazifalarni hal etish muammolari mavjud: xalqaro moliya institutlarining mamlakatga kirib kelishi va zamonaviy onlayn bank xizmatlari yuzaga kelishi natijasida tijorat banklarining funksional vazifalarini tubdan o‘zgartirish va xalqaro bank xizmatlari bozoriga samarali integratsiyasini ta‘minlash; mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ular bilan samarali ishlash usullarini joriy etish va ta‘minlash yo‘li bilan har bir mijozga individual yondashish bilan standart texnologiyalar uyg‘unligiga asoslangan mijozlar bilan ishlashning yangi falsafasini joriy etish; bank sohasini diversifikatsiya qilish – banklar tomonidan taqdim etiluvchi xizmatlar turini kengaytirish va mablag‘larni qarz olishning (obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish) bankdan tashqari usullarini rivojlantirish; zamonaviy texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini rivojlantirish va natijada moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining mintaqaviy va milliy sohasini kengaytirish; mablag‘ jalb qilish sohasida ham, kredit xizmatlarini ko‘rsatish sohasidam bank tizimi ichida raqobatni rivojlantirish. davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq bank xizmatlari bozorida narxlar raqobatining cheklanishi, shuningdek, bankning foyda keltirmaydiganyuqori foiz stavkalari mavjudligi; menejment tizimini takomillashtirish va bank mahsuloti sifatini nazorat qilish va mahsulotni bozorga olib chiqish bo‘yicha samarali milliy marketing siyosatini ishlab chiqish. Innovatsiyalarning faol va tezkor amalga oshirilishi banklar raqobatbardoshligini oshirish, ularning xalqaro moliyaviy muhitga uyg‘un kirib borishiga yordam beradi. Moliyaviy texnologiyalarning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi nazariyasiga ko‘ra, birinchi bosqich «FinTech 1.0» davrida yetakchi rolni an‘anaviy institutlar, asosan mavjud texnologiyalardan foydalangan banklar egallagan bo‘lsa, keyingisi «FinTech 2.0» deb nomlangan bo‘lib, umumiy foydalanish uchun bankomatni joriy etish texnologiyalari tobora faolroq qo‘llanila boshlagan. Elektron bank va raqamlashtirish davrida hisoblangan FinTech 3.0 moliya bozorida innovatsiyalar esa bank xizmatlari ko‘rsatuvchi bozor subyektlari doirasidan chiqishgacha olib keldi. Bozor rivojlanishining zamonaviy bosqichini ajratib olishga ehtiyoj tobora ortib borishi prognozlangan, bu esa FinTech 4.0. hisoblanadi. Statistik tahlillarga ko‘ra, bank

xizmatlari eng rivojlangan mamlakatlar hisoblangan AQSH, Xitoy, Braziliya, Yaponiya va Hindiston singari mamlakatlarda dunyodagi bankomatlarning 50 %dan ortig'i joylashgan bo'lib, on-layn bank tendensiyalari rivojlanishi aynan bankomatlar soniga bog'liq degan xulosaga kelgan. Banklar tomonidan texnologik yechimlardan foydalanishning ko'p yillik tarixi ularning hozirgi kunda an'anaviy xizmat ko'rsatish sohalari orasida eng yaxshi innovatsiya sifatida tan olinishiga sababdir. Bu ularga yanada rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Dunyo bo'ylab bank bozori vakillari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ko'rsatuvchi ko'plab amaliy tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. So'nggi zamonaviy xizmat turlari sifatida sinergiya samarasini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi raqamlashtirish (ya'ni jarayonlarni avtomatlashtirish), shuningdek, iste'molchilar bilan munosabatlarni raqamlashtirish nuqtai nazaridan ham ko'rinadi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va bulutli texnologiyalardan keng foydalanish asosiy innovatsiyalardir. Bunday innovatsiyalar banklar tomonidan amalga oshirilayotgan so'nggi innovatsion tendensiyalardir. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin: - informatsion; - tranzaksion. Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari: Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi. Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning vebserverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi

bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega. Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda: to'lovlarni o'tkazish; to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish; barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo'ladi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi. SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni¹


1-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2012-2022 yillar holati o'rganilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 56735 kishi bo'lgan bo'lsa, 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra esa, 356 barobar ko'pni ya'ni, 20203384 kishini tashkil qilmoqda. Bundan xulosa qilsak bo'ladiki, ushbu tizimlardan foydalanish talabi juda ham ortib bormoqda. Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, budjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn

¹www.cbu.uz O'zR Markaziy banki ma'lumotlari

omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O‘z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi. Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari bank xizmatlari bozorida erkin raqobat muhitini ta‘minlashga qaratilmoqda va asosiy e‘tibor xorijiy bank filiallarini respublikamizda tashkil etishga qaratilmoqda.

2-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning turlari bo‘yicha 2016-2022 yillar holati o‘rganilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2016 yilda 81500 yuridik shaxslar hamda 979500 jismoniy shaxslar foydalangan bo‘lsa, 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra bu ko‘rsatkich 968600 yuridik shaxs hamda 19234800 jismoniy shaxsni tashkil qilmoqda. Bundan xulosa qilsak bo‘ladiki, ushbu tizimlardan foydalanish talabi juda ham ortib bormoqda.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (turlari bo‘yicha ming.)¹

¹ www.cbu.uz O‘zR Markaziy banki ma’lumotlari

Mahalliy tijorat banklari uchun yirik xorijiy kredit tashkilotlarining filiallariga nisbatan raqobatli imkoniyatlar yetarlicha emas. Ayniqsa, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish jarayonlarida bunday kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, mahalliy tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarish va mijozlar siyosatini o'zgartirish maqsadga muvofiqligi, xususan, uni umumiy boshqaruv tizimiga kiritish lozimligini belgilab beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tijorat banklarida mijozlar bilan ishlash bo'limining boshqaruv mexanizmi quyidagicha bloklarda o'z aksini topgan:

1) Mijoz to'g'risida ma'lumot, quyidagilarni aniqlashni o'z ichiga oladi: mijozning asosiy xususiyat va ko'rsatkichlari; biznesning tuzilishi; mijozlarni rivojlantirish yo'nalishlari; mijozning fikr-mulohazalari; mijoz biznesining xayotiylik davri; mijozlarning boshqa banklar bilan munosabatlari tarixi.

2) Qo'shimcha mezonlar bo'yicha mijozlarning yuqori darajada ixtisoslashgan guruhlashga yo'naltirilgan segmentatsiyasi, masalan: mijozlar hajmi; sohaga aloqadorligi; mijozning joriy daromadlari; mijoz va bank uchun ustuvorlik.

3) Xizmat ko'rsatish modeli: mijozlar menejerlari va mahsulot mutaxassislari vakolatlari tizimi; xizmat ko'rsatish sifatini oshirish tizimi.

4) Jarayonlar va mahsulotlar: sohaga bog'liq ravishda turli xil mijozlar uchun integral mahsulot yechimlarini ishlab chiqish; mijozlarga xizmat ko'rsatishning ochiq, sodda va ishonchli jarayoni; o'zaro ta'sir qilishning qulaykanallari.

5) Munosabatlar madaniyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: xodimlarning mentalitetidagi o'zgarishlar, ya'ni mijozlar xulq-atvori; xodimlarning malakasi va motivatsiyasi darajasi; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish dasturi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish orqali quyidagi muammolarini hal etish mumkin:

- banklarda xizmat ko'rsatish sifati va ularning raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi, masofaviy bank xizmati orqali vaqt cheklovi olib tashlanadi, ya'ni mijoz o'z hisobraqamini haftasiga yetti kun, kuniga yigirma to'rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo'linadi;

- zamonaviy interaktiv xizmat turlarida vaqt cheklovidan tashqari, mijozning geografik holatiga ham e'tibor berilmaydi. Bank mijozi, dunyoning istalgan nuqtasidan o'z tranzaksiyalarini o'tkazishi uchun imkoniyatlar yaratilib, tranzaksiyalar qisqarishi hisobiga raqobatbardoshlik oshadi;

- yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan uyg'unlashtirish va o'zaro integratsiyasini oshirish orqali banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshlik ko'rsatkichi oshishi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining Yangi tahriri, T.: "O'zbekiston", 01.05. 2023 <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996.
4. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. Лаврушин О.И., Банковский менеджмент. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 560 стр.
6. Rashibov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho'lpon, 2011. -328 bet.
7. www.cbu.uz

HUQUQ DARSLIK LARI VA ULARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Yakubjonov Nuriddin Ravshan o‘g‘li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
nuriddinyakubjonov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquq darsliklari ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, bugungi kunda o‘quvchilarning huquqiy bilimini oshirish qaratilgan chora-tadbirlar haqida.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyatni, axborot, texnologiya, QR-kod.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о современных требованиях к учебникам права, мерах, направленных на повышение правовых знаний учащихся сегодня.

Ключевые слова: образование, обучение, право, правосознание, правовая культура, информация, технология, QR-код.

ABSTRACT

This article is about modern requirements for law textbooks, measures aimed at increasing the legal knowledge of students today.

Key words: education, training, law, legal consciousness, legal culture, information, technology, QR-code.

Bugungi zamonaviy ta‘lim tizimida huquq fanlari o‘qitish ilim-fan taraqqiyoti natijalari, shuningdek zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi huquq darsliklarini yangilanib borishiga olib kelmoqda. Zamonaviy huquq darsliklari o‘quvchilarni bilimlarni tez va oson o‘zlashtirishga, ularni mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni takomillashtirish, o‘quvchilarni egallagan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishini ta‘minlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-mart 2022 yildagi PF-89-son Farmoniga asosan Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda huquqiy

xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi dasturining 38-bandida, Xorijiy olimlarni jalb etgan holda yangi avlod darsliklarini yaratish. Bunda darslikni yozishda mavzularni o'zlashtirish oson bo'lishi uchun yangicha usul, jumladan zamonaviy axborot-texnologiyalari imkoniyatlari va QR-kodlardan foydalanish to'g'risida kompleks chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Ta'lim tizimining sifatini oshirish maqsadida:

- yuridik adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish;
- shakllantirilgan ro'yxat asosida yuridik adabiyotlarni tayyorlash va to'plash;
- “Yuridik kutubxona” elektron tizimini joriy qilish¹.

Huquqiy darslik ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z darsliklari bo'ladi. Darslik nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi. Bunda o'quvchilarga mustaqila izlanishlari uchun topshiriqlar, turli-xil metodlar yordamida mavzuni mustahkamlash va nazorat savollari, egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish uchun test savollari beriladi.

O'quv adabiyotlarining shakli va turlari.

O'quv adabiyotlari oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik ma'lumotlar ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, jahon tajribalari asosida tizimli bayon etilgan nashr bo'lib, asosan ikki xil shaklda tayyorlanadi: an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari va elektron o'quv adabiyotlari.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari — ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, o'quv materiallari va ma'lumotlar hajmi, shriftlar, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda matbaa usulida tayyorlanib chop etilgan nashr;

Elektron o'quv adabiyotlari — zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron majmua².

Darslik-o'quv fani, uning biror yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o'quv dasturiga mos holda, yuqori ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o'quv mahsulotidir.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5914998>

² <https://lex.uz/docs/-3970451>

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqirlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarining quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, lektsiyalar kursi, lektsiyalar to'plami, metodik ko'rsatma, metodik qo'llanma, sharh, dayjest, elektron darslik, ma'lumotlar banki va boshqalar.

Huquqiy elektron darslik - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovoqli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Hozirgi kunda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan QR-kodli huquq darsliklar yaratilmoqda bunda o'quvchilarni bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. QR-kod mazmun-mohiyatiga asosan ingliz tilidan olingan bo'lib, "QuickResponse" so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi va "tezkor javob" ma'nosini bildiradi. *Unda oddiy matn, audio yozuvlar, video roliklar, 3D formatdagi shakllar va boshqa shu kabi boshqa internet resurslari bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda kameraga ega zamonaviy telefonlar kvadrat ko'rinishdagi tasvir ostida yashiringan ma'lumotlarni oson o'qish imkoniyatini beradi.*

QR-koddan foydalanishning afzalliklari:

- darslikka elektron resurslarni bog'lash imkoniyatini yaratadi;
- darslikning o'qishligini oshiradi, darslik sahifalarining ixchamlashishiga olib keladi va o'quvchi qiziqishini orttiradi;
- ushbu turdagi kodlashning ommabopligi, birinchi navbatda, texnologiyalarning rivojlanishi, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va telefonlarning keng tarqalgani. Bunda QR-kodni o'qish uchun kompyuter texnologiyalari va mobil telefonga "QR Code Reader" dasturi o'rnatilgan bo'lishi kifoya;
- darslikni nafaqat boyitadi, shu bilan birga keyingi chop etilgunicha o'tadigan 5 yil davomida bo'ladigan o'zgarishlarni davriy ravishda internet resurslari hisobiga to'ldirib borish imkoniyatini yaratadi;

— darslikka kiritilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarga oid qo‘shimcha internet manbalaridan foydalanish imkonini beradi;

— o‘quvchilarni qo‘shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shaklida xabardor qilib borishni ta‘minlaydi;

— darsliklarga ilova qilinadigan multimedialar uchun sarflanayotgan mablag‘larning iqtisod qilinishiga erishiladi¹.

Ma‘lumotlar banki - axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta‘minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o‘z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko‘rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o‘quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o‘z ustida mustaqil ishlashi va o‘z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo‘llaniladigan, doimiy ravishda to‘ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo‘ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plami.

O‘quv qo‘llanma - darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o‘zlashtirilishini ta‘minlovchi, ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlar yechimiga mo‘ljallangan nashr hisoblanadi. Huquq fanlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O‘quv qo‘llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi.

Lug‘at - aniq bir tartibda joylashgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi, idiomalar va hokazo) to‘plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi yoki so‘zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug‘at - so‘zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so‘zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo‘llashga oid misollar va boshqa ma‘lumotlar keltirilgan, qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ma‘lumotlar to‘plami - foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta‘lim yo‘nalishini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan, isbot talab qilmaydigan ma‘lumotlar, ilmiy ko‘rsatkich va o‘lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi qisqa ma‘lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma‘lumotlar to‘plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi lozim.

Leksiyalar kursi - fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan,

¹ <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3995.htm>

foydalaniladigan asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar ko‘rsatilgan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama hamda iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

Leksiyalar to‘plami - muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar ko‘rsatilgan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta‘lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo‘yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) ko‘rsatma - muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta‘lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo‘llanma - o‘qituvchilar (professor-o‘qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta‘lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr. Sharh - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g‘oyalarni, fikrlarni va ta‘riflarni izohlovchi, muayyan masalalar yechimini ko‘rsatuvchi, keng ommaga mo‘ljallangan qo‘shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Dayjest - ilmiy, ilmiy-uslubiy, o‘quv, davriy adabiyotlar, davlat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma‘lumotlar to‘plami sifatida foydalaniladigan davriy nashr.

O‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan talablar.

Huquq adabiyotlar, ta‘lim turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat’iy nazar barcha o‘quv adabiyotlar quyidagi umumiy talablarga javob berishi kerak:

- davlat ta‘lim standartlari (davlat talablari) asosida tayyorlanishi;
- ta‘lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o‘qitishning interaktiv uslublarini tatbiq qilishda ko‘mak berishi;
- tegishli o‘quv fanining nazariy amaliy rivojlanishida, uzoq va yaqin o‘tmishdagi boy intellektual merosimizning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishi;

- intellektual insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o'ta mas'uliyatligini anglatishga qaratilishi;
- vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlashi;
- bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, qiziqish uyg'ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi;
- bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otishi;
- yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar, va hokazo) dan tashkil topishi;
- illyustratsiyalarga boy, ko'rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lishi;
- bilim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishi; bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;
- ta'lim oluvchilarning bilimi, uquvi va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ta'lim va tarbiyani ijtimoiy hayot, unumli mehnat bilan uzviy bog'lanishiga e'tibor berishi;
- fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi, ilmiy masalalarning mantiqiy ketma-ketlikda, fanning o'quv dasturiga muvofiq bayon etilishi;
- yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi;
- matn jozibali shaklda bayon etilishi.

Asosiy tushuncha va xulosalarning ta'riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiyligiga erishish. Sanab o'tilganlardan tashqari har bir ta'lim turining o'quv adabiyotlariga o'ziga xos bo'lgan talablar qo'yiladi¹.

Adliya vazirligi tomonidan vakolatli va manfaatdor davlat organlarini jalb etgan holda **“Huquqiy fanlarga oid yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha “yo'l xarita”si** ishlab chiqilmoqda.

Ushbu “yo'l xarita”da yuridik ta'lim va adabiyotlarni takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ularning dolzarblari sifatida quyidagilarni sanab o'tish o'rinli:

- birinchidan, nufuzli xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari huquqiy fanlarning o'quv rejasi, o'quv dasturlari hamda huquqiy ta'limga oid o'quvchilarning

¹ O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov PEDAGOGIKA TOSHKENT - «TALQIN» - 2008

tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish;

— ikkinchidan, darsliklar tanqidiy nuqtai nazardan qayta tahrir etilib, professional muallif (pedagog, huquqshunos, filolog, psixolog va rassom-dizayner)lar tarkibini tuzgan holda yangi darslik yaratish va soha mutaxassislarining ijobiy taqrizlari asosida nashr etish;

— uchinchidan, o'quvchi-yoshlarga huquqiy ta'lim berish, milliy huquq tizimi to'g'risidagi tasavvurlarni uyg'otish maqsadida maktablarda huquqiy fanlarni huquqshunos mutaxassislar tomonidan olib borilishi choralari ko'rish;

— to'rtinchidan, huquqshunos hamda pedagog olimlar bilan hamkorlikda huquqiy ta'limda bir xil yondashuvni ta'minlash uchun **"Huquqiy fanlarni o'qitishning zamonaviy usul va vositalari bo'yicha uslubiy qo'llanma"** ishlab chiqish masalalari belgilangan¹.

Huquqiy ta'lim shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumiy yuridik prinsiplar va normalarni anglab yetishga yo'naltiradi.

Huquqiy ongni shakllantirish ko'p jihatdan huquqiy ta'limga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son [Farmonida](#) Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, bundan kutilgan maqsad:

— fuqaro, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, shaxsiy ehtiyojlar hamda jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatning saqlanishini ta'minlash;

— bola va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarni va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta'lim-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

— huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

— mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqqa bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash².

Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda

¹ <https://daryo.uz/2018/10/14/adliya-vazirligi-maktablarda-huquqiy-fanlardan-otilayotgan-darsliklarning-mazmuni-qoniqarsiz>

² <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>

qo'llash, huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish uchun huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirishni asosiy vazifa qilib belgilangan.

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida olib borilayotgan demokratik islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad - adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik huquqiy davlat barpo etishdir.

Aholining, ayniqsa, yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini hamda konstitutsiyaviy-huquqiy bilimlarini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va islohotlar samaradorligining muhim shartidir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyani tizimini uzluksiz davom ettirish huquqiy savodxonlik, o'quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish har jihatdan ta'lim tizimidagi huquqiy fanlar ko'lami va ularni sifatli huquqiy darsliklar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liqdir, jahon ta'lim tizimi va milliy qadriyatlarimiz asosida yangi o'quv darsliklar yaratish, o'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va bilim darajasini oshirishga katta e'tibor qaratish lozim kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5914998>
2. <https://lex.uz/docs/-3970451>
3. O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov PEDAGOGIKA TOSHKENT - «TALQIN» - 2008.
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3995.htm>
5. <https://daryo.uz/2018/10/14/adliya-vazirligi-maktablarda-huquqiy-fanlardan-otilayotgan-darsliklarning-mazmuni-qoniqarsiz>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>

YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi

huquq fani o‘qituvchisi

Farhod.yangiboyev@list.ru

“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz” [1,B.261].

*O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni, shu sohani rivojlantirish qanchalik darajada muhim ekanligi, shuningdek, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani va qabul qilingan normative huquqiy hujjatlar mazmun mohiyati va Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyotini yuksaltirish uchun taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, huquq, g‘oyaviy kurashlar, jaholat, ma’rifat, vatanparvarlik, taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlar, bunyodkor g‘oyalar.

Bugun mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ydi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat davlat siyosatida ustuvor sohaga ko‘tarildi va u o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda.

Manaviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch. Hurmat va e‘tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma‘naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy – ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha ustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, mustaqillik yillarida ayniqsa, so‘ngi besh – olti yilda bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, mamlakatimizda inson erkin va farovon yahsaydigan ma‘naviy makon, ma‘rifatli jamiyat qurish uchun qat‘iyat bilan harakat qilinmoqda. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelinmasin, shu maqsadda boshlagan barcha islohatlar izchil davom etib kelmoqda. Milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirish, uni, yoshlarimiz hayotiga singdirish borasida keying yillarda bir qator narmativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori [2];

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 31- dekabrda 1059-son qarori [3];

Uchinchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tundan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarorlari qabul qilindi [4].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” deb nomlangan kitobida ham ma‘naviy taraqqiyot masalasiga alohida to‘xtalib, “Biz yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga ma‘naviy, ma‘rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohatlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yahshi anglaymiz” deb ta‘kidlaydi [5,B.261].

Ma‘lumki, jismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan kamol topdirish g‘oyat murakkab vazifa. Ayniqsa, bugungu kunda – g‘oyaviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san‘at, adabiyot va bad‘iy ijod sohalarining ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotdagi ta‘sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish talab qilinmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat yengilamas kuch” asarida takidlanganidek: “Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o‘tgan

murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch, osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviyat yuksalishi uchun imkoniyatlar tug'iladi" [6,B.28-29]. Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch qudrat manbai sanaladi. Ma'naviyatsiz hech qachon jamiyatda odamiylik va mehr oqibat, baxt va soadat bo'lmaydi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muommalarni ma'naviyatni rivojlantirishimiz, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda yuksak ma'naviyat bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, yovuzlik, poraxo'rlik, o'z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar hamda ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-ma'rifiy islohatlarga alohida e'tibor qaratilayotganligiga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- mamlakatimizda ma'naviy-marifiy ishlarni tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;
- aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyo qarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash;
- vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish;
- jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan hozirgi davrda yoshlar orasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shib qolish holatlari oldini olish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirish;
- ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish;
- davlat va jamoat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish;
- aholi orasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;
- "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'bot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;
- aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratisa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI. –T.: “O‘ZBEKISTON”, 2022. -B.261.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040- sonli Qarori.
5. Shavkat Mirziyoyev. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI. –T.: “O‘ZBEKISTON”, 2022. -B.261.
6. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. -T.: “Ma’naviyat”, 2008. -B.28-29.

O‘ZBEK TILI VA INGLIZ TILIDA SO‘Z YASALISH TURLARI

Allayarova Go‘zal Nuritdinovna

(NavDPI o‘qituvchi)

Shokirova Shaxrizoda Abdulaziz qizi

(NavDPI talaba)

***Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishi hodisasi, uning nuqtai nazari ko‘rsatib o‘tilgan, so‘z yasalishining har ikkala tildagi ahamiyati, buyuk olimlarning fikrlari va o‘xshash va farqli tomonlari paydo bo‘lgan.*

***Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, leksikologiya, affiksatsiya, affiksial morfema, morfemika, morfologiya.*

Barchaga ma’lumki, biror bir tilda aniq va ravon gapirish yoki yozish uchun o‘sha tilning so‘z yasalishini(grammatikasini) bilish kerakdir. Tilshunoslikda grammatikaga asoslangan so‘z yasalishi jarayonii muammolardan biri bo‘lib, bugungi kungacha o‘z murakkabligini yo‘qotmagan holda munozara bo‘lib keladi. Tilda mavjud bo‘lgan imkoniyatlar va materiallar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish bu so‘z yasalishidir. Til leksikasi lug‘aviy ma’nolarning o‘zlashtirish, so‘z yasalishi va yangi so‘zlar hosil olishi hisobiga muntazam boyib ketadi. Biri boshqasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan bu jarayon ayni o‘rinda til taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ularning o‘zaro munosabatdoshligi, tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar so‘z o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, so‘z o‘zlashtirish lug‘aviy birliklar ma’nosini farqlashda muhim rol o‘ynaydi. Lug‘aviy birlik mazmunlarining paydo bo‘layotgan yangi so‘zning ma’nosiga zid bo‘lmagan ma’nolar o‘zlashtirishga (imkoniyat) vujudga keladi.

Necha asrlardan beri bizga ma’luki, so‘z yasalishi oddiy, soddadek ko‘rinsada, ammo uning obyektiv va sub’ektiv tahlili nihoyatda boy bo‘lgan sababli, tilshunoslikdan tashqari barcha sohada ham juda murakkabdir. Sababi undagi aniq ishlarni bevosita til faktlari tahlili orqali o‘z isbotini topishi kerak bo‘ladi. Shu sabablarga ko‘ra so‘z yasalish hodisasini olimlar ba’zan morfologiyaga aniqlashsa, ba’zan leksikologiya sohasiga tegishli deb kelishadi. Juda ko‘p ilmiy asarlarda so‘z yasalishi grammatikasiga tegishli bo‘lsa, boshqa bir adabiyotlarda esa leksikologiyaning bir qismi sifatida tatbiq etiladi. So‘z yasalishi hodisasini leksikologiya bo‘limiga kiritgan olimlar A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, T.I.Arbekova

kabilarning ishlarini yuqoridagi masalalarning isbot sifatida aytib o‘tish joizdir. Ingliz tilida so‘z yasalihi mavzusi H.Marchand, L.Bauer, A.Xatcher, A.I.Smirnitskiy, Z.A.Xaritonchik, O.D.Meshkov, A.N.Ilina kabi qator tilshunoslar aniqlangan.

So‘z yasalihi termini ikki ma‘noda qo‘llanadi: 1) umuman, so‘z yasalihi, til materiali asosida yangi so‘z hosil bo‘lish hodisasini bildiradi; 2) tilshunoslikning so‘z yasalihi bilan bog‘liq hodisalarini, masalalarini o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi. Har bir tilning boshqa sohalari, masalan, morfologiya, sintaksis sohalari o‘z sistemasiga ega bo‘lgan kabi, uning so‘z yasalihi ham o‘z sistemasiga ega. Aynan shu sistema so‘z yasalihi bo‘limida tahlil qiladi.

So‘z yasalihi bu boshqa so‘zlar asosida yangidan yangi so‘zlarning yasalihi anglanadi. Bu esa yangi nomni yaratish yoki ixtiro qilish deb ataladi. Har qanday til har doim yangi so‘zlarga muhtoj bo‘ladi. Bu texnologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq sababdir. Yangi tuzilmalar va o‘zgarishlar sababli til yangi so‘zlarni olishi yoki bo‘lmasa birlashtirishi kerak. Chunki yangi texnologiya yangi so‘zlarni o‘ziga talab qiladi. Bu ba‘zan so‘zning turini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha shakllarga, masalan, morfologiyani o‘z ichiga olgan qo‘shimchalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bir so‘zdagi morfologik farq bilan boshqa atamaning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi qarama-qarshilik juda oddiy ko‘rinishda bo‘lsa ham, aralashish hali morfologik o‘zgarishmi yoki yasashmi degan savol tug‘iladi. So‘zlarni yasalihi bo‘yicha turli xil usullar bor. Ular hech qanday munozaralarni qo‘zg‘atmaydi va ko‘pchilik dialektlardagi kabi bir xildir. O‘zbek tilida so‘z yasalihi usullariga affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik usullar kirishi barchamizga ma‘lum. So‘zga so‘z yasovchi affiks qo‘shish bilan yangi so‘z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan: bilim+li, maza+li, sinf+dosh. Birdan ortiq mustaqil ma‘noli so‘z yoki so‘z shakllarining qo‘shiluvini, birikuvi orqali yangi so‘z yasash kompozitsiya usuli bilan so‘z yasash deyiladi. Masalan: hozir-javob, asal+ari, rahm+dil. So‘z yasalihi esa tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, u ikki xil ma‘noda qo‘llanilishi mumkin:

- 1) umuman yangi leksik ma‘noli so‘z hosil qilish;
- 2) tilshunoslikning so‘z yasalihi bilan bog‘liq hodisalarini o‘rganuvchi bo‘limini bildiradi;

So‘z yasalihi qanday vosita, qanday usul bilan bo‘lmasin yangi leksik ma‘noli so‘z hosil qilish demakdir. Ingliz tilida so‘z yasalihi ba‘zan semantik o‘zgarishlarga qiyoslanadi. So‘z yasashning to‘rtta asosiy turi mavjud: prefikslar, suffikslar, konversiya va birikmalar. Konvertatsiya bu so‘zning bir so‘z turkumidan ikkinchisiga o‘zgarishini o‘z ichiga oladigan hodisa. Ya‘ni ot fe‘lga aylanadi – butter, vacation, bottle. Fe‘llar otlarga aylanadi – guess, spy kabi sozlar. Frazali fe‘llar otga aylanadi –

to print out, to take over. Fe'llar sifatlarga aylanadi – to see through, to stand up. Prefikslar - bu boshqa ma'noli yangi so'z yaratish uchun so'z boshiga qo'shadigan qo'shimchalar hisoblanadi. Shuningdek, ular so'zni salbiy yoki vaqt, joy yoki uslub munosabatlarini ifodalashi mumkin. Mana bir nechta misollar: believable-unbelievable, true-untrue, acceptable-unacceptable, possible-impossible, certain-uncertain. Suffikslar – bu so'z oxirida qo'shiladigan harf yoki harflar guruhi bo'lib, yangi so'z hosil qiladi. Masalan: familiar, joyful, noticeable, unstandable, responsible, accurate.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qanday uslub bilan bo'lsada, yangi so'z hosil qilish bu so'z yasalishi deyiladi. Biror bir til oldindan mavjud bo'lgan imkoniyatlar bilangina chegaralanib qolmasligi barchamizga malumdur. Chunki jamiyatning ijtimoiy hayotida, ishlab chiqarish ishlab chiqarish, xo'jalik, kundalik hayotda yangi narsalar, ma'naviy, madaniy, mafkuraviy sohalarida yangi urinishlar, ularning paydo bo'lishi, ijtimoiy yangilikni ifodalash bo'yicha paydo bo'lib turadi. Til mana shu kommunikativ talabni rivojlantirish uchun o'zga tillardan so'z o'z tuzilishi yoki o'zida mavjud ichki joylardan yangi so'zlar hosil qiladi. Mana shunday ehtiyoj obyektiv ravishdagi tilda yangi so'zlarni talab qiladi. Qaysi tilda bo'lmasin so'zlarning yasalishi, ularni to'g'ri qo'llay bilish biz uchun muhim va keraklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y. Djurayeva, R. Ayatov, A. Shegay - "Ingliz tili grammatikasini o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari", Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar-2020
2. X. Abdurahmonov – "Ozbek tilining amaliy grammatikasi", -T.: Oqituvchi 1992.
3. M.Ruzmetova, F.Orazova, G.Qayumova- "Ingliz tilida lug'at kompetensiyasini o'rgatishning roli", - Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar-2020
4. B.A. Kaushanskiy- "A grammar of the English Language", -1997
5. G. Krivosheyeva, S.Zuparova, N.Shodiyeva- "TINGLASH QO'LLANISHNI O'QITISHNING INTERFAOL YO'LLARI", - Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar-2020
6. B.A. Khasanov, U.T.Eshboev, R.B.Hasanova, Z.A.Mukumov, A.I. Alikulov, A.B.Djumanova "Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process", - International Journal of Advanced Science and Technology-2019
7. Sh.Rahmatullayev- "Hozirgi o'zbek adabiy tili", - Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006.
8. M.G'aprov, R.Qosimova "Ingliz tili grammatikasi", – Toshkent: Turon iqbol, 2010.

MAJOZ VA HAQIQAT MUNOSABATIDA AYOL OBRAZINING IRFONIIY VAZIFASI

Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodiyoti, ayol obrazining irfoniyy vazifasi, talqini va uning ahamiyati haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: majoz, payg'ambar, ishq, botin, zohir, irfon, badiiy vositalar, obrazlar, nafs.

Ayol-timsol va poetik obraz sifatida Alisher Navoiy she'rlarida keng tadbiiq etilgan. Har ikkala ya'ni majoz va haqiqat munosabatida ayol obrazi beqiyos o'rin egallagan. Shoir majozda inson olamining botini(ichki)ni ifodalaydi. Ya'ni olloh qalbimizda, yuragimizdadir. Ayolni sevish orqali inson kamolotga erishadi, yangilanadi va oshiq natijada ishq haqiqiyga ya'ni ollohni tanishga erishadi. Chunki u ma'shuqasiga erishish uchun ollohga iltijo qiladi. Uni ollohdan so'raydi. Shu tariqa inson ishq orqali mashaqqat chekib o'zligini anglaydi. Bu anglash markazida Navoiy o'z lirikasida, albatta, ayol obrazini misol sifatida keltiradi.

Navoiy bir qit'asida yozadi:

Ey Navoiy, ko'p majozii ishq ila ma'shufsan,

O'tkil andin, dog'i yon ishqii haqiqat sori bot.

Ikkisidin garchi oshiq o'lmaki lozim kelur,

Bori ul o'lmakki, bo'lg'ay zimmida yuz ming hayot.

Bu she'rdagi majozii ishq bilan ma'shufsan degan "tanbeh"ning o'ziyoq, Navoiyning lirik qahramoni ko'nglida majozii ishq, ya'ni, hayotga, hayot go'zalliklariga, ma'shuqa va uning betakror husnu jamoliga, fazilat va kamolotiga muhabbat ustunlik qilganligidan dalolat. Qolaversa, navoiyshunos Yo.Is'hoqov haqqoniy ta'kidlaganidek, Navoiy ijodida "majozii ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Balki majozii ishq ishqii haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bir bosqich sifatida baholanadi". Umuman, har ikkala ishqning ham mahzani-ko'ngil. Ishq ko'ngilda tug'iladi va shunda yashaydi. Shu bois ko'ngil dardu balo, azobu uqubatga muhtalo bo'ladi:

Dardu balovu g'ussani ko'nglum aro keturdi ishq,

Do'stlarin birav kabikim tilagay visoqiga (486), -

ya'ni birov do'stlarini uyiga taklif etgandek, ishq ko'nglimga dard, balo, g'ussani keltirdi, - deya zorlanadi.

Ba'zan ko'ngildagi ishqning nolasi falakkacha yetadi, oshiqning tanu so'ngaklarini-da o'rtaydi:

*Ko'ngul ichra shu'layi ishqkim, yetadur falakka zaborasi,
Tanimu so'ngaklarim ul o'tungni yoqarg'a xoru xas aylading (298).*

Ba'zan esa, ishq vodiysiga tushgan ko'ngil bu yo'lda xonumonni ham unutib, ovoralik kasb etadi:

*Ko'ngul to vodiyi ishqig'a tushti, qilmadi bir ham,
Vatanni yod ul ovvorayi bexonumon hargiz (206).*

Har bir poetik obraz ramziy-majoziy belgi va ranglari bilan ajralib turadi. Ular o'sha obrazning ma'no-mohiyatini to'g'ri anglash va talqin qilishga yaqindan yordam beradi. "Lirik qahramon va uning kechinmalari tasvirining ham bir qancha jihatlari bo'ladi. Bular: sog'inch, iztirob, ishonch, zoriqish, qo'msash va boshqalar. Oshiq (lirik qahramon) obrazi ma'shuqa obrazi bilan o'zaro aloqadorlikda yaratiladi. Lirik qahramon ma'shuqaning beqiyos go'zalligini eslab sog'inadi, uning e'tiborsizligidan, vafosizligidan iztirob chekadi, ko'z yosh to'kadi". Lirik qahramon hayoti, orzuniyatlarini, iztirob va dardlarini anglashda, avvalo, uning ko'ngil hayoti va holiga diqqat etish lozim. Ko'ngil holatidan oshiqning ichki, botiniy tuyg'ulari, ishqda qaysi darajada ilgarilaganini bilish mumkin.¹

Alisher Navoiy ayolga muhabbati izhorini oshiq ko'ngliga murojaati orqali tushunushimiz mumkin. Shoirning bir nechta ko'ngil radifli g'azallarini uchramiz. Uning "Badoye ul-bidoya" devonidan "ko'ngul" radifli o'nta g'azal o'rin olgan. Masalan:

*Ey Navoiy, istasang bo'lmoq zamiring lavhi pok,
May suyin kelturkim, g'ayr naqshidin yu(v)li (564),*

Yoki:

*Qadah quyoshi bila ravshan ayla xotirni,
Chu aylasangki, falak zulmidin zalolati bor (180),-*

kabi baytlardagi zamir va xotir ko'ngil ma'nosidir. Chunki zamirning (ko'pligi zamoir) ich, yurak, ko'ngil, dil; xotirning o'y, fikr, ko'ngil (xotiri mahzun-qayg'uli ko'ngil) mazmunida ishlatilishi lug'atlarda ham qayd etiladi.

Chin oshiqqa yordan har qancha azob yetmasin, u bir lahza ham undan kechmaydi, aksincha, avvalgidan-da ortiqroq oshiq bo'lishini istaydi.

*Qilma tark evrulmak ul gul girdig'a bulbul kibi,
Qilsalar gar g'unchadek parkand-parkand, ey ko'ngul.*

¹ Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. Dissertatsiya. Toshkent. 2002. 88-bet

Oshiq jismiga ozor yetishidan qo‘rqmaydi, uni g‘unchadek “parkand-parkand” qilsalar ham Guldan ayirmasalar bas. Zero, oshiq yorsiz bir lahza ham yashay olmasligi barchaga ayon. Bu o‘rinda shoir an’anaviy tashbehdan foydalanib, “Ey ko‘ngul, agar g‘unchadek bo‘lak-bo‘lak etsalar ham, ul gul atrofidan bulbuldek aylanishni tark etma”, - deb uqtiradi.

*Orazu la’li xayoli birla sen to xactasen,
Naf’ etar go’yoki bu za’fingg’a gulqand, ey ko‘ngul.*

Lirik qahramon yor chehrasi va labining xayoli ishtiyoqida xasta. Buning da’vosi nima? O‘likka jon bag‘ishlovchi yorning lablari. Mumtoz she’riyatimizdagi an’anaviy tushuncha – yor labining jonbaxshligi bu o‘rinda ham o‘z mazmunida saqlanib qolgan. Oshiqning xasta ko‘nglini davolashga qodir Yor kim? Keyingi baytlarga e’tibor bersak, bu so‘roqqa javob topishimiz mumkin:

*La’li ne kondindurur, nevchun hadis etmas dema,
Ne ato border Masihog’a, ne farzand, ey ko‘ngul.*

Bu bayt talmeh san’ati asosida yaratilgan. Unda yorning “la’li ne kondin” ekanligiga e’tibor tortilib, bu “muammoi Masih” taqdiri vositasida hal etilgan. Chunki Iso payg‘ambarning otasiz tug‘ilgan va farzandi bo‘lmagani uning Masihligiga mone’lik qilmagan.

Ishq masalasi-Navoiy she’riyatidagi juda murakkab, munozarali va serqirra masala. Uni anglash va hal qilish oson ko‘rinsa ham, mohiyatiga yetish oson emas. Keyingi paytlarda Navoiy she’rlarining ko‘pchiligida ilohiy ishq, tuyg‘u va haqiqatlari tasvirlangan, degan fikrlar bayon etildi. Lekin bunday da’volarni qo‘llash ham, ularni to‘g‘ri deb bilish ham haqiqatga muvofiq kelmaydi.¹

Navoiy lirikasida ayol obrazidan tashqari oshiq, yor, rind, raqib, shayx, zohid, voiz, podsho va boshqa obrazlar ham bor. Oshiq va yor obrazlarida samimiy sevgi, sadoqat, vafo va boshqa ezgu insoniy xislatlar tarannum qilinadi. Navoiy xo‘rlangan, jabrlangan xotin-qizlarni e’zozlaydi, sharaflaydi.

Navoiyning ulug‘ iste’dodi tufayli an’anaviy mavzu, badiiy ifoda va obrazlar yangicha ruh, yangicha ma’no kasb etadi. Chunki Yo.Ishoqov ta’kidlaganidek, Navoiy lirikasining ildizlari milliy zaminida tarbiya topib, o‘sib chiqdi va o‘z taraqqiyotida o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyotning tajribalari bilan bir qatorda, fors-tojik poeziyasining yutuqlaridan ham oziqlandi, ulardagi eng yaxshi traditsiyalarni o‘ziga singdirib, yangi va yuqori bosqichga ko‘tardi.

Navoiy g‘azallarining shoir biografiyasi, shaxsiyati bilan bog‘langan o‘rinlarida shoir obrazi juda murakkab, lekin chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi, umumlashma obraz darajasiga ko‘tariladi (har qanday shoir ham o‘z davrining

¹ Haqqulov Ko‘nglumni g‘amu dard ila qon ayladi ishq.Ishonch. 2001. 23-fevral

odamidir). Agar shoir chinakam talantga ega bo‘lib, davrining ruhi bilan yashagan bo‘lsa, u o‘z shaxsiy kechinmalarini ham umumjamiyat ahamiyati darajasiga ko‘tarib kuylaydi. Navoiy o‘z intim kechinmalarini shu xilda umumlashtira bilgan edi. Buning uchun quyidagi g‘azalni ko‘zdan kechiraylik:

*Bor edi, ul hamki, bir chog‘, bizga yore bor edi,
Kulli ar yor o‘lmasa, filjumla bore yor edi.
Vaslidin butkarmasa, taskin berur erdi so‘rub,
Xasta ko‘nglum dardini kim, hajridin afgor edi.
Men agar mahrum edim, mahram ham ermas edi ul,
Ko‘nglum ar ozurda erdi, lek minnatdor edi.
Sham‘agar yorutmasa, kuydurmasa ham yaxshidur.
Ne ulusqa ulfat ondin, ne menga ozor edi.
Go‘yiyo shukr etmadimkin, onsiz o‘lmishmen bu dam,
Ul quyoshimni yoshurgan charxi kajraftor edi...*

Shoir bunda o‘zining ham bir vaqtlar yori bo‘lganini eslaydi.

Shoir o‘zining g‘azallarida majoz va haqiat munosabatlarini o‘zaro ranglarda ham ifodalab bergan. Ushbu g‘azalga e‘tiborimizni qaratsak,

*Jilvamu aylar qizil to‘n birla har yon ul pari,
Yo magarkim lolazor ichra kezar kabki dari?
Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,
Bir yo‘li devonalar qonig‘a kirmish ul pari.
Hullasin xunoblig‘ jon rishtasidin qildi charx,
Bo‘ldi jonlar joni, vah-vah, ul parivash paykari.
Orazing naqshimidur qonlig‘ ko‘ngulda jilvagar,
Yo shafaqdin bo‘ldi tole‘ oftobi xovariy.
Ich shafaqgun mayki, gardun qotiledurkim, erur
Yangi oy birla shafaq tig‘u libosi ahmariy.
Qon uza ko‘nglum yuzung shavqidin andoq xastadur,
Kim erur gulgun harir ollida oning bistari.
Ul pari la‘lida joning, ey Navoiy bo‘ldi mahv,
La‘lgun kisvatda mahv etgandek o‘zni ul pari.*

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 576-g‘azal)

G‘azalda qizil to‘n kiygan jononning pariday nozikligi, gul sayriga chiqib javlon urishi, jilvalar qilishi va bu lolazor oralab yurgan tog‘ kakligi (kaklikning bo‘yin patlari, qanotlari usti qizg‘ish rangda bo‘ladi)ga o‘xshab ketishi tasvirlanadi, ya‘ni “qizil libos kiygan jonon lolazor saylida” degan bir chiroyli surat o‘quvchi ko‘z

oldida gavdalantiriladi. Demak, boshqa gʻazalarda boʻlganiday, bu gʻazalda ham Alisher Navoiyning manzara, oʻziga xos bir lavha yaratish va shu lavhaning oshiq diliga xilma-xil taʼsirlarini tasvirlash mahorati koʻzga tashlanadi. Bu gʻazalda markaziy tashbeh yoki kalit soʻz-bu qizil toʻn.

Qizil libosli jononning xatti-harakati, jilva-karashmasini koʻrsatish koʻproq nazarga tushadi. Birinchi baytda jonon pariga oʻxshatiladi. Pari nima? Pari-ruh, xalq tasavvuri boʻyicha u goh koʻrinadi, goh koʻrinmaydi, chunki u-samoviy xilqat. Mashuq pariga oʻxshatilar ekan, demak uning nihoyatda nozikligiga ishora qilinmoqda. Koʻkimtir parlari va qizgʻish tavqli (qushlarning boʻynidagi halqa tavq deyiladi) togʻ kakligi ham gʻoyat goʻzal va nozik qush. Maʼshuqa pariday nozik boʻlgani uchun ham sarxush oshiqlar qoniga kirgan.

Qizil libosli jonon xuddi qon ichidagi malakday. Ajoyib, gʻoyat goʻzal tasvir! Ul jonon parivash boʻlgani sababli jonlar ichidagi jondir, yaʼni ruhdur, deydi shoir. Maqtada Navoiy bu fikrni aniq-ravshan bayon etgan: ul pari oʻzini laʼl rangli(qizil) libos ichiga yashirgani kabi oshiqning joni ham jonon laʼli (qizil labi)ichiga yashirinib, gʻoyib boʻlgan. Boshqacha aytganda, oshiq va mashuq birlashib ketgan. Bu oʻrinda yana bir izohga ehtiyoj bor: oʻquvchida qanday qilib bir odam ikkinchi odamning labida yoʻqolishi mumkin, degan savol tugʻilishi mumkin.

Bunga javob shuki, laʼl lab deganda tasavvufda maʼshuqa soʻzining botini, nozik maʼnosi, shuningdek, ilohiy nafas, yoʻqlikdan borliqni vujudga keltirgan Olloh kalomi anglashiladi. Yaʼni bu kalom barchani qamrab oladi, vali zotlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi. Mana shu tariqa, pari soʻzining tasviri nozik ibora va ishoralar orqali orifona maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan.

Kirdi siymobiy libos ichra yana ul gulʼuzor,

Ul quyoshdekkim, anga moniʼ boʻlur abri bahor.

Quyoshga boqqan kishining koʻzi yoshlanadi. Bahor chogʻi quyosh yuzini qoplagan bulutning koʻzi ham yoshlanib, yomgʻirga aylanadi. Shiddat bilan yogʻayotgan yomgʻir iplari simobiy koʻylakda chizilgan kalta-kalta chiziqlarni eslatadi. Bu holatni koʻrib, oshiqning yuragi simobdek beqaror boʻlib, hayajon va talvasaga tushadi. U oʻz iztirobi va beqarorligini kumushrang koʻylak tagida yorning oppoq va nozik badani bilan uygʻun koʻradi. Har bir latif harakat, har bir nozik xirom husniga husn qoʻshib, simobiy koʻylakning bu qadar maftunkor boʻlishiga aslida yorning xush qomati sabab ekaniga ishora qiladi.

Insonning vujudi-barcha goʻzalliklarni goʻzallashtiruvchi, jon bagʻishlovchi sharif xilqat. Olamning yaratilishidan murod inson ekan, undagi goʻzalliklarning mohiyati ham qaysidir maʼnoda inson sharofati bilan, inson tufaylidir. Koʻylakning

zeboligi ko‘ylak sohibining qomatiga bog‘liq bo‘lgani kabi, har bir insonning zohiriy go‘zalligi ham uning botinida pimhon turuvchi, simob ichidagi kumushdek sokin va yashirin turadigan ruhiyat olamining pokligi va go‘zalligi tufaylidir:

Bu libosi siymgun ichra sening nozuk taning

Ul kumushdekdurkim, ul siymob aro tut qay qaror.

Simob, kumush-oqlik, poklik ramzi. Yorning porloq yuzi bilan simobiy libosi bir-biriga aksi tushib, ko‘zguga aksi tushgan quyoshdek ko‘zlarni qamashtirishi-vasf etilayotgan mahbubaning ham surati, ham siyrati pokligidan dalolat. Bunday go‘zallik mazhari uchun to‘kilajak oshiqona ko‘z yoshlari ham poklanuvchi, poklantiruvchi xosiyatga ega. Nur nurga qovushadi, hech qachon balchiqda quyosh aksini ko‘rib bo‘lmaydi:

Bo‘ldi siymobiy libosing rangi baskim, ayladim

Ko‘z sahobidin boshing‘a ashk siymobin nisor.

Mav‘iza baytida mutafakkir shoir juda ko‘p g‘azallarida bot-bot ta‘kidlagan umrning bebaqoligi, tiriklik olamidagi jamiyki mavjudot alaloqibat fanoga yuz tutishi haqidagi fikrini yangi istiora va tazodlar orqali bayon etadi. Butun g‘azalda yetakchilik qilgan simobiy rang falakning ko‘k rangiga qarama-qarshi qo‘yilib, bu ranglar o‘lim va hayot, rohat va mashaqqat, baqo va fano, o‘tkinchilik va mangulikning timsoli o‘laroq baytda namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi baytlarda simobiy rang vasfi manzurning libosiga nisbatan qo‘llanilgani sabab taxayyul olamida boshqa bir tazod jonlanadi. “Futuvvatnomai sultoni”da berilishicha, oq rang (simobiy) rangdagi kiyimlar shohlar, a‘yonlar, shuningdek, madrasa ahli, faqih va hakimlarga xos bo‘lgan. Axzar, ya‘ni ko‘k rangdagi kiyimlar esa Haq oshiqolari va toliblarining kiyimi, darveshlarga nisbat berilgan. Navoiy aytmoqchi, shohu gado, hakimu so‘fiy, boy va darvesh – barcha vaqti soati kelib bu dunyoni tark etishga majbur. Mol-dunyoning borligi yo yo‘qligi hech kimni muqarrar ajaldan qutqarolmaydi, hukm yagona –barchamiz Allohnikimiz va barchamiz unga qaytajakmiz:

Tanni chun siymob etar bu charxi axzar oqibat,

To‘n agar siymobiy o‘lsun, gar yashil, bir hukmi bor.¹

Ko‘rgali husnungni zor-u muftalo bo‘ldum sanga,

Ne balolig‘ kun edikim oshno bo‘ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,

Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo‘ldum sanga.

Men qachon dedim: vafo qilg‘il mango zulm aylading,

¹ Давлатов О. Маънолар хазинаси (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар) 3-китоб. — Тошкент. Тамаддун, 2021-й. Б. 284

*Sen qachon deding: fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.
 Qay paripaykarg'a dersen: telba bo'ldung bu sifat?
 Ey paripaykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.
 Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, avvora bo'l,
 Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.
 Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
 Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.
 G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
 To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.*

“G‘aroyib us-sig‘ar”, 16-g‘azal

Bu ham Navoiyning mashhur g‘azallaridan bo‘lib, muhabbat mavzuidagi bu g‘azal oshiq va ma‘shuqa orasidagi aytishuv (dialog)ga asoslangan: ma‘shuqa noz-firoq ko‘rguzadi, oshiqni qiynaydi. Oshiq esa buni pisand qilmay, hamma balolar, jabru zulmga chidaydi va ishqida sodiq ekanini isbotlab boraveradi. Matla‘dan boshlab butun g‘azalda oshiqlikning azob ekani, muhabbat dilni ohanraboday tortib, tinch qo‘ymasligi, ma‘shuqa qancha o‘zini olib qochsa, oshiq shuncha telbalarcha unga intilishi tasvirlanadi.

Mubtalo, jafo, vafo, balo, fido, telba, so‘zlari vositasidagi baytlarda ikki xil xarakter, ya‘ni nozu karashmali ma‘shuqa va qiynoqlar girdobida qolgan unidvor oshiq obrazlari yaratilgan. Oltinchi bayt g‘azalda mazmunan alohida ajralib turadi. Albatta, bu bayt ham avvalgi baytlar bilan bog‘langan. Ammo bunda shoir muhabbat mavzuidagi ushbu g‘azal ham orifona ma‘noga ega ekaniga urg‘u beradi. Chunonchi, Jamshid jomi va Xizr suyi (obi hayot) – bu piri komil qalbi, bu qalb Alloh nuri bilan munavvar, Navoiy deydiki, agar mansab-u davlatni tark etib, darvesh bo‘lsam, ana shu abadiy ilohiy fayz nasibam bo‘ladi. Soqiy deganda ham piri komil, ham yori aziz, ma‘shuqa nazarda tutiladi. Ya‘ni soqiyga –pirga yetishib, ishq nuriga g‘arq bo‘lish uchun darvesh bo‘lish kerak. Oxirgi bayt bu fikrni yana ham kuchaytiradi.

Navoiyning qalami yana bir yangi san‘at asarini yaratishda chog‘lanar ekan “ma‘shuqa” sining go‘zal suvratini ko‘z o‘ngimizda namoyon etadi. Uni ishqqa mubtalo etgan malakning ohu ko‘zlari qora (“Qaro ko‘zum, kel-u mardumlug‘ emdi fan qilg‘il”), yuzlari gul (“Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gukshan”), yoyganda yoqimli hid taratuvchi sochlari uzun (“Kulbamga xayfshon kel, zulfung qilib oshufta”), qoshlari yoydek (“Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?”), lablari shakardek (“Yo Rab, ul shahdu shaker yo labdurur”), sumanga o‘xshagan qaddi nihol kabi (“Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il”), aslida “alif”ga ko‘proq o‘xshaydi (“Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozg‘on “alif”), beli ipdek ingichka

(“Belmu yo toreki, la’l ichra anga taskin erur”). Sarvqomat dilrabo ayni o’n sakkiz yoshda (“Ne ajab chun sarvinozim o’n sakiz yoshindadur”). Shoir hatto ma’shuqaning qanday kiyimlar kiyishini ham tasvirlaydi. Parichehra goh moviy ko’ylak ustidan gurang qabo kiyib (“Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig’, yashil”) oshiq yuragiga ishq urug’ini seoishdan charchamaydi. U shunchalar go’zalki, hatto Shirin yoki Layli dan ham ortiq:

Demangiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,

Xo’blikda ul sanam, avvalg’ilarg’a o’xshamas.

Guli ra’no kabi go’zal mashuqa nozik qadamlar ila bog’ni sayr etar ekan, gullar uning chiroyini ko’rib uyatdan qizarib, sarg’aya boshlaydi:

Gulruxi ra’noqadim chun bog’ tavf aylar borib,

Injiolidin guli ra’no qizarib, sarg’oyib.

Layli bir qayrilib Qaysni “majnun” aylaganidek, u sanam ham oshiqning es-hushini o’g’irladi. U shu kabi boshqa yuraklarga ham “sho’x ohu ko’zlari” bilan ishq olovini yoqqan. Ma’shuqa oshiq holiga beparvo, balki jafokor. Ko’rinadiki, navoiy ma’shuqaning nafaqat tashqi ko’rinishi-suvratini, balki endi uning ichki dunyosi-siyratini ham chizadi:

Menga nomehribon yor o’zgalarga mehribon ermish,

Mening jonim olib, ag’yorga oromijon ermish.

U nega oshiqqa mehribon emas? Nega kelaman deb va’da berdi-yu, kelmadi? Uni kuta-kuta oshiq beqarorning ko’zlariga tong otguncha uyqu ham kelmadi.

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro’ kelmadi,

Ko’zlarimg’a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Qizil, sariq, yashil liboslar kiyib uni telba qilgan yori kelmadi. Va’daga vafo qilmadi. Uning oh-u fig’oni ko’kni tutdi. Sahro shamoli oshiq nolalaridan atrofga qizil, sariq, yashil bo’lib taraldi:

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,

Kim esar ul dasht aro har yon qizil, sorig’, yashil.

Bu jabr-u sitamlarning barchasiga sabab-mashuqa bevafo edi. Uning ko’ngli o’zgada edi. Oshiqning raqibi paydo bo’ladi.

Ul parikim, ani demishman yor,

Odamiylik’din o’zga barchasi bor.

Ha, mashuqada odamiylik, ya’ni vafo, sadoqat yo’q. Bechora oshiq koshki ul bevafoni ko’rmaganda edi, yuragida muhabbat ildiz otmaganda edi, koshki notavon ko’nglida yor vasli orzusi paydo bo’lmaganda edi:

Emdikim devona-yu rasvoyi olam bo’lmisham,

Vasl chun mumkin yo’q o’lturgay bu savdo koshki.

Sitamkor dilbar oshiq ko'nglini chok-chok qilib tashlagani uchun endi undan nishon qolmadi. Kul ichidan o't axtarib topmagan kabi yuragidan ham nishon topilmaydi:

*Yuz shikof etting tanim, yo'q erdi ko'nglumdin nishon,
O'ylakim o't topmag'aylar kulni har yon axtorib.*

U suyuklisini ko'rish maqsadida yo'rg'a oti yor eshigi oldidan o'tayotganida sekin yurishi uchun unga bag'ir qonidan xono bog'laydi. Yorning iti uni quvib ketmas ligi uchun jon tomirini arqon qilib uni bog'lashga qodir ("It" deganda raqib na zarda tutilgan):

*Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,
Ittingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.*

Navbahor ayyomi, ammo telba oshiq buni payqamaydi. Uning yori yo'qligi sabab, hatto navbahor ham xazon faslidir:

*Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.*

Unga endi yorsiz hayot qorong'u. Oshiqning nazdida yordan ayro ko'ngil sultonsiz mamlakatga, jimsiz jonga o'xshaydi ("Yordin ayru ko'ngil..." g'azali).

Yori bo'lmas ekan, u bir tuproqki gul-u rayhon unmaydi, bir qorong'u kechaki, unda oy yo'q. Navoiy bunday uqubatlardan noliydi:

*Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,
Hajrdin dardi va lekin vasldan darmoni yo'q.*

Endi u yorsiz "bir egasiz it" kabidir. Bechora oshiqning kipriklari hanuz shabnam to'kilgan maysadek nam. Yuragi "subhning ko'yagidek chok-chok." Ma'shuqa uning qalbini shunchalar tilka pora qildiki, endi unda yurak borligi ham gumon ("Rahm etib, ey do'stlar..." g'azali). Agar ichiga qo'l solib "yuzi qora ko'ngul" topilsa, "uni tortib, uzib, o'tga solib, jonimni qutqaring,"- deb nola chekadi bechora oshiq. Niyatiga yetolmay, bu olamdan armon bilan ketar ekan, hech bo'lmasa tuproqqa qo'yilganda yori kelishini xohlaydi. Agar shu ham nasib qilmasa:

*Gar muyassar bo'lmasa bu ish, Navoiy xastani
Qo'ldabon, yo sudrabon mayxona sari boshqoring.*

Ha, mumtoz she'riyatda may ishq timsoli, mashuqa Olloh, raqib-nafs timsoli ekan, komilikka erishishning birdan-bir yo'li ishqqa mubtalo bo'lish, va bu yo'lda barcha nafs balolaridan qutilish, uni yengish va nihoyat, olloh tajallisiga erishishdir. Navoiy inson ruhi va tanining poklanishini biz yuqorida ifodalashga uringan "usul" orqali g'oyat ustakorlik bilan ko'rsata olgan.

DAVLAT BOSHQARUV SEKTORLARI AXBOROT SIYOSATINI OLIB BORISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNI

Murodov Akmal

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Axborot xizmati va Jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi

2-boshqich magistranti

Annotatsiya. Davlat tashkilotlari va xususiy sektorda jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etishning maqsadi, maqsadli auditoriya bilan ishlash jarayoni bir-biridan biroz farq qiladi. Xususiy sektor, u yoki bu turdagi mahsulot/xizmatni taklif qiluvchi har qanday biznes turi asosiy maqsad sifatida sotuv hajmini oshirishni birlamchi masala deb hisoblaydi. Sotuv hajmini oshirish uchun marketing va PR birgalikda ishlatiladi. Davlat boshqaruv sektorlari faoliyatida esa Jamoatchilik bilan aloqalarni samarali yo'lga qo'yishdan asosiy maqsad, sektor faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash, jamoatchilik oldida tashkilotning hisobdorligini oshirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlat organlari Respublika fuqarolari oldidagi vazifalarini qay tarzda bajarayotganligini doimiy ko'rsatish uchun muntazam axborot oqimini shakllantirish, asosiy rasmiy axborot muhitini yaratish va rasmiy manbaa sifatida tashkilot axborot xizmatidan foydalanishi zarur.

Kalit so'zlar: axborot siyosati, axborot xizmati, axborot ochiqligi, aholi murojaatlari, e-hukumat;

Аннотация. Цель установления связей с общественностью в общественных организациях и в частном секторе, процесс работы с целевой аудиторией несколько отличаются друг от друга. Частный сектор, любой тип бизнеса, который предлагает тот или иной продукт/услугу, считает увеличение объема продаж своей основной задачей. Маркетинг и PR используются вместе для увеличения продаж. В деятельности секторов государственного управления основной целью эффективного установления отношений с общественностью является обеспечение открытости и прозрачности деятельности сектора, повышение подотчетности организации перед общественностью. Соответственно, необходимо сформировать регулярный поток информации, создать основную официальную информационную среду, наладить информационную службу в качестве официального источника, чтобы постоянно показывать гражданам республики, как государственные органы выполняют свои обязанности.

Annotation. *The purpose of organizing public relations in public organizations and the private sector, the process of working with the target audience is slightly different from each other. The private sector, any type of business that offers a product/service of one kind or another considers increasing sales volume as a primary objective. Marketing and PR are used together to increase sales. In the activities of public administration sectors, the main goal of effective establishment of relations with the public is to ensure the openness and transparency of the activities of the sector, and to increase the accountability of the organization to the public. Accordingly, it is necessary to form a regular flow of information, create the main official information environment and establish an information service of the organization as an official source, in order to constantly show how the state bodies are performing their duties to the citizens of the Republic.*

Axborot siyosati davlatning axborot-kommunikatsiya yo‘nalishini belgilab beruvchi muhim jihatdir. Davlatning yagona axborot siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish orqali axborot sohasini davlat tomonidan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, mamlakat ommaviy axborot vositalarini jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalarini va tashkilotlari matbuot xizmatlarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan tez-tez tor idoraviy manfaatlarga amal qiladigan hamkorlik darajasi va sifati past darajada saqlanib qolmoqda¹. Fikrimizni quyidagi raqamlar orqali dalillashimiz mumkin. 2021-yil uchun Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining “Ochiqlik indeksi” yuzasidan o‘tkazilgan monitoring yakuni bo‘yicha tuzilgan reytingda 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra ko‘plab vazirliklar, qo‘mitalar va hokimliklarning jamoatchilik oldidagi ochiq va oshkora siyosati o‘rta yoki qoniqarli darajada deb baholangan. Ularning ichida eng yaxshi natijani Adliya vazirligi axborot xizmati ko‘rsatgan.

Bir narsani ta‘kidlash zarurki, “davlat boshqaruvining o‘zi aslida borgan sari kommunikativ harakatga aylanib boryapti”². Hukumatning jamoatchilik bilan aloqalari barcha davlat sektori organlariga o‘z vazifalarini amalga oshirish va masuliyatni kuchaytirishda yordam beradigan muhim vositadir. Davlat rahbarlarining jamoatchilik oldidagi majburiyatlarini bajarishga yordam berish uchun tashqi aloqa usullaridan foydalanish mumkin: tashkilot yutuqlari va boshqaruvi haqida

¹ Qudratxo‘ja Sh., Eshbekov T. PR va parlament jurnalistikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.:O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 2019. –b. 62.

² Doris A. Graber, The Power of Communication: Managing Information in Public Organizations. Washington, DC: CQ Press, 2003. –p.9.

fuqarolarga hisobot berish; javobgarlikka tortish; va demokratiyaning asosi bo'lgan jamoatchilik fikrini inobatga olish va ularning axborotga bo'lgan talabini qondirishgaga hissa qo'shish. Bundan tashqari, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishda va o'zgarishda davom etmoqda. "Ijtimoiy tarmoqlar - asrning boshida ham mavjud bo'lmagan aloqa shakli - hozir o'zaro ta'sirning kuchli, hatto hukmron usullariga aylandi. Muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan tashkilotlar fuqarolar bilan har ikki yo'nalishda muloqot qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va ehtimoliy xavflarni ham bilishlari kerak"¹.

Jamoatchilik bilan aloqalar texnika va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining yordami bilan juda katta imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Lekin, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi masalasini ham unutmasligimiz kerak. Bugungi online mijozlar va auditoriya o'zining shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi haqida ancha jiddiyroq qayg'urishlari juda muhim. Bu borada har bir tashkilot o'z auditoriyasining ma'lumot xavfsizligini ta'minlovchi nizom ishlab chiqishi ham muhim zarurat hisoblanadi.

"O'zSuvTa'minot" aksiyadorlik jamiyatining axborot xizmati faoliyatini o'rganar ekanmiz, rasmiy veb-saytning kontenti bilan yaqindan tanishib chiqdik. Jamiyatning rasmiy veb-sayti interfeysi aniq, tushunarli qilib tayyorlangan. Ya'ni texnik jihatdan yaxshi ishlangan. Sayt orqali barcha tashrif buyuruvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni osonlik bilan topishlari mumkin.

Eng e'tiborlisi shuki, "ochiq ma'lumotlar"² veb-sahifasida jamiyat faoliyati bilan bog'liq bir qancha turdagi ma'lumotlar e'lon qilingan. "O'zsuvta'minot" AJning 2023-yil I yarim yilikka mo'ljallangan ish rejasi, Amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar 2023-yil aprel oyi holatiga ko'ra yangilangan va yuklab olish uchun ochiq manba sifatida taqdim etilgan. Jamiyat taklif qilgan interaktiv xizmatlar orqali Respublikaning istalgan hududidagi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblagich ko'rsatgich raqamlarini kiritishi va hisoblashi mumkin. Veb-saytning bosh sahifasida aholi murojaatlarining satatistikasi berilgan. Har bir xizmat foydalanuvchisi o'z shaxsiy kabinetiga ega va sayt orqali osonlik bilan xarajatlarini nazorat qila oladi.

Similarwebdan olingan statistikaga ko'ra³, "uzsuv.uz" saytining reyting ma'lumotlari quyidagicha:

¹ Zamonaviy media muhitda PR xizmatlar. J. VIII. –T: "O'zbekiston" NMIU, 2019. –b.45.

² <https://uzsuv.uz/uz/ochiqmalumotlarss>

³ <https://www.similarweb.com/website/uzsuv.uz/#overview>

- 2023-yil may oyi holatiga ko‘ra umumiy tashriflar soni 130ming marta (aprel oyiga nisbatan 43foiz kam ko‘rsatkich)
- tashrif buyuruvchilarning 25 foizi bir necha soniyada saytni tark etishadi
- o‘rtacha hisobda 2.61 ta veb-sahifa ko‘riladi
- tashriflarning o‘rtacha davomiyligi 03:34 daqiqani tashkil etadi.
- foydalanuvchilarning demografik ma’lumotlariga ko‘ra, saytga tashrif buyuruvchilarning 54.68 foizi erkaklar, 45,3 foizini ayollar tashkil etadi.

Raqamlardan ko‘rinib turganidek, saytni ommalashtirish va foydalanuvchilar sonini oshirish bo‘yicha qilinishi kerak bo‘lgan ishlar bor. Rasmiy veb-saytga tashrif buyuruvchilar qancha ko‘p bo‘lsa, rasmiy va ishonchli kommunikatsiya jarayonini o‘rnatish mumkin. To‘g‘ri, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali buni osonroq va foydalanuvchilar uchun qulay qilsa bo‘ladi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarni tashkilotning egalik qiluvchi mediasi ro‘yxatiga kiritish noto‘g‘ri bo‘ladi. Serverdagi ma’lumotlarga tashkilot egalik qilolmagani va uni boshqarolmaslogini inobatga olsak, veb saytlardagi ma’lumotlar nisbatan barqaror va har qanday texnik yangilanishlardan keyin ham qayta tiklash imkoniyati har doim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassisning maqsadi tashkilotning siyosati, pozitsiyalari va qoidalarini, ma’lumotlarini nafaqat ommaviy axborot vositalari, balki yirik korporatsiyalardan tortib mahalliy biznesgacha notijorat tashkilotlar, nufuzli doiralar va umuman jamoatchilikning turli auditoriyalariga ajoyib tarzda yetkazish yo‘lini bilishi kerak. Tashkilotning muloqotdagi muvaffaqiyati jamoatchilik bilan aloqalar operatsiyalaridagi zukkolik yoki aloqa vositalari deb ataladigan narsalarni qo‘llashdagi bilimga emas, balki yaxshi jamoatchilik fikri va ushbu auditoriyaning samimiy qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qudratxo‘ja Sh., Eshbekov T. PR va parlament jurnalistikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.:O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 2019. –b. 62.
2. Doris A. Graber, The Power of Communication: Managing Information in Public Organizations. Washington, DC: CQ Press, 2003. –p.9.
3. Zamonaviy media muhitda PR xizmatlar. J. VIII. –T: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. –b.45.
4. <https://uzsuv.uz/uz/ochiqmalumotlarss>
5. <https://www.similarweb.com/website/uzsuv.uz/#overview>

DERIVACIYALÍQ MILLIY OYÍN ATAMALARÍNÍN LINGVOMÁDENIY KÓRINISI

Patullaeva G., Shamambetova T.

Qaraqalpaqstan Respublikası Ájiniyaz atındaǵı
Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu

***Annotaciya:** Maqalada qaraqalpaq xalqınıń milliy mádeniyatqa, milliy miyraslarǵa bay bolǵanı ushın, olarda júz tomliq milliy folklorlıq miyraslardıń bar ekenine toqtalǵan. Milliy xalıq oyın atamalarınń kóplegen túrleriniń derivaciyalıq usıllar arqalı jasalıwı, olardıń óz semantikasına keńnen toqtalǵan. Qaraqalpaq xalıq oyın atamaların lingvomádeniy baǵdarda elede izertlew aktual másele ekenligi aytilǵan.*

***Tayanış sózler:** derivaciya, milliy oyın ataması, milliy mádeniyat, milliy miyras, lingvomádeniy izertlew.*

